

81.2
Q80

Muhabbat Qurbonova, Ma'rufjon Yo'ldoshev

MATN TILSHUNOSLIGI



01.2
80

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

Muhabbat Kurbanova, Ma'rufjon Yo'ldoshev

MATN TILSHUNOSLIGI

**Toshkent
"Universitet"
2014**

TerDU ARM
№ 390786

UDK 494.322 o'zb – 4(075,8)

Q 80

Qurbonova M. "Matn tilshunosligi" – Toshkent. "Universitet" nashriyoti – 2014
KBK 81.2 o'zb

Mazkur o'quv qo'llanmada matn kategoriyasining o'rganilishi, matn va kommunikatsiya, matn va uning tiplari, matn va uning qismlarini bog'lovchi vositalar, nutq uslubi va uning ko'rinishlari, badiiy matnning fonetik-fonologik, leksik-grammatik xususiyatlari, badiiy matnni tadqiq etish tamoyillari va usullari haqida so'z yuritiladi.

Qo'llanma magistrantlar, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar, mustaqil tadqiqotchilar hamda keng kitobxonalarga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir: R.Sayfullayeva- filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

A.Rafiyev - filologiya fanlari nomzodi, dotsent

M.Saparniyazova - filologiya fanlari nomzodi, dotsent

5A 120102- Lingvistika (O'zbek tili) mutaxassisligi magistr talabalari uchun o'quv qo'llanma

O'zbekiston Milliy universiteti kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (2013-yil 24-aprel, bayonnoma № 12)

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligining 2013 yil 20-avgustdagi 312-sonli buyrug'iga asosan o'quv qo'llanma sifatida tasdiqlangan va nashr etishga ruxsat berilgan.

ISBN – 978-9943-305-99-1

“MATN TILSHUNOSLIGI” FANINING O‘RGANISH OB‘YEKTI VA MAQSAD-VAZIFALARI

“Matn tilshunosligi” fanining o‘rganish ob‘yekti matn hodisasi bo‘lib, u gapdan ko‘ra yirik hajmli aloqa vositasi, nutqiy faoliyat mahsulati, muayyan qonuniyatlar asosida shakllangan nutq ko‘rinishidir. Ayrim mutaxassislar bittagina gap ham minimal matn tushunchasiga teng kelishi mumkin degan fikrni ilgari surishgan. Tilshunos N.Turniyozov «matn bir so‘z bilan, bir necha so‘z bilan, bir necha gap bilan, bir necha abzas bilan va bir necha bob bilan ifodalanishi ham mumkin»¹ligini aytadi. Lekin olim shuni ham ta‘kidlaydiki, «matn lingvistikasi muammolarini bir so‘zli, birikma yoki biror sodda gap bilan ifodalangan matnlar asosida o‘rganish maqsadga muvofiq emas. Chunki bunday matnlarga tayanib, til sistemasi unsurlarining nutqqa ko‘chirilishiga oid masalalar tavsifini mukammal holatda berib bo‘lmaydi».

Ushbu o‘quv qo‘llanmada magistrnlarni matn tilshunosligi fanining maqsad va vazifalari bilan tanishtirish, ularga fanning asosiy tushunchalari, muammolari haqida ma‘lumot berish maqsad qilib olingan. Oquv qo‘llanmada quyidagi masalalarga to‘xtalinadi:

- matn lingvistikasi fanining paydo bo‘lishi, dunyo tilshunosligida matn kategoriyasining o‘rganilishi, shakllanish bosqichlari, jahon tilshunosligida (I.R.Galperin, K.Kojevnikova, Ye.A.Referovskaya, G.Ya.Solganik, V.G.Gak, M.V.Lyapon., O.I.Moskalskaya, A.A.Metsler, O.L.Kamenskaya va boshqalarning tadqiqotlari) va o‘zbek tilshunosligida matn lingvistikasi fanining paydo bo‘lishi (N.M.Turniyozov, A.Mamajonov, E.Qilichevlarning bu boradagi qarashlari. S.Boymirzayeva, M.Yo‘ldoshevlarning tadqiqotlari);

- matn va uning til sistemasidagi o‘rni, fanlarning sistemaviy tabiati, tilshunoslikning fanlar sistemasidagi o‘rni, tilning sistemalardan tashkil topganligi masalasi, matn va uning tarkibiy qismlari (fonema-leksema-morfema-gap-matn ierarxiyasi)ning sistemaviy tabiatini ochib berish;

- matnning eng asosiy kommunikativ birlik sifatidagi ahamiyati, matn va uning maqomini belgilash muammosi, matnning yondosh

¹ Турнизов Н. Матн лингвистикаси.-Самарканд, СамДЧТИ, 2004, 21-бет.

hodisalarga munosabati, matnning til va nutq dixotomiyasidagi o'rnini belgilash, matnga sof nutqiy birlik sifatida yondashish, matnning til va nutq birligi sifatidagi maqomi, bunday farazning falsafiy-metodologik asoslarini o'rganish,

- matn va kommunikatsiya munosabati, kommunikatsiya va uning vositalari, nutqiy akt, kommunikant tushunchalari, shuningdek, matn va uning tarkibiy qismlari, matn birliklari, gap, qo'shma gap, murakkab tuzilmali gaplar, supersintaktik birliklar, period, abzas tushunchalari, ularning o'zaro munosabati, so'z, gap va matn, matn birliklarining semantik-grammatik jihatlari haqida ma'lumot berish;

- matn tarkibiy qismini bog'lovchi vositalar, teng va ergashtiruvchi bog'lovchilar, yuklamalar, nisbiy so'zlar, fe'l shakllari, makon va zamon ifodalovchi so'zlar, matn komponentlariaro semantik va grammatik munosabatlar, ichki sintagmatik munosabatlar(matn birliklarining semantik-grammatik munosabati), tashqi sintagmatik munosabatlar(matn birliklarining boshqa birliklar bilan munosabati), matnda mantiqiy izchillik, uning saqlanishi, buzilishi, ataylab o'zgartirilishi. matnda modallikning ifodalanishi, paradigmatic va sintagmatik munosabatlarda estetik qarashlarning ifodalanishi masalalarini o'rganish;

- matn va uning tipologik tasnifi: og'zaki matn, yozma matn, minimal matn, maksimal matn, mikromatn, makromatn turg'un strukturali matnlar (ma'lumotnoma, dalolatnoma, annotatsiya, patent) va erkin strukturali matn hikoya, muhokama matn, ilmiy matn (tezis, maqola, ma'ruza, taqrizlar), badiiy matn (nasriy va nazmiy asarlar), rasmiy matn (ma'lumotnoma, qaror, buyruq, tavsifnoma, tavsiyanomalar), ommabop matn, hikoya mazmunli matn, tasviriy matn, izoh mazmunli matn, didaktik matn, xabar-darak mazmunli matn, so'roq mazmunli matn, buyruq-istak mazmunli matn, hissiy ifoda mazmunli matnlar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini yoritish;

- matn va uslub munosabati, matnning funksional tasnifi masalasi, jonli so'zlashuv uslubiga munosabat, jonli so'zlashuv va adabiy til "zidligi", aloqasi; adabiy nutq uslublari: rasmiy uslub, ilmiy uslub, publisistik uslub, uning zamon bilan bog'liqligi, hozirjavobligi, makon bilan aloqadorligi, o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

- o'zbek tilining badiiy tasvir vositalari: troplar (ko'chim): metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik kabilar; sintaktik

figuralar: takror, ellipsis, inversiya, gradatsiya, ko'p bog'lovchilik, bog'lovchisizlik, uyushqlik va b. haqida ma'lumot berish;

- matn va uning lingvistik tahlili, badiiy matnning lingvistik tahlili(fonetik tahlil, leksik-semantik tahlil, morfologik tahlil, sintaktik tahlil), badiiy matnning lingvistik mikroskopik tahlili(fonetik sath, leksik-semantik sath, morfologik sath, sintaktik sath) ni sharhlash;

- badiiy matnning lingvopoetik tahlili, badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari(shakl va mazmun birligi tamoyili, makon va zamon birligi tamoyili, xususiylikdan umumiylikka o'tish tamoyili); badiiy matnni tahlil qilish usullari(lisoniy tabdil usuli, matn variantlarini qiyoslash usuli, lug'atlarga asoslanish usuli, lisoniy birliklar indeksini tuzish usuli) haqida ma'lumot berish.

MATN TILSHUNOSLIGI FANINING SHAKLLANISHI

Tayanch tushunchalar: *matnshunoslik, dixotomiya, og'zaki nutq, yozma nutq, maxsus qo'llanish, nutq muhiti, stilistika, bog'lanishli nutq, nutq birligi, kommunikativ birlik, pragmatika, inson omili, zamon, makon*

Tilshunoslik fani bugungi kunga qadar tilning barcha sath (fonologik, morfologik, sintaktik) larining har biri bilan bog'liq muammolar tadqiqida jiddiy yutuqlarni qo'lga kiritdi. Matn va uning tabiatini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar XX asr o'rtalariga kelib paydo bo'la boshladi.

Bugungi kunda matnning maqomi, uning til sistemasidagi o'rni, matnni lingvistik tahlil qilishda nimadan boshlamoq kerak, degan savollarga ham tilshunoslarning berayotgan javoblari bir-biriga unchalik mos kelmaydi. Masalan, matnning maqomini belgilash masalasida ham ba'zan turli xil fikrlarga duch kelamiz. Matnning belgilar tabiati nimalardan iboratligi, matnni nutqiy jarayon deb atash lozimmi yoki matnni nutqiy jarayonning natijasi sifatida talqin etish kerakmi, matnni og'zaki nutq bilan yoki yozma nutq bilan bog'lab o'rganish kerakmi, degan masalalar xususida ham turlicha nuqtai nazarlarni uchratishimiz mumkin.

Matn tilshunosligi masalalari juda ko'plab tilshunoslarning e'tiborini tortgan. Jumladan, V.Matezius, F.Danesh, V.Dressler, P.Hartman, I.Kovtunova, I.Galperin, K.Gauzenblas, N.Pospelov, T. Silman, N.Shvedova, K. Solganik, L.Loseva, O.Moskalskaya,

K.Abdullayev, N.Navro'zova kabi xorijlik tilshunolar matn kategoriyasi haqida muhim fikrlarni ilgari surishgan.

Matnning nutq kategoriyasi ekanligi masalasi bevosita "nutqiy jarayonning o'zi" va "nutqiy faoliyat natijasi" tushunchalari bilan uzviy bog'liqdir. Chex olimi K.Gauzenblas matnni ham nutqiy faoliyat sifatida, ham nutqiy faoliyat mahsuli sifatida og'zaki nutqiy jarayon, deb talqin qiladi.

I.R. Galperinning fikricha, matn yozma nutq mahsulidir, og'zaki nutq esa turli qaytariqlarni, uzun-yuluq gaplarni ham o'z ichiga oladi va uni tekshiruv ob'yekti bola oladigan matn deb e'tirof etish maqsadga muvofiq emas.

Matn tahlilini sintaksis yoki stilistikada o'rganish lozimmi, yoxud buning uchun "matn tilshunosligi" deb ataluvchi yangi sohani ilmiy asoslash kerakmi, degan savollar ham fanda ayrim bahsmunozaralarga sabab bolgan.

O'tgah asrning 60-yillariga qadar gap sintaksisi lingvistik tahlilning eng yuqori pog'onasi, deb hisoblanar, lingvistik tadqiqotlar gap tahlili bilan tugatilar edi. Bir necha gaplarning mazmuniy va struktur yaxlitligidan tashkil topgan matn esa ilmiy tahlilga tortilmas edi.

Ma'lumki, gap tilning eng yuqori pog'onasini tashkil etuvchi birlik sanaladi. Ammo gap nutqiy jarayonda eng kichik birliklar sirasiga kiradi. Shuning uchun ham gapni matnning qurilish materiali tarzida talqin etish maqsadga muvofiq.

Dunyo tilshunosligida matn va uning lingvistik tabiati haqida qator fikrlar o'rtaga tashlangan. Fransuz tilshunosi R.Bart: "Ichki bog'lanishli bo'lgan, muloqot maqsadida mazmunan o'zaro birikkan gaplardan tashkil topgan nutqning har qanday parchasi matn deb ataladi" desa, polyak tilshunosi A.Boguslavskiy matnni bir necha gapdan tashkil topgan nutqiy material tarzida izohlaydi. Bunda u asosiy e'tiborini muallif nima haqida gapirayotgani va uning mazmuniga emas, balki mazkur matn qanday komponentlardan tuzilayotganiga qaratadi.

K.Kojevnikova tadqiqotlarida asosiy e'tibor matnning bog'lanishli nutq mahsuli ekanligiga qaratiladi va uning mazmuniy jihatdan tugallangan bo'lishi alohida uqtiriladi. Olimaning matn komponentlari o'zaro ma'no jihatdan ham, grammatik jihatdan ham bog'lanishli bo'lishi haqidagi fikri e'tiborga molikdir, chunki

lingvistik tilshunoslar matn komponentlarini faqat mazmuniy bog'lanishli bo'lishini ta'kidlaydilar va ularning leksik-grammatik vositalar orqali bog'lanishini nazardan chetda qoldiradilar.

Chex tilshunosi K.Kojenikova matnni mazmuniy jihatdan tuzilgan eng yuqori ideal kommunikativ birlik sifatida tushinadi. Shuning uchun matnning gap, murakkab sintaktik qurilma, abzas, bob kabi birliklar munosabatidan tashkil topgan nutq yoki til birligi tarzida izohlanishi maqsadga muvofiqligini alohida ta'kidlaydi.

Yana bir chex tilshunosi Yan Korjenskiy matn talqinini *semantic* va *pragmatic component* tushunchalari bilan bog'lab olib boradi. Bunda u semantik komponent birinchi galda matn materialini tuzatuvchi ma'no bazasida hamda uning voqelanishini ta'minlovchi vositalardan iborat, deb hisoblaydi. Olim semantik komponent jumlasiga so'zlovchini, ya'ni inson omilini ham kiritadi. Pragmatik komponent deganda esa, ma'no ifodasi sistemasida ahamiyat kasb etuvchi turli xil munosabatlarni tushunadi.

Nemis tilshunosi K.Ye.Haydolf matnni kommunikativ jarayondagi gaplarning ma'lum xabar berish uchun o'zaro bog'lanishi tarzida talqin etadi va matn tarkibida gaplarning tartib bilan o'zaro bog'lanib kelishida quyidagilar e'tiborga olinishi kerakligini ta'kidlaydi: a) fikr butunligi; b) leksik butunlik; v) kommunikativ butunlik; g) zamon va nuqtai nazar butunliklari .

Rus olimi M.V.Lyapon matn tavsifi quyidagi to'rt belgiga ko'ra asoslanishi mumkinligini ko'rsatadi:

1. Matn – bu jumlalarning o'zaro munosabatidan kelib chiquvchi xabardir. Matn tadqiqotchi uchun til hodisalarini o'rganishda birdan-bir manbadir.
2. Matn bu so'zlovchining nutqiy qobiliyatini ro'yobga chiqaruvchi vositadir. Bu jarayonda matn tilning nutqda real qo'llanilishini ta'minlovchi ma'kon vazifasini ham bajaradi.
3. Matn bu so'zlovchining faol nutqiy faoliyati mahsulidir.
4. Matn bu til sistemasining kommunikativ jarayonda muhim funktsiya bajaruvchi eng yuqori pog'onasidir.

M.V.Lyapon matn shakllanishida inson omilining eng muhim omillaridan biri ekanligini, inson matn shakllanishi uchun jonli manba ekanligini ta'kidlaydi.

O'tgan asrning 90- yillaridan boshlab o'zbek olimlari ham matn tilshunosligining nazariy muammolari bilan shug'ullana boshladilar.

Bu jihatdan B.O`rinboyev, R.Qo`ng`urov, J.Lapasovlarning “Badiiy tekstning lingvistik tahlili” nomli o`quv qo`llanmasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda matn tiplari, ularning umumiy va o`ziga xos belgilari matnning lisoniy tahlili metodologik tamoyillari, matn yaratish muammolari ifoda vositalarining tanlanishi va ularning matn tuzilishidagi roli singari dolzarb masalalar haqida ma`lumotlar beriladi.

Ozbek tilshunosligida matn tadqiqi xususida gap ketganda, M.To`xsanovning “Mikromatn va o`zbek badiiy nutqida uning kogerentligini ifodalovchi vositalar” mavzusidagi nomzodlik ishini ta`kidlash joiz.

A.Mamajonovning 1989 yilda nashr qilingan “Tekst lingvistikasi” nomli qo`llanmasi ushbu masalaga bag`ishlangan dastlabki o`quv qo`llanmasi ekanligi bilan diqqatga sazovor. Bu o`quv qo`llanmada matnning nazariy masalalari, uning maqomi, birliklari, matn turlari, matn tarkibiy qismlari, matn tarkibiy qismini bog`lovchi vositalar kabi qator masalalar yoritilgan.

M.Hakimovning “O`zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida o`zbek tilining ilmiy uslubi matn kategoriyasi aspektida o`rganilgan, gumanitar fanlarga oid ilmiy matnlarning sintagmatik va pragmatik xususiyatlari ochib berilgan.

O`zbek tilidagi diniy matnlar ekzotik leksikasi tadqiqotchisi N.Ulug`ovning nomzodlik ishida tadqiqot obyekti bo`lgan. N.Ulug`ov diniy matn tilshunoslikda o`ziga xos alohida matn turi sifatida o`rganilishi maqsadga muvofiq, degan fikrini ekzotik leksika materiallari asosida dalillashga intiladi.

Prof. E.Qilichevning “Matnning lingvistik tahlili” (2000) nomli o`quv qo`llanmasida matnning ko`rinishlari va uni lisoniy tahlil qilish namunalari berilgan. Eng muhimi, ishda poetik va nasriy matnlarni sharhlab o`qish hamda tahlil qilish matnni “lingvistik mikroskop ostida” o`rganishga oid mashq namunalari keltirilgan.

N.Turniyozov, B.Yo`ldoshevlar tomonidan ham ushbu fan bo`yicha ma`ruzalar matnlari nashr qilindi va fanning muhim tushunchalari haqida keng ma`lumot berildi. Mazkur qo`llanmamizda N.Turniyozov, B.Yo`ldoshevlarning yaratilgan ushbu asaridan ba`zi mavzularni yoritishda keng foydalanildi.

Ma'lumki, pragmatika tilshunoslikning yangi bir nazariy va amaliy tarmog'ı sifatida insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida mujassamlashtirgan nutqiy jarayon, nutqiy vaziyat ta'siri bilan namoyon bo'luvchi, nutq ishtirokchilariga xos kommunikativ niyat bilan aloqador masalalarni o'rganadi. Lingvistik pragmatikaning o'zbek tilshunosligida shakllanishida M.Hakimovning tadqiqoti ahvolda ahamiyat kasb etadi. Uning "O'zbek tilida matnning pragmatik tahlili" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi o'zbek filologiyasida matn tilshunosligi rivojiga qo'shilgan munosib hissa bo'ldi.

Mazkur qo'llanmaning mualliflaridan biri M.Yo'ldoshevning badiiy matn lingvopoetikasiga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasida matn nazariyasiga oid muhim ma'lumotlar beriladi. U, shuningdek, ushbu tadqiqot bilan bog'liq bir qancha o'quv qo'llanmalarni nashr qildirdi: "Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari" (T.2007), "Badiiy matn lingvopoetikasi" (T.: "Fan", 2008), "Badiiy matnning lisoniy tahlili" (T., Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010).

M.Yo'ldoshevning yuqoridagi asarlarida matnning nazariy masalalari, uning maqomi, birliklari, matn turlari, matn tarkibiy qismlari, matn tarkibiy qismini bog'lovchi vositalar, badiiy matn tahlil qilish tamoyillari (shakl va mazmun birligi tamoyili; makon va zamon birligi tamoyili; xususiylikdan umumiylikka o'tish tamoyili), badiiy matn tahlil qilish usullari (lisoniy tabdil usuli; matn variantlarini qiyoslash usuli; lug'atlarga asoslanish usuli; lisoniy birliklar indeksini tuzish usuli), badiiy matnning lingvistik tahlili (badiiy matnning fonetik-fonologik xususiyatlari, badiiy matnning leksik-semantik xususiyatlari, badiiy matnning morfologik xususiyatlari, badiiy matnning sintaktik xususiyatlari), badiiy matnda ko'chimlar kabi masalalar haqidagi ma'lumotlar magistrlar uchun tayyorlangan mazkur qo'llanma uchun asosiy manba bo'ldi, mavzuning xarakteridan kelib chiqib ularga murojaat qilindi.

O'zbek tilshunosligida matn muammolari tadqiqida yana bir salmoqli ish S.Boymirzayevaning "O'zbek tilida matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasidir. Mazkur doktorlik dissertatsiyasida matnning kategorial belgilari, matnning kognitiv-diskursiv xususiyatlari, matnning pragmativ mazmuni, matn tushunish muammosi kabi qator masalalar kun tartibiga qo'yilgan. Bu

tadqiqot matn kategoriyasiga inson kognitiv faoliyati sifatida yondashilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi va ana shu jihati bilan matn tilshunosligi fanining rivojiga munosib hissa'qo'shadi.

Matn muammolari tadqiqida yana bir jiddiy ish D. Xudoyberganovanning "Matnning antroposentrik tadqiqi"(Toshkent, "Fan", 2013) nomli monografiyasidir. Mazkur tadqiqot matni XX asrning oxirlarida shakllangan antroposentrik paradigma asosida tahlil etish masalasiga bag'ishlangan bo'lib, unda, xususan, o'zbek tilidagi matnlarning kognitiv-semantik, psixolingvistik, lingvokulturologik xususiyatlari ochib berilgan. Jumladan, o'zbek tilida konseptning matn orqali ifodalanishi, kognitiv metaforalar, matn yaratilishida geshtaltning o'rni, shaxsning diskursiv faoliyati, shaxs va matn referensiyasi, matn va kommunikativ strategiya, matn persepsiyasi, matn persepsiyasida retsiyentning roli, til va assosiativ tafakkur aloqasi, president birliklar tushunchasi va ularning matn yaratilishidagi o'rni, o'zbek tilining president birliklari, o'zbek tilidagi o'xshatish, metafora, jonlantirish asosidagi matnlarning lingvokulturologik xususiyatlari kabi qator masalalar tahlil etilgan.

Shunday qilib, o'zbek tilshunosligida matn muammolarini tadqiq etishda salmoqli yutuqlarga erishildi. Endigi vazifa ana shu yutuqlarni yanada mustahkamlash, matn tilshunosligi muammolariga doir monografik tadqiqotlarni kuchaytirish, matnning turlari va ularning pragmatik imkoniyatlari kabi masalalarni keng miqyosda tadqiq etishdan iboratdir.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

- 1.M.V.Lyaponning matn haqida mulohazalari haqida gapiring.
- 2.O'zbek tilshunosligida matn pragmatikasi bo'yicha amalga oshirilgan dastlabki tadqiqot ishi kimga tegishli?
- 3.M.Yo'ldoshev matni qaysi jihatdan tadqiq qilgan?
4. S.Boymirzayevaning tadqiqotlari matnning qaysi jihatlarini qamrab oladi?
5. D.Xudoyberganovanning tadqiqoti haqida gapiring.

Adabiyotlar

1. Boymirzaeva S. Matn mazmunida temperollik semantikasi. Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2009

2. Yoʻldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T. 2007
3. Yoʻldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. T.: “Fan”, 2008
4. Yoʻldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. T., Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010
5. Turniyazov N., Yoʻldoshev B. Matn tilshunosligi. – Samarqand. 2006
6. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. – T.: 1989.
7. Shomaqsudov A., Rasulov I. va boshq. Oʻzbek tili stilistikasi. – T.: “Oʻqituvchi”, 983.
8. Abdupattoev M.T. Oʻzbek matnida supersintaktik butunliklar. Filol. fan.nom. ...diss.avtoref. – T., 1998.
9. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. -М.: “Наука”, 1981.
10. Москальская О.И. Грамматика текста. Москва. “Высшая школа”, 1981
11. Каменская О.Л. Текст и коммуникация. Москва. “Высшая школа”, 1990
12. Дрисслер В. Синтаксис текста. Новое в зарубежной лингвистике. М.: “Прогресс”, 1978.
13. Калшанский Г.В. От предложения к тексту//Сущность, развитие и функции языка. – М.: “Наука”, 1987.
14. Одинцов В.В. Стилистика текста. – М.: 1980

I. MATN VA UNING TA'RIFI MASALASI

Tayanch tushunchalar: *matn, ijtimoiy-semiologik vazifa, inson kommunikativ faoliyati, matnning kategorial belgilari, semiotika, kommunikatsiya, struktura, pragmatika, tugallik, bogʻliqlik, yaxlitlik, qismlarga ajralish, nutqiy akt*

Matn lingvistikasining u yoki bu sohasi bilan shugʻullanish, matnning biror bir xususiyatini tadqiq etishga kirishish uchun dastlab matn hodisasining mohiyatini, uning lingvistik tabiatini bilish lozim. Faqat shundan soʻnggina matnning tuzilishi, uning strukturaviy, mazmuniy belgilari, inson kommunikativ faoliyatida tutgan oʻrni, bajaradigan ijtimoiy-semiologik vazifalarini oʻrganish mumkin. Har

qanday nutqiy tuzilmaning matn sifatida e'tirof etilishi uchun u ma'lum me'yordagi barqaror, tub xususiyatlarga ega bo'lishi zarurki, bu xususiyatlar matn mohiyatini belgilab beradi. Matnning mohiyati bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va ularni o'tkinchi, favqulodda vaziyatlarda yuzaga keladiganlaridan farqlash qiyin. Matn va uning maqomini belgilash, uning yondosh hodisalarga munosabatini ochib berish, matnning kategorial belgilari borasida qo'yiladigan savollarga javob topish yo'lidagi izlanishlar davom etmoqda.

Fikrlarning har xilligi, so'zsiz, tadqiqotchi tomonidan «matn» tushunchasining qaysi lingvistik hodisaga nisbatan qo'llanishi va ushbu hodisaning qanday nazariy g'oya asosida talqin qilinishiga bog'liq. Biror bir hodisa talqiniga turli nuqtai nazardan, turli xil tahlil usullarida yondashish xulosalarning, tavsif va ta'riflarning har xil bo'lishiga sabab bo'ladi.

«Matn» so'zini qo'llayotgan tilshunoslarning qariyb barchasi ushbu tushunchaga u yoki bu tarzda ta'rif berishga harakat qiladi. Matn - ko'p jihatli, murakkab tuzilishga ega bo'lgan qurilma, shuning uchun ham uni tavsiflashda unga xos bo'lgan semiotik, kommunikativ, strukturaviy, pragmatik, kognitiv, nominativ xususiyatlarni e'tiborga olish talab qilinadi. Ammo har bir tadqiqotchi, odatda, o'zini qiziqtirayotgan jihatlariga e'tibor qaratadi, natijada, berilayotgan ta'rif mukammal, batafsil bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, hech qaysi ta'rif matn kabi murakkab hodisani har tomonlama mukammal tavsiflay olmaydi. Shuning uchun har bir tadqiqotchi yoki tadqiqotchilar guruhining matn hodisasiga nisbatan o'ziga xos nuqtai nazari shakllanadi va rejalashtirilayotgan tadqiqot shu nuqtai nazarga bo'ysundiriladi. Matn hodisasiga berilayotgan ta'riflarning hech biriga qat'iy e'tiroz bildirish qiyin, chunki ularning har birida matn hodisasining u yoki bu jihatlari yoritilgan, demak, har bir kuzatishda tadqiq qilinayotgan ob'ektning ma'lum bir qirralari o'z ifodasini topadi.

Binobarin, dastlabki paytlarda tadqiqotchilarni ko'proq matnning tuzilishi, uning boshqa til va nutq birliklaridan farq qiluvchi jihatlarini aniqlash muammosi qiziqtirganligi sababli berilayotgan ta'riflarda ham xuddi shu strukturaviy jihatlar e'tiborga olingan. Bunday yondashuvlarda matn «nomlovchi birliklarning uzluksiz zanjiri ko'rinishiga ega bo'lgan gaplar ketma-ketligi» sifatida

talqin qilingan va asosiy e'tibor uning chegarasini aniqlashga qaratilgan.

Haqiqatdan ham, matn chegarasini belgilash masalasi uning ta'rifini berishda juda muhim talabdir. Matn chegarasini uning turlarini sanash vositasida ko'rsatish mumkin (masalan, roman, risola, hikoya, maqola, xat, dialog va hokazo), lekin har qanday chegaralash amallarini bajarishda matndagi yaxlitlik uning tarkibidagi qismlarning o'zaro bog'liqligi semantik va strukturaviy jihatdan bir xilda ta'minlanishini taqozo etadi. Demak, struktur-semantik bog'liqlik matn chegarasini belgilovchi me'yor sifatida qabul qilinishi mumkin. S.I.Gindin tomonidan matn aniqlash uchun uni qismlarga ajratish amalini qo'llash lozimligi taklif qilingan edi. Uning fikricha, «matn o'zaro struktur va semantik bog'langan ketma-ket qismlarga ajratish imkoniga ega bo'lmagandagina» uning yaxlitligi haqida gapirish mumkin.

Aytish joizki, qismlar o'rtasida ma'naviy va strukturaviy bog'liqlikni ta'minlovchi vositalar to'plamini aniqlash matn sintaksisi tadqiqining asosiy vazifalaridan biri sanaladi. Bu vositalar leksik, morfologik va sintaktik ko'rinishga ega bo'lishi mumkin.

Ma'lumki, tadqiqotchilar oldiga qo'yiladigan muhim talablardan biri har qanday lisoniy hodisa tavsifida shakl va ma'no uyg'unligiga, ularning munosabati asosida yuzaga keladigan mundarijaviy xususiyatlarga ahamiyat berishdir. Matn strukturasi tahlilida ham shunday metodologik talab asosida yondashish maqsadga muvofiq. Matn murakkab tuzilma bo'lganligi uchun uning shakli ham lisoniy birliklarning aniq bir nutqiy tafakkur faoliyati sharoitida tartiblashuvi (aniqrog'i, tartibli bog'lanishi) sifatida tasavvur qilinishi kerak. «Struktura» tushunchasi falsafiy talqinda ob'yektning yaxlitligi va o'zligini ta'minlovchi barqaror belgilari va munosabatlari ta'rifini oladigan bo'lsa [Filosofskiy ensiklopedicheskiy slovar, 1983:657], unda matn strukturasi lisoniy shaklning kommunikativ mazmundagi aksi yoki voqelik parchasi bayonida qoldiriladigan «izi», deb hisoblash mumkin. Matn o'ziga xos ichki va tashqi strukturaga ega hodisa. Uning ichki strukturasi ko'p tarkibli va ko'p bosqichli tuzilishga ega bo'lib, u fonetik, leksik, morfologik, sintaktik sathlarning o'zaro munosabatlari asosida shakllanadi [Turniyozov, Yo'ldoshev, 2006:36-42]. Ammo matn strukturasi prosodik, emotsional-semantik qatlamlar ham mavjudki, ularni hech qanday

sathga joylashtirib bo'lmaydi. V.Hartung matnga xos bo'lgan prosodik, emotsional va mazmuniy xususiyatlarni qandaydir bir «qo'shimcha sathlar» sifatida qarab, ularga til tizimining ma'lum sathlaridan joy izlash befoyda ekanligini eslatgan edi .

Matnning tarkibiy qismlari hamda uning strukturaviy tuzilishi haqida mulohaza yuritilayotganda, uning grammatik tahlili (matn grammatikasi) bilan chegaralanib qolmaslik lozim. Quyi sathlarga xos tahlil amallarining matn tahliliga har doim ham mos kelavermasligi ma'lum. Matn strukturasida nutqiy aktlar (harakatlar)ning kommunikativ munosabatlari o'z aksini topishi lozim.

G.V.Kolshanskiy lisoniy faoliyat asosida muloqot maqsadi turishini va til tizimi birliklarining asosiy vazifasi kommunikativ faoliyatni ta'minlash ekanligini ta'kidlaydi. Uning ta'biricha, kommunikatsiya hamma vaqt fikr va axborot almashinish maqsadini ko'zlaydi yoki, boshqacha aytganda, u insonning mehnat va ijtimoiy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan amaliy va nazariy ehtiyojlarini qondiruvchi muloqotdir. Lisoniy muloqotning ma'lum bo'lagi bo'lgan kommunikativ harakat ham matn birligi bo'lishi uchun ushbu talablarga to'la javob berishi lozim. Lekin axborot uzatish maqsadi o'zaro fikr almashinuvni taqozo etadi. Boshqacha aytganda, kommunikatsiya intersub'ektiv (shaxslararo) faoliyatdir. Shuning uchun ham matn tarkibida ikkita nutqiy harakat o'zaro birikishi lozim, faqat shundagina eng kichik (minimal) nutqiy muloqot faoliyati hosil bo'lib, axborot uzatish maqsadi voqelanadi.

Matn muloqot birligi maqomini olishi uchun nafaqat mazmun, balki strukturaviy jihatdan ham tugal ko'rinishda bo'lishi kerak. Axborot uzatish harakatining samarali bo'lishi uchun ushbu axborot mohiyatini tashkil etuvchi, uning negizida turgan fikr mazmunan voqelikni aks ettirishi lozimligi ma'lum. Shu voqelikning o'zi muloqot birliklarining mazmuniy va strukturaviy chegarasini belgilab beradi. Matnning mazmunan mustaqilligi (boshqalardan ajralib turishi) axborot ob'yektining denotativ mavzusi doirasida chegaralanadi, uning strukturaviy tugalligiga hamda «grammatik kategoriyalar sathidan ko'ra ko'proq ma'lum mavzu rivojining mazmunan tugallanishi darajasiga nisbatan aniqlanadi» [Kalshanskiy, 2006:30]. Demak, matnning chegarasi mazmun va shakl munosabatlari dialektikasi asosida belgilanadi. Bu munosabatlar matnning botiniy va zohiriy jihatlarida bir xilda aks topadi. Shu

sababli matnning grammatik tahlili haqida gapirilganda, uning ichki va tashqi mazmuniy tuzilishi qonuniyatlarini farqlash hamda matn tarkibiy qismlari botiniy munosabatlarining uning strukturasi zohirlanishi, qismlarning pog‘onali tartiblashuvdagi ta‘sirini aniqlash maqsadi ko‘zlanadi. Matn grammatikasining bunday talqini «tugallik», «bog‘liqlik», «yaxlitlik» va «qismlarga ajralish» (diskretlik) tushunchalarini matn hodisasining asosiy belgilari darajasiga ko‘taradi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Matnni tavsiflashda qanday xususiyatlarni e‘tiborga olish zarur?
2. Matnning murakkab hodisa ekanligini asoslang.
3. Matn hodisasining asosiy belgilari nima?
4. Matnning shakl va mazmun dialektikasiga munosabatini sharhlang.

Adabiyotlar

1. Boymirzaeva S. Matn mazmunida temperollik semantikasi. Toshkent, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2009
2. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T.: 2007
3. Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. T., Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010
4. Turniyazov N., Yo‘ldoshev B. Matn tilshunosligi. – Samarqand, 2006
5. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. – T., 1989.
6. Философский энциклопедический словарь, 1983
7. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. -М: “Наука”, 1981.
8. Москальская О.И. Грамматика текста. Москва. “Высшая школа”, 1981.
9. Каменская О.Л. Текст и коммуникация. Москва. “Высшая школа”, 1990.
10. Калшанский Г.В. От предложения к тексту//Сущность, развитие и функции языка. – М.: “Наука”, 1987.

MATN VA UNING TIL SISTEMASIDAGI O'RNINI

Tayanch tushunchalar: *sistema, mikrosistema, makrosistema, zamon va makon izchilligi, kogeziya, umumiylik va xususiylik, sistemaning butunligi, sistemaning yaxlitligi, til va nutq dioxotomiyasi*

Ma'lumki, ilmdagi barcha fanlar tizimlardan, ya'ni katta va kichik bo'lgan sistemalardan tashkil topgan. Jumladan, tilshunoslik ham fanlar sistemasining bir bo'g'inidir. Shunday ekan, tilshunoslik fanga nisbatan mikrosistema hisoblansa, matnga nisbatan esa makrosistemadir. Xullas, nima bo'lgan taqdirda ham, barchasi umumiy bir yirik sistemaning tarkibiy qismlari, boshqacha aytganda, bir zanjirning turli xalqalaridir.

Bu xalqalar bir xillikni, jumladan, sistemaga xos bo'lgan umumiylikni taqazo qiladi. Mazkur umumiyliklardan biri-har bir sistema ma'lum bir maqsadni ko'zda tutadi. Demoqchimizki, fanlar sistema bo'lsa, ular ham har biri, o'z navbatida, muayyan maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Biz tilga olgan tilshunoslik bo'limlari ham, shu jumladan, matn ham ma'lum bir maqsadni ko'zlab amalga oshiriladi. Shuningdek, sistemaning yana bir xususiyati – zamon va makon izchilligida ham namoyon bo'ladi. Fanlar ham, soha-yu bo'limlar ham tekshirilishi lozim bo'lgan masalalarning ma'lum bir davlatda va joyda, ya'ni, muayyan makon va zamonda ro'y berganliklarini nazardan qochirmaydi. Misol uchun, "O'zbek tilining sistem leksikologiyasi" fani bo'lsa uning sistemadagi o'rnini yuqoridagi qarashga binoan, bugungi va O'zbekistondagi o'zbek tilini nazarda tutadi. Buni matnda ham ko'rish mumkin. Hatto mashhur rus tilshunosi I.R. Galperin o'z asarlarida matnning muhim xususiyatlaridan biri sifatlarida makon va zamon izchiligini, aniqroq aytganda, kogeziya hodisasini ochib berish uchun alohida bir bob ajratgan.

Ma'lumki, ob'yekt masalasi ham sistemaning umumiy jihatlaridan biridir. Chunki ilmda, umuman, fanlarni tekshirishda, ob'yekt ham muhim ro'l o'ynaydi. Mazkur umumiy jihat matnda ham voqelanadi. Ya'ni har bir matn axborot uzatar ekan, muayyan bir ob'yektga tegishli ekanligini tinglovchi bilan bir qatorda tekshiruvchi ham sezib turadi.

Bilish nazariyasidan ma'lumki, umumiylik va xususiylik masalasi sistemaning butunligi va yaxlitligini ko'rsatib berishda namoyon bo'lib, mazkur jihatlar ham matnning sistemaga mansubligini ta'minlashga xizmat qiladi. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, matn ham ma'lum ma'noda makro va mikrosistemani hosil qiladi. Ya'ni o'zidan katta sistemaga, jumladan, tilga nisbatan mikrosistema, tarkibiy qismlari – so'z, gap, abzas, bob va bo'lim kabilarga nisbatan makrosistema bo'ladi. Shu o'rinda, matnning sistemaviylik xususiyatlari qatorida yana bir masala xususida fikr bildirish joiz. Sababi, matnning sistemaviylik harakatida uning nutqiy va lisoniy xususiyatlari ham aks etadi. Natijada, biz matnga batafsil va to'liq ta'rif berishimizda tilshunoslikdagi til va nutq dixotomiyasiga murojaat qilishimizga to'g'ri keladi. Til va nutq dixotomiyasi matnning qanday birlik ekanligini ko'rsatib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz bilamizki, ko'pchilik tilshunos olimlar matnni nutq hodisasi sifatida e'tirof etadilar. Kimdir matnga nutq parchasi, deya ta'rif bersa, yana kimdir nutq faoliyatining mahsuli yoxud o'zi deb tushunadi. Bularning barchasida matnning nutq bilan bog'liq bo'lgan jihatlari ko'zga tashlanadi. Ya'ni so'zlovchi bilan tinglovchi o'rtasidagi o'zaro muloqot jarayonidagi kommunikativ xususiyatlari tushuniladi. Lekin matnning bugungi yondashuvlar natijasida eng yirik til birligi, deb e'tirof etilishi lingvistik jihatini ochib berishga undaydi. Bunda yuqoridagi ta'riflar o'zini oqlamaydi. Ko'rinadiki, matn faqat nutqiy birlik bo'lmay, lisoniy birlik hamdir. Aniqroq aytadigan bo'lsak, matn ham boshqa sath birliklari kabi umumiylik-xususiylik dialektikasi asosida uqilishi va sharhlanishi kerak.

Matnning til va nutq dixotomiyasidagi o'rni masalasi nisbatan keyinroq o'rtaga qo'yildi. Matnning nutqiy xususiyati haqida ko'p gapirilgan, biroq lisoniy mohiyati hanuzgacha to'la ochib berilmagan. Demak, matnga ta'rif berishda ehtiyotkorlik bilan yondashish talab qilinadi. Chunki berayotgan ta'rifimizda matnning lisoniy mohiyati va nutqiy xususiyatlari birday qamrab olinishi kerak.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Sistemaning xususiyatlari haqida gapiring.
2. Til-nutq dixotomiyasi haqida gapiring.
3. Umumiylik va xususiylik dialektikasi nima?

4. Matnning nutqiy va lisoniy birlik ekanligini tushuntiring.

Adabiyotlar

1. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. М.: “Наука”, 1981.
2. Москальская О.И. Грамматика текста. – Москва. “Высшая школа”, 1981.
3. Каменская О.Л. Текст и коммуникация. – Москва. “Высшая школа”, 1990.
4. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. – T., 1989.
5. Qilichev E. Matnning lingvistik tahlili. – Buxoro, 2004.
6. Turniyazov N., Yo‘ldoshev B. Matn tilshunosligi. – Samarqand. 2006.
7. Boymirzaeva S. Matn mazmunida temperollik semantikasi. Toshkent, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2009.
8. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T.: 2007.
9. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. T.: “Fan”, 2008.
10. Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. T., Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.

MATN VA KOMMUNIKATSIYA

Tayanch tushunchalar: *kommunikatsiya, kommunikativ akt, muallif, retsipiyent, kommunikatsiya vositalari, keng qamrovli kommunikatsiya, inson-mashina kommunikativ sistemasi, kommunikant. Muallifning nutqiy faoliyati, jamoaviy retsipiyentlar, muallifning nutqiy fikrlash faoliyati (mNFF), retsipiyentning nutqiy fikrlash faoliyati (rNFF), fikrlash faoliyati, fikriy lisoniy(til) faoliyati, tashqi nutq, persepsiya*

Bugungi kunda informatsiyaning turli ko‘rinishlari ko‘payib bormoqda. Shu bilan birga ularni yetkazishning ham bir qancha yo‘llari va texnik vositalari mavjud. Ma‘lumot yetkazishning eng keng tarqalgan yo‘li verbal shakl hisoblanadi, o‘z o‘rnida uning og‘zaki hamda yozma shakllari farqlanadi. Texnik vositalar ma‘lumotning

verbal shakllari tarqalish zonasi kengayishiga va uzayishiga xizmat qiladi. Ma'lumotni yetkazish jarayonlari *kommunikatsiya* nomini olgan. *Kommunikatsiya* (lot. *communicatio*, *communicodan* – "umum bilan qilaman, bog'layman, muloqot qilaman") – muloqot, fikr almashish. Kommunikatsiya kommunikativ *aktlardan* hosil bo'ladi. Uning tashkil etuvchilari kommunikantlar, kommunikatsiyani vujudga keltiruvchi *muallif*, ma'lumotni qabul qiluvchi esa *retsipiye*ndir. Mazkur vazifani amalga oshirishda xizmat qiluvchi vositalar *kommunikatsiya vositalari (sistemasi)*, deb nomlanadi. Kommunikatsiya vujudga kelishi, o'ziga xosligi va rivojlanib borish shartlariga ko'ra ijtimoiy xususiyatga ega. Kommunikatsiyaning maqsadi ijtimoiydir va jamiyatning munosabatlariga asoslanadi. Kommunikativ xulq-atvor ijtimoiy xulq-atvordir. Bu orqali inson kommunikatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari aniqlashtiriladi.

Zamonaviy kommunikatsiya sistemasini ikki guruhga bo'lish mumkin: birinchi guruh sistemalari – *keng qamrovli kommunikatsiya* – bu guruhga keng qamrovli axborot vositalari: televideniye, radio, bosmaxonalar va boshqa jamiyatga axborot yetkazib beruvchi boshqa vositalar kiradi. Shu bilan birga bu guruhga jamiyatdan axborot to'plovchilar ham mansubdirlar. Bu turdagi sistemalarga misol qilib temir yo'l tizimidagi chiptalarga oldindan buyurtma olish xizmatini, jamiyat a'zolari bilan so'rovlar o'tkazuvchi tashkilotlar faoliyatini, saylovlar va referendumlarni keltirish mumkin. Bu sistemalarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ularda ikki shaxs o'zaro ma'lumot almashmaydi.

Ikkinchi guruh sistemalari – shaxslararo kommunikatsiya – alohida individlarga ma'lum bir muhitda o'zaro ma'lumot almashish uchun sharoit yaratadi.

Bunday sistemalarga telefon, telegraf, internet orqali yozishmalar hamda aloqa tizimining boshqa turlari, shu bilan birga suhbatlar, og'zaki imtihonlar va shu turdagi boshqa muloqot shakllarini kiritish mumkin.

So'nggi yigirma yil ichida kompyuter texnologiyalarining jadal suratlarida rivojlanishi va jamiyatning keng qatlami tomonidan foydalanilishi yangi kommunikativ yo'nalish – *inson-mashina kommunikativ sistemasining* vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Ma'lumotni verbal shaklda yetkazish *matnlar* orqali amalga oshadi. Matn ma'lumot yetkazishning universal vositasi sanaladi,

chunki u keng qamrovli kommunikatsiyada ham (gazeta matni yoki radio orqali eshittiriluvchi matn va boshq.) shaxslararo kommunikatsiyada ham (*inson-mashina kommunikativ sistemasi* orasida o'zaro almashinuvchi matn)qo'llanishi mumkin.

Inson faoliyatining ijtimoiy xususiyatiga ko'ra ba'zi kommunikativ jarayonlarda jamoa ma'lumot uzatuvchi sifatida namoyon bo'ladi. Jamoaviy asarlar hech qanday o'ziga xos xususiyat kasb etmaydi va buning natijasida retsipiyent bu ma'lumotni bir muallifning individual qarashlari sifatida qabul qiladi.

Aksariyat hollarda individuallik va jamoaviylik tushunchalari retsipiyentga nisbatan qo'llaniladi. Noindividual retsipiyent bilan amalga oshuvchi kommunikatsiya jarayoni bir qancha o'ziga xosliklarga ega. Bu esa o'z o'rnida shu maqsadga yo'naltirilgan matnlarga ma'lum bir talablar qo'yilishini taqozo etadi. Quyida shunday kommunikativ jarayonlarning va bu jarayon matnlarining ba'zi xususiyatlariga to'xtalib o'tamiz.

Individual retsipiyentlarning ikki turini ajratish mumkin: guruhlashgan va jamoaviy retsipiyentlar. Agar kommunikatsiya jarayonida zarurat tug'ilishi bilan muallif matn yo'naltirilgan retsipiyentlar guruhining istalgan a'zosi bilan yakkama-yakka muloqotga kirisha olsa (masalan, savol-javob qilish), bunday *inson-mashina kommunikativ sistemalar* turi *guruhlashgandir*. Bu turdagi retsipiyentlarning eng sodda va keng tarqalgan turi sifatida o'qituvchi matn muallifi bo'lib qatnashuvchi o'quv guruhini keltirishimiz mumkin.

Jamoaviy retsipiyentlar guruhi hajm jihatidan guruhlashgan retsipiyentlardan anchayin katta bo'ladi. Bu turdagi retsipiyentlar matni individual tarzda qabul qilishsa-da, matn muallifi va ulardan biri o'rtasida o'zaro muloqot yuzaga kelishiga sharoit bo'lmaydi. Jamoaviy retsipiyentlar guruhiga misol qilib katta majlislardagi tinglovchilarni yoki yirik o'quv auditoriyalari (katta kutubxonalaridagi o'quv zallarida shug'ullanuvchi shaxslar)ni keltirish mumkin.

Verbal kommunikatsiya sistemalarining barchasi o'ziga xos va turlicha bo'lsa-da, ular uchun umumiy bo'lgan elementar kommunikativ zanjirni ajratish mumkin. Bu zanjirning zaruriy komponentlari sifatida *muallif-matn-retsipiyent* ishtirok etishadi. Mazkur komponentlarning birontasi ishtirok etmasa kommunikativ akt vujudga kelmaydi. Elementar kommunikativ zanjir

kommunikatsiyadagi matnlarning vazifaviy jihatlarini o'rganishdagi minimal tizimdir. Shu tariqa **muallif–matn–retsipiient** zanjiri kommunikatsiya kvanti sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur kvantni tashkil etuvchilarga bo'lish sifatning pasayishi va bu orqali kuzatuv ob'yektining yo'qolishiga sabab bo'ladi.

O'z o'rnida bir necha tushunchalarni izohlashimiz joiz. Elementar kommunikativ zanjir doirasida nutqiy fikrlash faoliyati(NFF)ning ikki turi farqlanadi :

- muallifning nutqiy fikrlash faoliyati (mNFF)
- retsipiientning nutqiy fikrlash faoliyati (rNFF).

Muallif nutqiy fikrlash faoliyatining yasalishi "fikir-matn" bo'lsa, retsipiient nutqiy fikrlash faoliyatining shakllanishi "matn-fikir"dir. Bu ikki fikrlash jarayonlari o'z ichiga bir-biriga yaqin mental va harakatdagi aktlarni qamrab olsa ham ular orasida ma'lum bir farqlanishlar bor. Mazkur farqlanishlar ularning ma'lumotni qayta ishlash xususiyatida namoyon bo'ladi.

mNFF mahsuloti yozma yoki og'zaki matndir va uning yakunlovchi bosqichi sub'yekt tomonidan qabul qilinishi kerak. Ba'zi hollarda NFF ichki nutq bilan cheklanishi mumkin. Buning mahsuli sifatida ichki matn yuzaga keladi. Lekin bunday matn kommunikativ jarayon komponenti bo'lolmaydi va bu o'rinda muallifni NFF sub'yekti deb baholash maqsadga muvofiq emas.

Ikki NFF turlarini torroq doirada tahlil qilish maqsadida undanda quyinroq bosqichni–nutqiy faoliyatni (NF) o'rganish lozim. Nutqiy faoliyat ham muallifga(mNF) ham retsipiientga (rNF) tegishlidir. Nutqiy faoliyatning asosiy farqlovchi belgisi sifatida verbal operatsiyalar qatnashuvining majburiyiligi ko'rsatiladi. Bu matn yaratishda yoki uni qabul qilishda ishtirok etuvchi til vositalari hamda ularga bog'liq mental va harakatdagi (shu jumladan artikulyatsion) aktlarning namoyon bo'lishida ko'rinadi.

Muallifning nutqiy faoliyatini fikrni til vositalari bilan ob'yektlashtirish, umumiyroq qilib aytganda, fikrni verballashtirish, deb baholash mumkin. Ratsipiientning nutqiy faoliyati matn belgilarini tashqi retseptorlar orqali qabul qilishida ko'rinadi. Keyingi jarayon mazkur ma'lumotlarni qayta ishlash bo'lib, u retsipiientning nutqiy fikrlash faoliyatiga kirib boradi va undan so'ng to'liq fikrlash jarayoniga o'tiladi. Alohida ta'kidlash kerakki, agar muallifning nutqiy faoliyati mNFF ning yakunlovchi bosqichida bo'lsa, bu

retsipiyent nutqiy faoliyati rNFF ning boshlang'ich bosqichida turganini anglatadi. NF ning ko'rinishlari (gapirish, xat)da mNFFning yakunlovchi bosqichi sifatida nutq, aniqrog'i, tashqi nutq namoyon bo'ladi.Ularning natijasida til tashuvchisi tomonidan yangi mNFF mahsuli –matn vujudga keladi. NF ning retseptiv ko'rinishlari NFning boshlang'ich bosqichida yozma yoki og'zaki matnni belgili qabul qilishda ko'rinadi. Mazkur jarayon audiovizual retseptorlarning belgilardan kelib chiquvchi persepsiyasi bilan izohlanadi.

mNF ning birinchi bosqichi fikriy – nutq faoliyatini tashkil etadi. Buni mental operatsiyalarning til vositalari bilan qorishuvida ko'rish mumkin.U yoki bu til vositalarini operatsiyalash jarayoni fikrlash faoliyati bosqichida turishi mumkin. Biroq bu bosqich uchun uning zarurati kamroq va u til tashuvchisining individualligi hamda firklashidan kelib chiqqan holda istalgan bosqichda turishi mumkin. Fikriy–nutq faoliyati bosqichida til vositalari operatsiyasi amalga oshirilishi shart. Bunday ko'rinishdagi jarayonning asosiy momentlari matnning shakllanish bosqichida til vositalarining tanlanishi va aniq grammatik, leksik tizimlar sifatida transformatsiyalanishida ko'rinadi. Bu o'z o'rnida keyingi (nutq)fonatsiya yoki yozishmalar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Retsipiyentning nutqiy faoliyati jarayonida uning fikriy–nutq faoliyatida matn belgilarining audiovizual shakllarini leksik-semantik kodga aylantirish jarayoni kechadi. Mazkur jarayonda matnning eng muhim, eng asosiy mazmuni saqlanib qoladi.

Matnga kommunikativ yondashuvda til faoliyati bilan bir qatorda fikrlash faoliyatining nutqiy fikrlash faoliyati jarayonida vujudga keluvchi kategoriyalarini ham o'rganish lozim. Bu kategoriyalar matnning kommunikantlararo almashinuvida yaqqol namoyon bo'ladi. Bu hodisani matnning yaratilishi va qabul qilinishi doirasida o'rganish mumkin.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Kommunikativ akt nima?
2. Kommunikatsiya vositalariga nimalar kiradi?
3. Muallifning nutqiy faoliyati nima?
4. Jamoaviy retsipiyentlar degan tushunchani sharhlang.
5. Muallifning nutqiy fikrlash faoliyati (mNFF) nima?
6. Retsipiyentning nutqiy fikrlash faoliyati (rNFF) degan tushunchani sharhlang.

7. Fikriy lisoniy(til) faoliyat deganda nimani tushunasiz?
8. Persepsiya degan tushunchani sharhlang.

Adabiyotlar

1. Boymirzaeva S. Matn mazmunida temperollik semantikasi. Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2009
2. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. –М.: "Наука", 1981.
3. Москальская О.И. Грамматика текста. Москва. "Высшая школа", 1981
4. Каменская О.Л. Текст и коммуникация. Москва. "Высшая школа", 1990

MATNING TARKIBIY QISMLARI

Tayanch tushunchalar: *so'z, so'z birikmasi, gap, jumla, sintaktik birlik, sintaktik butunlik, abzas, minimal birlik.*

Ma'lumki, har qanday butunlik kabi matn ham uni tarkib toptiruvchi unsurlardan, muayyan birliklardan iborat bo'ladi. Tilshunoslikda qanday birliklar matnni shakllantirishi yoki matnni bo'laklarga ajratganda qanday birliklar aynan matn birligi, deb hisoblanishi borasida ancha-muncha munozaralar mavjud.

Matnga ta'rif berganda, ikki asosiy belgiga, ya'ni *bog'lanishlilik* va *yaxlitlikka* alohida e'tibor beriladi. Bog'lanishlilik va yaxlitlik gaplar o'rtasida hamda gaplarning mazmuniy-grammatik birligi asosida yuzaga keladi. G'arb tilshunoslari tomonidan matnga berilgan ta'riflarda gaplarning ketma-ket bog'lanishi, gaplar zanjiri matnda asosiy jihat ekanligi, busiz matn yuzaga kela olmasligi muntazam ta'kidlanadi.

Masalan, golland tilshunosi S.Dik "Gaplarning matniy zanjirida koordinatsiyaning oliy shakli"ni ko'radi. Boshqacha qilib aytganda, mustaqil gaplarning oliy darajadagi koordinatsiyasi mahsuli o'laroq matn shakllanadi. Oliy darajadagi koordinatsiya, aniqki, ayni matn deyiladigan butunlik, yaxlitlikni paydo qiladigan gaplar o'rtasidagi barcha jihatlardan, ya'ni semantik, sintaktik, kommunikativ, estetik va yana boshqa barcha jihatlardan uyg'unlikdir, muvofiqlashuvdir.

Gaplarning ana shunday *uyg'unligi, muvofiqlashuvining* natijasi sifatida matn mavjud bo'ladi. Ana shu bir-ikki mulohazadan kelib chiqib, matnning asosiy birligi **gapdir** degan xulosaga kelish mumkin. Ammo gapni matn birligi sifatida baholash tilshunoslikda u qadar keng tarqalgan emas.

Aksariyat tilshunoslar gapni matn birligi emas, deb hisoblaydilar. Masalan, I.K.Galperin gap emas, balki bir qator gaplarni birlashtiradigan, nisbatan yirik butunlik – frazadan katta butunlik matn birligi bo'la olishini aytadi. U gap ana shunday butunlikda konstituent sifatida ishtirok etishini, frazadan katta butunlikning tarkibiy qismi bo'lgan gap bir paytning o'zida yaxlit matnning ham tarkibiy qismi bo'la olmasligini ta'kidlaydi.

Ayni shu frazadan katta butunlikni matnning asosiy birligi sifatida baholash deyarli barcha tilshunosliklarda keng tarqalganligini ta'kidlash mumkin. Bu termin orqali ifodalangan tushuncha turli tilshunoslar tomonidan turlicha nomlanadi, ya'ni mazkur terminning bir qancha sinonimlari mavjud. Masalan, "*frazadan katta butunlik*" – "*сверхфразовое единство*" (O.S.Axmanova), "*murakkab sintaktik butunlik*" – "*сложное синтаксическое целое*" (A.M.Peshkovskiy, N.S.Pospelov), "*matn komponenti*" – "*компонент текста*" (I.A.Figurovskiy), "*prozaik strofa*" – "*прозаическая строфа*" (G.Ya.Solganik), "*sintaktik kompleks*" – "*синтаксический комплекс*" (A.I.Ovsyannikova), "*monologik jumla*" – "*монологическое высказывание*", "*kommunikativ blok*" – "*коммуникативный блок*" va boshq.

O'zbek tilshunosligida ham mazkur tushunchani ifodalash uchun bir qator farqli terminlar qo'llanmoqda. Masalan, A.Mamajonov dastlab "*yirik sintaktik birlik*" terminini qo'llagan bo'lsa, keyinroq muntazam ravishda "*superfrazali sintaktik birlik*" terminidan foydalanadi. Matnning stilistik muammolariga alohida e'tibor bilan qaragan I.Rasulov va H.Rustamovlar esa "*murakkab sintaktik butunlik*" terminini ma'qul ko'radilar. O'zbek matnidagi ana shunday birliklarni monografik tarzda tadqiq etgan M.Abdupattoyev "*supersintaktik butunliklar*" terminini qo'llashni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

M.Abdupattoyev nomzodlik dissertatsiyasida o'zbek tilidagi matnda supersintaktik butunliklarning mohiyati, sintagmatik va semantik-uslubiy xususiyatlarini ilmiy asosli ravishda ko'rsatib

bergan. Shuni ham aytish kerakki, tadqiqotchi supersintaktik butunliklarning matn tarkibidagi chegaralarini belgilash, ularni ajratish tamoyillarini (semantik, grammatik va kompozitsion-stilistik) ishlab chiqqan. Shu asosda matndagi bir kichik mavzuning tugallanib, yangi bir mavzuga o'tilishi supersintaktik butunlikni tashkil etuvchi nisbiy mustaqil gaplar orasida mustahkam semantik-grammatik aloqa mavjudligini, ayni shu aloqa supersintaktik butunlikning semantik-struktural yaxlitligini ta'minlashini juda to'g'ri ta'kidlagan.

Supersintaktik butunlikning shakllanishida gaplar ishtirok etadi, buni hech kim inkor etmaydi. Lekin ikki yoki undan ortiq gapning o'zaro birikib, muayyan bir butunlikni shakllantirishi shunchaki bir oddiy jarayon emas, balki benihoya murakkab va serqatlam hodisadir. Ana shunday gaplar yig'indisini yaxlitlashtiradigan bir qator omillar mavjud. Ayni shu masala borasida fikr yuritgan tadqiqotchilarning aksariyati (I.R.Galperin, O.I.Moskalskaya, Z.Ya.Turayeva, I.M.Loseva, A.Mamajonov, M.To'xsanov, M.Abdupattoyev va boshqalar) yagona kichik mavzuning umumiyliigi va o'zaro uyg'unligi, semantik-grammatik hamda kommunikativ yaxlitlik kabi jihatlarni ana shunday omillar sifatida qayd etadilar. Masalan, quyidagi parchada mazkur omillarning barchasi mavjud, shuning uchun ham uni alohida supersintaksik butunlik deyish mumkin: *Kishi ortiqcha qo'rqqanda gangib a'zosi harakatsiz va og'riq holga tushadurkim, albatta, buni biz qattiq qo'rqqandan deb bilamiz. Darhaqiqat, bizning qarshimizga yo'lbars chiqsa, biz qattiq qo'rqamiz, chunki bizni o'lim kutadir, inson uchun dunyoda o'limdan qo'rqinch narsa yo'q. Binoan alayhi biz bundagi qo'rquvni tabiiy hisoblaymiz. Ammo qizig'i shundakim, bizni dunyo baxti kutganda, bizga saodat bashorati berilganda nega biz o'lim kutgandagi holga tushamiz va uzviy tashkilotimiz birinchidagi holatni kechiradir* (A.Qodiriy, "O'tkan kunlar").

Ayrim tilshunoslar matnda supersintaktik butunliklar tarkibiga kirmaydigan yakka gaplar ham mavjudligini aytadilar va ularni "erkin" gaplar sifatida baholaydilar, shu asosda erkin gaplarni supersintaktik butunliklar qatorida matn birliklari deb hisoblaydilar.

A.Mamajonov va M.Abdupattoyevlar ham bu fikrni qo'llab-quvvatlab, o'zbek tili matnidagi ana shunday erkin gaplarni tahlil qiladilar, Said Ahmadning "Ufq" romanidan olingan shunday misolni beradilar:

Dala toshni kuydirgan saraton haroratini bag'riga yashirgan o'sha mash'um tutzor, azamat yigitning pahlavon ko'ksiga bosh qo'ygan qoq tush pallasi...

U damlar Dildorga katta baxt, tush kabi shirin hayot va'da qilgandi.

Aldangan qiz hamon tush pallasi o'zini unutgan daqiqalarning dardini tortardi.

Ayol kishiga vafo degan narsa qanchalar qimmatga tushushini ko'plar hali bilmaydi.

Dildor hech kimni qoralay olmasdi. Faqat birgina o'zim aybliman deb bilardi. Agar u Nizomjonga bevafolik qilmaganda, bu kunlar boshiga tushmasdi.

Ba'zi tilshunoslar gapni uzil-kesil “matnning minimal birligi” deb hisoblaydilar. Bu munosabat bilan M.Ya.Bloxning mulohazalari alohida e'tiborga molik. Uning fikricha, yaxlit tekst strukturasi bevosita elementi faqat frazadan katta birlik, ya'ni gaplarning qo'shilmasigina emas, balki ayni paytda matn tuzuvchi tomonidan mazmunan muhim maqomga qo'yilgan alohida gaplar hamdir. Bunday gaplarning ayni maqomi monologik yozma nutqda ularni alohida abzas sifatida ajratishni taqozo etadi.

Matn lingvistikasi, xususan, matn birliklarini belgilashdagi eng munozarali va behad ko'p tadqiq etilgan masalalardan biri abzasning mohiyati, tabiati va matn tarkibidagi maqomi masalasidir.

O.I.Moskalskaya supersintaktik butunlik va abzasni solishtirar ekan, supersintaktik butunlikning sintaktik mohiyatga ega hodisaligini, abzas esa kompozitsion sath birligi ekanligini ta'kidlaydi.

Hozirgacha mavjud bo'lgan abzas haqidagi mulohazalardagi asosiy nuqtalarni shunday guruhlashtirishimiz mumkin:

- 1) abzas – sintaktik birlik;
- 2) abzas – sintaktik birlik emas;
- 3) abzas – kompozitsion-stilistik birlik;
- 4) abzas – kompozitsion-grafik usul.

N.A.Levkovskayaning ko'rsatishicha, matnni bo'laklarga ajratish – ko'p aspektli murakkab jarayon, bu jarayon, umuman, ikki tomonlama xarakterga ega, ya'ni, birinchidan, u matnning funksional yo'nalishi – matnning pragmatic maqsadi bilan bog'liq bo'lgan obyektiv jarayon. Matnni bo'laklarga ana shunday, ya'ni matnning pragmatik maqsadi tarzidagi o'ziga xos dixotomiya mavjud bo'ladi.

Ye.A.Referovskayaning ilmiy kuzatishlarida ham **abzas** mohiyatidagi subyektivlikka asosiy e'tibor qaratilgan. Uningcha, *“abzas muallifning individual manerasiga muvofiq tarzda mavzuning mazmuniy rivojiga, supersintaktik birlik esa fikr ifodasining structural shakllanishiga qaratilgan”*dir.

O'zbek tilshunosligida matn haqidagi ishlarning aksariyatida matn birliklari haqida gap borganda, shunday birliklar sifatida, asosan, *jumla, murakkab sintaktik butunlik, abzas* sanab o'tiladi.

Nemis tadqiqotchisi V.G.Admoni abzasning, eng avvalo, grafik butunlik ekanligini ta'kidlaydi. Rus tilshunosligida abzasni punktuatsion vositalar sistemasi ichida qarash an'anasi ham mavjud.

I.R.Galperin o'z kitobida abzas xuddi tinish belgilari kabi matndagi mantiqiy va emotsional jihatlarni alohida ta'kidlab, uni ko'rsatish uchun xizmat qiladigan vosita, kompositsion-grafik usul ekanligini asoslagan. U ham R.V.Arnold kabi abzasni matnda birlik emas, balki muayyan fikrni ta'kidlash, emotsionallikni kuchaytirish, muhim jihatni ajratib ko'rsatish usuli ekanligini ta'kidlaydi.

Ma'rufjon Yo'ldoshevning *“Badiiy matn lingvopoetikasi”* nomli asarida matnning tarkibiy qismlari sifatida gap va supersintaktik birlik olingan. Abzas esa bu guruhga kiritilmagan. Ammo, abzas ham, shubhasiz, matnning tarkibiy qismi bo'la oladi. Shunday ekan, matn lingvistikasida hali chuqur o'rganilishi kerak bo'lgan muammolar anchagina.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Matnning tarkibiy qismlari haqida gapiring.
2. *Bog'lanishlilik* va *yaxlitlik* tushunchalarini izohlang.
3. Supersintaktik butunliklarning mohiyati, sintagmatik va semantik-uslubiy xususiyatlari haqida ma'lumot bering.
4. Abzas haqidagi mulohazalardagi asosiy nuqtalar haqida gapiring.

Adabiyotlar

1. Boymirzaeva S. Matn mazmunida temperollik semantikasi. Toshkent, “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2009.
2. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T.:2007.
3. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. T.: “Fan”, 2008.

4. Yoʻldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. T., Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
5. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. – T., 1989.
6. Rasulov I. Murakkab sintaktik butunlik. Oʻzbek tili va adabiyoti. 1983, №1.
7. Abdupattoev M.T. Oʻzbek matnida supersintaktik butunliklar. Filol.fan.nom. ...diss.avtoref. – T., 1998.
8. Гальперин И.П. Текст как объект лингвистического исследования. -М: “Наука”, 1981.
9. Москальская О.И. Грамматика текста. Москва. “Высшая школа”, 1981.
10. Одинцов В.В. Стилистика текста. – М.: 1980.

MATN TARKIBIY QISMINI BOGʻLOVCHI VOSITALAR

Tayanch tushunchalar: *mazmuniy yaqinlik, kontakt aloqa, distant aloqa, zanjirli aloqa, parallel aloqa, intonatsiya, bogʻlovchilar, bogʻlovchi vazifasidagi soʻzlar, gap boʻlaklari tartibi, olmoshlar, ayrim soʻzlarning takrorlanishi, umumiy ikkinchi darajali boʻlaklar, kesimlarning zamon munosabati*

Bizga maʼlumki matn kamida ikkita gapdan tuzilgan murakkab sintaktik butunlik. Gaplar oʻzaro turli bogʻlovchi vositalar yordamida birikadi. Ularga tarkoriy boʻlaklar, olmoshlar, xaizmatik konstruktsiyalar, zamon va makon ifodalovchi birliklar, kesimlarning zamon shakllari modal soʻzlar kabi turli leksik – grammatik birliklar kiradi.

Tilshunos olim A. Mamajonov matn komponentlari oʻrtasida mustahkam sintaktik aloqa mavjudligini taʼkidlaydi va bu aloqaning oʻziga xosligini “Tekst lingvistikasi” deb nomlangan risolasida quyidagicha izohlaydi: “Bizningcha, sintaktik aloqaning bu turi qoʻshma gap komponentlari orasidagi grammatik aloqaga oʻxshab ketadi, faqat murakkabroq koʻrinishda yuzaga chiqadi”. Maʼlumki, qoʻshma gap komponentlari orasida birlashtirish, qiyoslash, zidlash, sabab – natija, shart – payt, aniqlash, izohlash kabi mazmuniy munosabatlar ifodalangan. Bu munosabatlar qoʻshma gapning uch turi: bogʻlovchisiz, bogʻlangan va ergash gapli qoʻshma gaplarda

komponentlarni o'zaro biriktiruvchi sintaktik aloqa vositalari: intonatsiya, bog'lovchilar, bog'lovchi vazifasidagi so'zlar, gap bo'laklari tartibi, olmoshlar, ayrim so'zlarning takrorlanishi, umumiy ikkinchi darajali bo'laklar, kesimlarning zamon munosabati kabilar orqali reallashadi. Ko'rinadiki, qo'shma gaplarda sintaktik aloqa predikatsiyalar orasida o'rnatiladi. Tekstda esa sintaktik aloqa bir butun gaplar, superfrazalar sintaktik butunliklar, abzaslar, qismlar, bo'limlar, boblar o'rtasida yuzaga chiqib, uning mazmuniy va struktural jihatdan emas, balki mazmunan ham bir-birini taqozo qilishi kerak ekan. Matn butunligida mazmuniy yaqinlik qanchalik ahamiyatli bo'lsa, mazmun izchilligi ham shunchalik muhim. Masalan: 1. Hovli yog' tushsa yalagudek top-toza bo'ldi. 2. Ahmad bugun ham darsga kelmadimi? 3. Har qanday chuqurlikdan ham yuksaklikka ko'tarilish mumkin. 4. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarga orzu ulashishdir.

Yuqorida to'rtta gap ketma-ket keltirildi. Lekin ularda mazmuniy yaqinlik yo'q. Quyidagi gaplar yig'indisida esa mazmuniy yaqinlik ko'zga tashlanadi, lekin izchillik yo'q. 1. Qalamkashning so'zi bir yo'la o'n ming, yuz ming kitobxonga yetib boradi. 2. Demak, uning so'z mas'uliyati ham boshqalarnikidan ming hissa ortiqroqdir. 3. Maktab o'qituvchisining so'zi o'ttiz bolaga yetib boradi. 4. Notiqning so'zi ming tinglovchiga boradi. 5. Dorilfunun domlasining so'zi yuz talabaga yetib boradi.

Yuqoridagi gaplardan matnning so'z haqida va uning mas'uliyati haqida ekanligini payqash qiyin emas.

Matn komponentlari o'zaro kontakt va distant aloqaga kirishadi. Oradan uch-to'rt kun vaqt o'tdi. Bolaga telefonimni bergan edim. Qo'ng'iroq qilmadi. Bir kuni yana uyushmaga kelsam, xuddi o'sha kitob do'koni oldida turibdi. Bu matnda birinchi va ikkinchi, ikkinchi va uchinchi, uchinchi va to'rtinchi gaplar orasidagi aloqani "kontakt aloqa", birinchi va uchinchi, birinchi va to'rtinchi gaplar orasidagi aloqani "distant aloqa" deymiz.

$$K=(a+b)+(b+c)+(c+d)$$

$$D=(a+c)+(a+d)$$

Bunday aloqani yuzaga chiqaruvchi leksik – grammatik vositalardan biri takrorlardir.

1. Kesimlilik shakllari yordamida birisining fe'l - kesimlarning bir xil zamonda shakllanganligi matn butunligini ta'minlaydigan vositalardan hisoblanadi. Olimlar hisoblab chiqishicha, A.C.Pushkin o'z asarlarida

21ming 197 ta betakror soʻz ishlatgan. Shekspir salkam 20 mingta, Servantes 18 mingga yaqin, Alisher Navoiy esa 1million 378 ming 660 ta soʻz, shu jumladan, 26 mingta betakror soʻz ishlatgan. Boisi buyuk bobomiz faqat turkiy emas, forsiy, arabiy, urdu, xitoy, moʻgʻul va boshqa tillardagi soʻzlardan ham mahorat bilan foydalangan.

2. Olmoshlar yordamida birikish. Bunda matnning birinchi komponenti tarkibidagi ot, sifat, son turkumidagi soʻzning keyingi komponentlarida olmosh soʻzlar bilan almashtirilishi tushuniladi.

Muhammad Rahimxonning Tozabogʻdagi sayrgoh bogʻi. Uning bir chekkasidan ikkinchi chekkasigacha aylanib chiqish amri mahol, kishi charchab qoladi. Katta hovlining orqasida qirgʻoqlariga marmar oʻrnatilgan xon hovuz. Undagi zogʻora baliq, choʻrtan baliq, laqqa baliqlar goh suv yuziga chiqib tashlangan nonlarni yer, goh biltanglab oʻynab shoʻngʻib ketardi. Hovuzning toʻrt tomonida yoʻgʻon-yoʻgʻon qayragʻochlar, tanlari qulochga sigʻmaydi. Xorazmda hovuz desa, darhol koʻz oldinga katta-katta gujumlar – qayragʻochlar keladi. Bu daraxtlar goʻyo azamat dubni eslatadi. Hovuz labiga husn berib turganlar ham oʻshalar. Ularning kichkina-kichkina barglari orasidan quyosh nurlari moʻralaydi. Ammo ular quyosh haroratini oʻzida singdirib, pastga tanga-tangaday oq shuʻlalarini tushiradi. Ular kishiga orom beradi(J.Sharipov).

Ushbu matn tarkibidagi komponentlar zanjirli aloqa usulida munosabatga kirishgan. Dastlabki komponentda bogʻ va uning kimga tegishli ekanligi haqida axborot keltiriladi. Keyin oʻsha bogʻning kattaligi va hovuz haqidagi informatsiya. Hovuz ichi va atrofi tasviri. Daraxtlar va ular bilan bogʻliq tafsilotlar. Mazkur tasvirdan butunboʻlak munosabati anglashiladi. Zanjirli aloqani quyidagi soʻz va shakllar taʼminlaydi: bogʻ - uning, hovuz undagi, gujumlar – qayragʻochlar-bu, oʻshalar, ularning, ular. Koʻrinadiki, olmoshlar oʻzidan oldin kelgan gaplardagi ot turkumiga mansub soʻzlarning oʻrniga qoʻllangan va matn komponentlari oʻrtasidagi aloqadorlikni mustahkamlagan. Hamda ayni soʻz takrori bilan yuzaga chiqadigan uslubiy gʻalizlik oldi olingan.

3. Takrorlar aytilayotgan fikrni alohida taʼkidlash, tasdiqlash, kengroq, batafsilroq ifodalash maqsadida foydalaniladi. Nutqning taʼsirchanligi yanada ortadi. Leksik takrorlar, olmoshlar va sinonimlar yordamida hosil qilinadigan aloqa zanjirli aloqa, bir xil grammatik

formalar bilan boshlanuvchi yoki tugallanuvchi komponentlar yig'indisidan tashkil topadigan aloqa parallel aloqa deyiladi.

Takrorlar yordamida birikish birinchi gapda qo'llangan ayrim affiksalar, so'z, so'z birikmasi yoki gaplarning keyingi komponentlari tarkibida takroran qo'llanilishi orqali matn shakllantirilishi mumkin.

- Janoblar, siz bu yerga turli mamlakatlardan kelgansiz. Siz turli millat, turli xalqning vakillarisiz. Bu yerda hech mamlakat, hech bir xalqning vakili bo'lmagan yolg'iz men. Men hamma xalqlarning, hamma mamlakatlarning vakiliman. Men she'riyatman. Men butun olamga teng nur sochuvchi oftobman. Men hamma o'lkalarga teng yog'uvchi yomg'irman. Men dunyoning hamma yerida teng gullaguvchi daraxtman. (R. Xamzatov).

Turmush tashvishlari,

Turmush tashvishlari,

Biz sendan balandroq tura olsaydik,

Biz sendan balandroq yura olsaydik,

Balki ung'ayadi dunyo ishlari,

Turmush tashvishlari,

Turmush tashvishlari (A.Oripov) .

Takrorning bir necha ko'rinishlari bor, ular ham matn tashakkulida uslubiy vazifa bajaradi: alleteratsiya, assonans, anafora, epifora kabilar.

Alleteratsiya deb undosh tovushlarning uslubiy maqsadlarda takrorlanishiga aytiladi.

Assonans esa unli tovushlarni takrorlanishidir. Anafora deganda so'z yoki so'z birikmalarining she'riy misralar boshida takrorlanishi tushuniladi. Epiforada esa misralar oxiridagi so'z yoki qo'shimchalarning takrorlanishi nazarda tutiladi. Bularning bari matnning kompozitsion butunligi uchun xizmat qiladi.

Takrorlar qo'llanish o'rniga ko'ra gorizontaal va vertikal takrorlarga bo'linadi. Bunday takrorlar, ayniqsa, she'riy matnlarda o'ziga xos ohangdorlikni yuzaga keltiradi. Takrorlanuvchi birlikning qaysi turkumga mansubligiga ko'ra ot takrori, sifat takrori, olmosh takrori, fe'l takrori kabilariga bo'linadi.

Sintaktik tabiatiga ko'ra so'z birikmasi takrori va jumla takrori ham farqlanadi.

Mazkur birliklarning joylashish tartibiga ko'ra ham tasnif qilish mumkin: simmetrik takror va asimmetrik takror. Shuningdek,

o'rtadagi masofaga ko'ra guruhlashimiz mumkin bo'ladi. Yaqin o'rinli takror, uzoq o'rinli takror.

Badiiy asarlarda ma'lum bir fikrning turli shakllarda takrorlanishiga qarab mazmuniy takror turini ham kuzatishimiz mumkin.

Badiiy matn qismlarini takrorlar yordamida birikishini biz badiiy adabiyot namunalaridan ko'plab uchratishimiz mumkin. Deyarli barcha shoiru yozuvchilar asarlarida takrorlar salmoqli o'rin egallaydi. Biz buni Tog'ay Murod asarlari misolida ko'rib chiqamiz.

Polvonlar bosh bakavul oldida og'izlarini suv bilan chayqadi. Qo'llarini suvlab ho'lladi.

Polvonlar olishi bor -yo'g'i bir necha daqiqa davom etdi. Shugina vaqt g'arq terga botib qoldi.

Bu yerda takror qo'llanilgan polvonlar so'zi qaysi turkumga mansubligiga ko'ra ot takror, joylashish o'rniga ko'ra simmetrik takror, joylashish o'rniga ko'ra uzoq o'rinli takroridir.

Men sergak bo'laman. Ohista-ohista qaddimni rostlayman.

Qo'shiq tobora yaqin-yaqin keladi. Bora --bora qirni qo'shiq oladi.

Men ruboiy qo'shiq qo'ynida qolaman!

Ko'nglim qo'shiqqa to'ladi limmo-lim.

Yayrab ketaman! O'lislarga termulaman-kulaman, o'lislarga termulaman-tag'in kulaman!

Ko'nglim tomchilashini qo'ymaydi, men --kulishimni!

Oshna, men o'zimizning qo'shiqni eshitaman, o'zimizning!

Momoqiz qo'shiq aytadi, momoqiz!

Nasim oshna, men ana shunda Momoqizni ko'raman!

"U o'roq o'rib-o'rib... ro'molining uchi ko'kragiga tushib-tushib... uni tag'in yelkasiga tashlab-tashlab ... menga qiyo boqib-boqib... Zulflarini toblab-toblab... ham iboli, ham ginali kulib-kulib... qo'shiq aytadi!"

Bo'ripolvon ko'ngli to'lib-to'lib keldi.

Ko'ngli to'rda nimalar o'ksib-o'ksib kelaberdi.

Yonoqlarida marjon-marjon yoshlar oqdi.

(Tog'ay Murod. Tanlangan asarlar, I jild. "Yulduzlar mangu yonadi", 99 -bet)

Bo'ripolvon o'z bilganidan qolmadi. Brigadasida suluv degich qiz bo'ldi. Bo'ripolvon ana shu qizni ko'z ostiga oldi.

Suluv Bo'ripolvon ko'ngliga o'tirib qoldi.

Ko'ngliga o'tirgani- Suluv erkak zoti ko'ziga tik qaramadi.

Suluv o'zi oti o'zi bilan suluv bo'ldi.

Suluv yuzlar aql-ibosi bilan shoista bo'ldi. O'roq o'rishda, uzum uzishda Suluvdan o'tadigani bo'lmadi.

Bo'ripolvon Suluvni begona qilmadi.

(Tog'ay Murod. Tanlangan asarlar, I jild. "Yulduzlar mangu yonadi", 62-bet)

Ushbu matnda Suluv so'zi takror sanalib qaysi turkumga mansubligiga ko'ra ot takrori hisoblanadi.

Ur! Sol tumshug'iga!

Ur! Musht turganda muomala nima kerak!

Ur! Kalla qil, kalla!

(Tog'ay Murod. "Ot kishnagan oqshom", 163-bet)

Kelin-kiyov yonma-yon turdi.

Bo'z bolalar kelin-kuyov poyida davra qurdi. Qizlarga hazil-mutoyiba gaplar otdi.

Ko'ngillar ko'ngillarni izladi, ko'zlar ko'zlarni izladi.

Ko'zlar xushtor-xushtor boqdi, g'amzali-g'amzali boqdi.

Ko'zlar o'ynadi, ko'zlar chorladi

Ko'ngillar entikdi, ko'ngillar orziqdi.

Qaysidir ko'ngil oshiq bo'ldi, qaysidir ko'ngil mashuq bo'ldi.

Qaysidir ko'ngilda ko'hna dard qaytalandi.

Qasidir ko'ngilda dard shu lahzadan boshlandi!

(Tog'ay Murod. Tanlangan asarlar, I jild. "Oydinda yurgan odamlar", 227-bet)

Huyyo-Huyyo, Huyyong qani?

Bovang bergan tuyang qani?

Bovang bergan tuyang bo'lsa,

Boqib yurganlaring qani?

Boqib yurgan tuyang bo'lsa,

Adir ham cho'llaring qani?

(Tog'ay Murod. Tanlangan asarlar, I jild. "Ot kishnagan oqshom", 205-bet)

Ot, asl qo'shiq oldini oldi,

Asl qo'shiq chapdan yo'l oldi.

Ot asl qo'shiq oldini oldi,

Asl qo'shiq o'ngdan yo'l oldi.

Ot tag'in oldini oldi,

Asl qo‘shiq nima qilishini bilmadi, yerga qarab turdi.
 Shunda qo‘shiq otdan tushdi. Ot bo‘yniga qo‘lini qo‘ydi. Olis turdi.
 Asl qo‘shiq ro‘moli yellarda hilpirab-hilpirab turdi.
 Qo‘shiq, asl qo‘shiq qo‘lidan savatchani oldi.
 Egar qoshiga ildi. Bir qo‘li bilan ot jilovidan ushladi. Bir qo‘li bilan
 asl qo‘shiq ro‘molidan ushladi.
 Ohista-ohista qishloqqa yo‘l oldilar.
 Qo‘shiqlar yuzma-yuz bo‘lib, nimalarni gapirishdilar.
 Qo‘shiqlar yig‘lab-yig‘lab, mana bunday gapirishdilar:
 -Umringizni olmayin dedim, bovasi yolg‘iz o‘g‘ilsiz...
 -Shu gapingga nomaqullik noni yebsan, momosi...
 Senga kelgan dardga o‘zim ko‘ndalang, momosi...
 (Tog‘ay Murod. Tanlangan asarlar, I jild. “Oydinda yurgan odamlar”,
 329-bet)
 Jamiki qavmlarni ergashtirdi, o‘zini Xo‘jayipok daryo suviga tashladi.
 Undan Surxondaryo suviga o‘tdi. Surxondaryodan suzib chiqib,
 Zahartepaga o‘raladi.
 Zahartepa Oq ilon ko‘ngliga o‘tirmadi!
 Oq ilonlar tag‘in yurish qildi. Bobotoqqa yo‘l oldi.
 Bobotog‘ning Govurgon degan yerini makon etdi.
 Mana, ikki asrkim, Bobotog‘ ilonlar makoni bo‘ldi.
 Ana shunday, emish-emishlar, Olloyor otini ilohiylashtirdi.
 Olloyor otini avliyolashtirdi.
 El Olloyor mozorini devorlab oldi.
 El Olloyor mozorini tevaragini devorlab oldi.
 El mozorini ziyoratgoh etdi.
 El yaxshi- yomon kunlarda ana shu mozorga sig‘inajak bo‘ldi.
 (Tog‘ay Murod. Tanlangan asarlar, I jild. “Oydinda yurgan odamlar”,
 257-bet)

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Matn komponentlari o‘rtasidagi sintaktik aloqa haqida ma‘lumot bering.
2. Kontakt va distant aloqa deganda nimani tushunasiz?
3. Matn qismlari qanday vositalar yordamida bog‘lanadi?
4. Takrorlar yordamida birikish haqida ma‘lumot bering.
5. Olmoshlar yordamida birikish haqida ma‘lumot bering.
6. Nisbiy so‘zlar yordamida birikish haqida ma‘lumot bering.
7. Bog‘lovchilar yordamida birikish haqida gapiring.

Adabiyotlar

1. Boynirzaeva S. Matn mazmunida temperollik semantikasi. Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2009.
2. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T.: 2007.
3. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. T.: "Fan", 2008.
4. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. T., Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
5. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. – T.: 1989.
6. Rasulov I. Murakkab sintaktik butunlik. O'zbek tili va adabiyoti. 1983, №1.
7. Shomaqsudov A., Rasulov I. va boshq. O'zbek tili stilistikasi. – T.: "O'qituvchi", 1983.
8. Abdupattoev M.T. O'zbek matnida supersintaktik butunliklar. Filol.fan.nom. ...diss.avtoref. – T., 1998.
9. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. -М: "Наука", 1981.
10. Москальская О.И. Грамматика текста. Москва. "Высшая школа", 1981.
11. Каменская О.Л. Текст и коммуникация. Москва. "Высшая школа", 1990.
12. Дрисслер В. Синтаксис текста. Новое в зарубежной лингвистике. М.: "Прогресс", 1978.
13. Калшанский Г.В. От предложения к тексту//Сущность, развитие и функции языка. – М.: "Наука", 1987.
14. Одинцов В.В. Стилистика текста. – М.: 1980

II. MATNNING KATEGORIAL BELGILARI

Ma'lumki, matnning mohiyatini aniqlash vazifasi qariyb barcha tadqiqotchilarni qiziqtirib, e'tiborini jalb etib kelmoqda. Biror bir hodisaning mohiyatini anglash uchun uning negizini hosil qiladigan xususiyat-belgilarini aniqlash lozim. Nutqiy tuzilmalarning matn maqomini olishi uchun zarur bo'lgan kategorial belgilar muammosi bilan qiziqqan tilshunolar V.Dressler, M.Hollidey, R.Hasan, I.R.Galperin, M.Kojina, T.M.Dridze, P.Hartman kabi matnshunoslarning nazariy g'oyalariga tayanib kelmoqdalar.

Jumladan, V.Dressler hamda R.A.de Bograndlar matnning mavqei uning quyidagi yetti kategorial belgiga ega bo'lishi bilan belgilanadi, deb hisoblaydilar: 1) *kogeziya* – matn bo'laklarining grammatik, leksik, ritmik, grafik vositalar yordamida birikishi; 2) *kogerentlik* – matn qismlarining semantik-mantiqiy munosabatlar (sabab-oqibat, referentativ, zamon-makon) negizida bog'lanishi; 3) *intensionallik* – matn strukturaviy va ma'noviy yaxlitligining kommunikativ maqsad bilan bog'liqligi; 4) *adresatlik* – axborotni uni qabul qiluvchining ijtimoiy mavqeyi, ruhiy holati kabi xususiyatlarini inobatga olgan holda uzatish (boshqacha aytganda–retsipient tanlovi); 5) *informativlik* – uzatilayotgan axborotning adresat uchun muhimligi yoki yangilik darajasi; 6) *situativlik* – matn mazmuniy va strukturaviy qurilishining kommunikativ sharoit, vaziyat bilan bog'liqligi; 7) *intertekstuallik* – ma'lum turdagi matn tarkibida invariant mazmun-ma'noning qayta yaratilishi.

Matn maqomini belgilash borasida izlanishlar olib borishayotgan Yevropa tilshunoslari uchun ushbu kategorial belgilar hozirgacha asosiy tayanch bo'lib kelmoqda. Rus tilshunoslarning diqqat-markazida esa, asosan, matnni quyi pog'onalaridagi birliklardan farqlash muammosi turadi. Shu sababli matn sintaksisi yo'nalishi taraqqiyotining dastlabki bosqichlaridayoq matn va gap hodisalarini farqlash asosiy vazifalardan biri sifatida tanlangan edi. Yuqoridagi *yaxlitlik*, *tugallik*, *bog'liqlik*, *diskretlik* (qismlarga ajralish) kabi kategorial belgilarning mavjudligi matn hodisasini oddiy sintaktik tuzilma – gapga qarama-qarshi qo'yish uchun yetarli hisoblanmoqda.

Ta'kidlash joizki, matn kategoriyasining taklif qilinayotgan tavsifi uning turli xususiyatlarini aks ettiradi va ushbu xususiyatlarning barchasini yagona qolip doirasida qamrab olish istagi beixtiyor matn tuzilishi va mundarijasining turli qatlamlariga oid xususiyat, belgilarning bir pog'onaga joylashtirilishiga sabab bo'ladi. Bunday betaraflik, so'zsiz, matn mohiyatini aniq nazariy fikrlar orqali tasvirlashga xalaqit beradi. Natijada, matn tuzilishi zohirida namoyon bo'ladigan sintaktik bog'liqlik va lisoniy elementlarning semantik birikishi matn yaratilishi uchun qanchalik zarur bo'lmasin, ularning yaxlitlik shartiga to'liq javob bermasligi oydinlashadi. Pragmalingvistik tahlilda matnning kommunikativ maqsadi asosiy tavsifiy belgi sifatida tanlandi.

Darhaqiqat, matn qurilishida ishtirok etayotgan barcha til

birliklari maqsadli tanlov asosida kommunikativ faoliyat vositalariga aylanadi va ular matn tarkibida o'ziga xos yangi xususiyat, xarakter kaab etadi. Ye.A.Goncharova ta'riflaganidek, til tuzilishining asosiy kommunikativ va kommunikativ birliklari bo'lgan so'z va gap, matnning struktur-semantik tarkibidan joy olish jarayonida, «matn so'zi» va «matn gapiga» aylanadi hamda ularda til tizimi va matn tizimidan o'zlashtirilgan xususiyatlar o'zaro birikadi. Xususiyatlarning bu xilda uyg'unlashuvi matnning lisoniy va nolisoniy birliklarning strukturaviy, ma'noviy va pragmatik munosabatlar asosida o'zaro birikishidan hosil bo'ladigan tugal nutqiy tuzilma ekanligidan darak beradi. Matnning bunday tavsiflanishi ham uning nutqiy-tafakkur faoliyati mahsuli ko'rinishida yuzaga kelishini isbotlaydi. Bu tuzilma, albatta, o'z ichki qonuniyatlariga ega, ushbu qonuniyatlar matnning sintaktik, semantik, pragmatik sifatlari bilan bir qatorda uning yaratilish va qo'llanish shartlari negizida turgan kognitiv xususiyatlari bilan ham bog'liq.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Kogeziya nima?
2. Kogerentlik deganda nimani tushunasiz?
3. Intensionallik nima?
4. Adresatlik deganda nimani tushunasiz?
5. Informativlik nima?
6. Situativlik nima?
7. Intertekstuallik deganda nimani tushunasiz?

Adabiyotlar

1. Boymirzaeva S. Matn mazmunida temperollik semantikasi. Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2009
2. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoyetik tahlili asoslari. T.2007
3. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. T.: "Fan", 2008
4. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. T., Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010
5. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. – T., 1989.
6. Turmiyozov N. Yo'ldoshev B. Matn tilshunosligi. Samarqand, 2006

7. Rasulov I. Murakkab sintaktik butunlik. O'zbek tili va adabiyoti. 1983, №1.
8. Abdupattoev M.T. O'zbek matnida supersintaktik butunliklar. Filol.fan.nom. ...diss.avtoref. – T., 1998.
9. Гальперин И.П. Текст как объект лингвистического исследования. -М: “Наука”, 1981.

MATN VA UNING TIPOLOGIK TASNIFI

Tayanch tushunchalar: *og'zaki matn, yozma matn, minimal matn, maksimal matn, mikromatn, makromatn turg'un strukturali matnlar (ma'lumotnoma, dalolatnoma, annotatsiya, patent) va erkin strukturali matn hikoya, tasviriy, muhokama matn, ilmiy matn (tezis, maqola, ma'ruza, taqrizlar), badiiy matn (nasriy va nazmiy asarlar), rasmiy matn (ma'lumotnoma, qaror, buyruq, tavsifnoma, tavsianomalar), ommabop matn, hikoya mazmunli matn, tasviriy matn, izoh mazmunli matn, didaktik matn, xabar-darak mazmunli matn, so'roq mazmunli matn, buyruq-istak mazmunli matn, hissiy ifoda mazmunli matn*

Matnlar tipologiyasida axborotni uzatish kanali alohida o'rin tutadi. Ana shunga ko'ra matnlarning **og'zaki matn** va **yoзма matn** tiplarini farqlash lozim. Kommunikatsiya jarayonida berilayotgan axborotning hajmi ham matnlar tipologiyasi uchun yana bir asos bo'ladi.

Har qanday matnni unda ifodalangan axborotning hajm belgisiga ko'ra **minimal matn** va **maksimal matn** tiplariga ajratish mumkin. Badiiy uslubda yozilgan matnda minimal matn deb biror mavzuni yoritishga bog'ishlangan qatralar, xalq donishmandligini ifodalaydigan maqol, matal va aforizmlar, miniatyuralar, hajviy asarlar, nomalar, she'r va she'riy parchalar, umuman, kichik mavzuni qamrab oluvchi bir necha gaplardan iborat butunlik tushuniladi. Matnning ichki tomonini mazmun yaxlitligi, tashqi tomonini esa turli shakldagi bog'lamalar, sintaktik vositalar birlashtirib turadi. Masalan: *Talantsiz yozuvchi tovuqqa o'xshaydi. Yong'oqdek tuxum tug'adi-da, qaqog'lab olamni buzadi!* (O'.Hoshimov). Yoki: *Sevgi nima? Insoniyat paydo bo'ptiki, shu savol ustida bosh qotiradi. Ammo javob topolmaydi. Agar inson sevgining barcha sir-asrorlarini bilganida edi, uning modeli –*

qolipini yaratgan bo'lardi. *Sevgi hech qanday qolipga sig'magani ta'biat ham sirliligi va abadiydir* (O'.Hoshimov).

Minimal matn deb atash mumkin bo'lgan ikkita parchani keltirdik. Tarkiblanish jihatidan birinchisi ikkita gapdan tuzilgan. Mazmuni birlashtirishga xizmat qiladigan sarlavha berilmagan. Bu vazifa tovuq va u bilan bog'liq so'zlarga yuklatilgan (tovuq-tuxum-qaqog'lamoq). Iste'dodsiz yozuvchi birinchi gapda tovuqqa o'xshatilmoqda. Ikkinchi gap esa bu o'xshatishni to'laroq izohlash yoki sababini ko'rsatish uchun keltirilgan. Ya'ni, iste'dodsiz yozuvchi tovuqqa o'xshatildi, ammo tovuqning qaysi sifat va xususiyatiga? Muallif munosabati ikkinchi gapda tugal ifodasini topgan. Matn butunligini ta'minlashda *tovuq-tuxum-qaqog'lamoq* so'zlari mazmuniy o'q vazifasini bajarmoqda. Keyingi kichik hajmli matnni oladigan bo'lsak, ushbu matnning ichki mazmuni savol shaklidagi sarlavha orqali oshkor qilingan. Matn 4 ta gapdan tashkil topgan. Butunlikni ta'minlayotgan vositalar sirasiga izchil va tugal ohang, ammo bog'lovchisi, agar bog'lovchisi va matnning mazmuniy o'qini tashkil qiluvchi *sevgi* so'zi kiradi. Demak, masala savol shaklida qo'yilyapti va unga matn orqali javob berilyapti. Ya'ni, *Sevgi nima? Sevgi - sirliligi va abadiy tushuncha*.

Ayrim mutaxassislar bittagina gap ham minimal matn tushunchasiga teng kelishi mumkin degan fikrni ilgari surishgan. Tilshunos N.Turniyozov «matn bir so'z bilan, bir necha so'z bilan, bir necha gap bilan, bir necha abzas bilan va bir necha bob bilan ifodalanishi ham mumkin»ligini aytadi. Lekin olim shuni ham ta'kidlaydiki, «matn lingvistikasi muammolarini bir so'zli, birikma yoki biror sodda gap bilan ifodalangan matnlar asosida o'rganish maqsadga muvofiq emas. Chunki bunday matnlarga tayanib til sistemasini unsurlarining nutqqa ko'chirilishiga oid masalalar tavsifini mukammal holatda berib bo'lmaydi». Tilshunos M.Hakimov ham bitta gap matn tushunchasiga teng kelishi mumkinligini ta'kidlaydi: «masalan: *Bahor...* Bu jumlaning kichik matn hisoblash mumkinmi? Bizningcha, to'la ma'noda kichik matn deb hisoblash mumkin. Chunki tugal bir ohang bilan aytilgan Bahor jumlasida «*tabiatning jonlanishi*», «*hammayoqning ko'm-ko'k tusga kirishi*», «*atrof-muhitning go'zal tusga burkanishi*» kabi yashirin mazmun mavjuddir. Shuning uchun kichik matnda bir tugal mazmuniy fikr o'z ifodasini topadi. Lekin bu tipdagi ko'rinishlarni tom ma'noda matn deb atash

mumkin emas. Chunki matn struktural jihatdan gapdan yirik sintaktik butunlik. Demak, gaplardan tashkil topadi. Yashirin mazmun sifatida havola qilinayotgan ma'nolar so'zning ma'no strukturasi bilan bog'liq. Mazkur gap o'zidan keyin keladigan izohlovchi yoki kengaytiruvchi gaplar bilan bir butunlik hosil qilgandagina matn deyish to'g'ri bo'ladi. Agar yashirin mazmunga qarab xulosa chiqaradigan bo'lsak, istalgan so'zni matn deyishimiz mumkin bo'ladi. Masalan, *ona* degan so'zni oladigan bo'lsak, bu so'zning ham moddiylashmagan yashirin ma'nolari mavjud va ular mazkur so'zni talaffuz qilishimiz bilanoq, ko'z oldimizda u yoki bu tarzda namoyon bo'ladi.

Maksimal matn deyilganda keng ko'lamdagi voqealarni yoritish ehtiyoji bilan yuzaga kelgan butunlik nazarda tutiladi. Badiiy uslubda hikoya, qissa, roman, epopeya kabi yirik hajmli asarlar maksimal matn hisoblanadi. Bunday matn tarkibida epigraf, so'zboshi (muqaddima), so'ngso'z (epilog) kabi yordamchi qismlar ham ishtirok etishi mumkin. Ular asar mazmuni va g'oyasiga, shuningdek, mavzuning tanlanishi va yoritilishiga oid ayrim masalalarga qo'shimcha izoh, sharh bo'lib keladi. Maksimal matn tashqi jihatdan turlicha shakllangan bo'ladi. Masalan, Pirimqul Qodirovning «Humoyun va Akbar» tarixiy romanini ko'zdan kechiradigan bo'lsak, mazkur asar ikki mustaqil qismga ajratiladi. Har ikki qism alohida nomlanadi (Humoyun. Akbar). Qismlar 9-10 tadan bo'limlarga bo'linadi va har bir bo'lim voqea bo'lib o'tayotgan joy hamda gap kim yoki nima haqida ketayotganligiga qarab nomlab boriladi (Masalan: 1.Agra. Hamida bonu arosatda... 2.Ganga. Ko'rgilik. v.h.). Romanning umumiy hajmi 30 bosma taboq.

Shuningdek, matn lingvistikasiga oid ishlarda ma'lum bir matn tarkibidagi murakkab sintaktik butunlikka nisbatan **mikromatn**, yaxlit matnga nisbatan esa **makromatn** atamasi qo'llanadi. Lekin mikromatn va makromatn tushunchalari matn tiplari bo'la olmaydi. Chunki ular butun-bo'lak munosabatini tashkil etadi. Masalan, A.Qahhorning "Bemor" hikoyasi butun holicha makromatn (garchi hajman kichik – minimal matn bo'lsa ham), undagi murakkab sintaktik butunliklar mikromatndir.

Matnlarni tiplashtirishda ularning lisoniy strukturasi ham nazarda tutilishi kerak. Shunga ko'ra, tipologik jihatdan **turg'un strukturali matnlar** (ma'lumotnoma, dalolatnoma, annotatsiya, patent kabilar) va

erkin **strukturali matnlar** (maqola, hikoya, she'r, roman kabilar)ni farqlash mumkin.

Matnlar mazmuni va ifoda maqsadiga ko'ra ham farqli tiplarga birlashadi. Bunda berilmochi bo'lgan axborotning xarakteri va uni ifodulashdan ko'zlangan maqsad asosiy o'Ichov vazifasini bajaradi. Bu nuqtai nazardan matnlarni nutqiy muloqotning asosiy shakllariga uyg'un ravishda **hikoya**, **tasviriy**, **muhokama matnlariga** ajratish tilshunoslikda an'anaga kirgan.

Matn tiplarini belgilashda yana bir omil – asos nutqning funksional uslublaridir. Matn funksional uslubiy mohiyatiga ko'ra **ilmiy matn** (tezis, maqola, ma'ruza, taqrizlar), **badiiy matn** (nasriy va nazmiy asarlar), **rasmiy matn** (ma'lumotnoma, qaror, buyruq, tavsifnoma, tavsiiyanomalar), **ommabop matn** (maqola, suhbat, tabrik va xitob nutqi matnlari) kabi tarmoqlarga bo'linadi.

Matn maqsad-mohiyatida tilning ikki muhim vazifasidan qaysi birining – kommunikativ vazifaningmi yoki estetik vazifaningmi – yetakchilik qilishiga asoslangan holda matnlarning ikki oppozitiv tiplarini farqlash zarur, yani **badiiy matn** va **nobadiiy matn**. Asosiy maqsad-mohiyatida kommunikativ vazifa yetakchilik qilgan matnni nobadiiy matn deb, asosiy maqsad mohiyatida estetik vazifa yetakchilik qilgan matnni esa badiiy matn deyish ma'qul.

Muloqot paytida, gapirayotganda yoki yozayotganda har doim yangidan matn yaratmaymiz. Ehtiyojimizga ko'ra turli matn tiplaridan foydalanamiz. Ba'zan boshimizdan o'tgan yoki o'zimiz guvoh bo'lgan voqealarni kimgadir aytib beramiz. Tinglovchiga notanish bo'lgan biror kishi yoki joyni batafsil tasvirlab berishga harakat qilamiz. Ba'zan fikrimizni turli dalillar yordamida isbotlashga, izohlashga ehtiyoj sezamiz. Yoxud kimgadir pand-nasihath qilamiz. Uni turli hayotiy voqealar vositasida tarbiyalash yoki aytilganlardan xulosa chiqarishini istaymiz. Muloqot maqsadimiz ba'zan qandaydir xabarni tinglovchiga yetkazishga qaratilgan bo'ladi. Ba'zan nimanidir so'rashga ehtiyoj sezamiz. Shu bilan birga biror ishni qanday bajarish kerakligi haqida tavsiyalar beramiz yoki biror ishni qilmaslik haqida buyruq beramiz. Maqsadimizga erishish uchun turli ko'rsatma, ta'qiq va xitob jumllaridan foydalanamiz. Insonlar o'rtasidagi muloqot maqsadi va mazmuni shular bilangina chegaralanib qolmaydi. Inson hissiyotlarini, tuyg'ularini, hayajonlarini, azob va qayg'ularini ifodalash, shu orqali tinglovchi yoki kitobxonni ta'sirlantirishini

istaydi. Ana shunday hollarda ba'zan mubolag'a ba'zan o'xshatish – qiyoslash kabi tasviriy vositalardan foydalanamiz. Shu asosda badiiy matn ifoda mazmuniga ko'ra ham tiplarga ajratiladi: hikoya mazmunli matn, tasviriy matn, izoh mazmunli matn, didaktik matn, xabar-darak mazmunli matn, so'roq mazmunli matn, buyruq-istak mazmunli matn, hissiy ifoda mazmunli matn.

Unutmaslik kerakki, biror bir badiiy matnda sanab o'tilgan matn tiplarining hammasi yoki ayrimlari ishtirok etgan bo'lishi mumkin. Yoxud butun boshli asar yuqorida zikr etilgan matn tiplaridan faqatgina bittasi asosida shakllangan bo'lishi ham mumkin.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Matn deb nimaga aytiladi?
2. Matn qanday birliklardan iborat?
3. Matnning qanday tiplari mavjud?
4. Badiiy va nobadiiy matn deganda nimani tushunasiz?
5. Muallif maqsadiga ko'ra badiiy matnning qanday tiplari mavjud?

Adabiyotlar

1. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T., 2007.
2. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. T.: "Fan", 2008.
3. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. T., Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
4. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. – T., 1989.
5. Shomaqsudov A., Rasulov I. va boshq. O'zbek tili stilistikasi. – T.: «O'qituvchi», 1983.
6. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. -М: "Наука", 1981.
7. Москальская О.И. Грамматика текста. Москва. "Высшая школа", 1981.
8. Одинцов В.В. Стилистика текста. – М., 1980.

MATN VA USLUB MUNOSABATI

Tayanch tushunchalar: *uslub, qolip, aniqlik, vazifaviy uslub, ekstralingvistik omil, mantiqiylik, izchillik, ob'yektivlik, qisqalik*

O'zbek tili uslublarini vazifaviy jihatdan tasnif qilish ikki omilga—til va tildan tasqarida bo'lgan omillarga tayanadi. Bu uslublarning N.A. Baskakov, A. Sulaymonov, A. Shomaqsudov, G'. Abdurahmonov, B.O'rinboev, S. Muhamedovlar tomonidan tavsiya etilgan variantlari mavjud bo'lib, ularda asosan beshta: so'zlashuv, ommabop, ilmiy, rasmiy, badiiy uslublar e'tirof etiladi.

Rasmiy uslub hozirgi o'zbek tilining davlat ma'muriy, huquqiy muassasalarida, rasmiy diplomatik munosabatlarida namoyon bo'ladigan ko'rinishidir. Qonun matnlari, farmonlar, farmoyishlar, buyruqlar, xullas, barcha rasmiy ish qog'ozlari ana shu uslubda shakllanadi. Bu uslubning o'z me'yorlari mavjud.

Jumladan, aniqlik. Ushbu uslubda shakllangan matnlarda noaniqlikka, izohtalab o'rinlarga yo'l qo'yilmasligi lozim. Fikr va mazmun sodda, aniq, tushunarli tilda bayon qilinishi kerak. Masalan, O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidagina amalga oshiriladi. (O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 7-modda).

Qolip. Fikr, mulohaza bayon asosan bir qolipda ifodalanadi. Ariza, qaror, bildirishnoma, ma'lumotnoma, shartnoma, tabriknoma singari turli xarakterdagi rasmiy hujjatlarning har birining o'ziga xos bayon etish qolipi bo'ladi. Ayni paytda, ularning har birining alohida so'z va turg'un birikmalari ham mavjud bo'ladi. Masalan, ma'muriy javobgarlik, fuqarolik holati, aybdor, gumondor, jabrlanuvchi, guvoh, jamoat kafilligi, surishtiruv va boshqalar.

Ushbu uslub uchun jargonlar, oddiy so'zlashuvga xos so'zlar, emotsional ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlarning ishlatilishi me'yor sanalmaydi va shu jihati bilan boshqa uslublardan farq qiladi.

Rasmiy uslubning grammatik me'yori ham alohida xususiyatlarga ega. Masalan, ot so'z turkumidagi so'zlar ko'p qo'llaniladi. Noaniqliklarga yo'l qo'yilmaslik maqsadida ular olmoshlar bilan almashtirilmaydi.

Bu uslubda fe'ning harakat nomi shakli faol qo'llaniladi. Gapning kesimi ko'pincha hozirgi zamonning majhul nisbatida ifodalanadi, hujjatning xarakteriga qarab shart mayli shakliga tez-tez murojaat etiladi.

Rasmiy uslubning sintaktik alomatlari ham matnda darhol ko'zga tashlanadi. Unda, asosan, darak gaplar, ayniqsa, uning qo'shma gap shakli ko'p ishlatiladi. Yoyiq va murakkab so'z birikmalari mahsuldor hisoblanadi. Gap tuzilishida o'zbek tilidagi odatdagi me'yorga amal qilinadi va yuqoridagi jihatlari bilan ilmiy uslubga o'xshab ketadi.

Ilmiy uslub ilmiy asarlar uslubidir. Til birliklarining fan sohasida, ilmiy bayon jarayonida ishlatilishi mazkur uslubning shakllanishiga asos bo'ladi. Ilmiy tafakkur fikrlashning o'ziga xos usuli ekanligi, ob'ektiv borliqni idrok etishda faqatgina dalil va faktlarga tayanish, fikriy izchillik kabi ekstralingvistik omillar ham nutqning ushbu turining shakllanishida, binobarin, nutqiy me'yorning o'ziga xos turinig yuzaga kelishida muhim omil sanaladi.

Ilmiy uslubning janr xususiyatlari ham keng. Monografiya, risola, darslik, o'quv qo'llanmasi, o'quv-metodik qo'llanma, dastur, ma'ruza, taqriz, referat singarilar ana shu janr ko'rinishlari hisoblanadi.

Ilmiy uslubga xos xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. Aniqlik. Har qanday bayon, xulosa, shubhasiz, aniqlikni talab qiladi. Shuning uchun so'zlarni bu uslubda aniq, asosan, bir ma'noda qo'llash, sinonimik qatordagi variantlardan masalaning mohiyatini birmuncha aniq ifoda etadigan variantini tanlash, hech bo'lmaganda, neytral variantini qo'llash taqozo etiladi. Terminlarni qo'llash bu uslubning asosiy xususiyati sanaladi.
2. Ob'ektivlik. Ilmiy adabiyotlarda bu uslub doirasida til materiali fikrning haqqoniyligi, ob'ektivlikka xizmat qilishi lozimligi uqtiriladi.
3. Mantiqiy izchillik ilmiy bayon uslubining o'ziga xos xususiyatini tashkil etadi. Matnda so'zlar, gaplar, abzaslar o'zaro mantiqiy bog'langan bo'lishi lozim.
4. Qisqalik. Bu xususiyat aynan ilmiy bayonga xos xususiyatdir. Shuning uchun unda tilning tasviriy imkoniyatlaridan deyarli foydalanilmaydi. Gaplar darak mazmunida bo'lib, asosan sodda yoyiq holda bo'ladi.

Ilmiy uslubning fonetik jihatdan boshqa uslublardan farq qiladigan jihati yo'q. Leksikasidagi farq esa sohaviy atamalarning

ko'pligi hisoblanadi. So'zlarni ko'chma ma'nolarda qo'llash, tasviriy vositalardan foydalanish bu uslubga xos xususiyat sanalmaydi.

Muallif individualligining kam sezilarli bo'lishi ham ilmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlaridan sanaladi.

Ilmiy uslubda faqat adabiy tilda me'yor sifatida e'tirof etilgan grammatik ko'rsatkichlardan foydalaniladi. So'z turkumlaridan ot faol, ko'pincha takror qo'llaniladi. Sub'ektiv baho shakllari xos emas. -lar ko'plikdan boshqa semantik-uslubiy ma'nolarni ifoda qilmasada, atama hosil qilishda ishtirok etadi. Umumiy egalik ustun turadi, 1,2 shaxs qo'shimchalari ishlatilmaydi, 3 shaxs shakli faol. Undov va taqlid so'zlar ham uslubga xos emas. Yuklamalarning esa imkoniyati chegaralangan.

Ilmiy uslubda bayon etilayotgan matnning sintaktik qurilishi fikriy tugallikka, mantiqiy izchillikka xizmat qiladi. Bayonning tabiatidan kelib chiqib, bir tarkibli gaplarning shaxssiz, shaxsi umumlashgan turlari faol. Undov, atov gaplar qo'llanilmaydi, nutq monologik xarakterda bo'ladi. Qo'shma gap faol ishlatiladi. Darak gap asosiy mavqeni egallaydi, so'roq va buyruq gaplar deyarli qo'llanilmaydi.

Ommabop uslub o'zbek tilshunosligida filologiya fanlari nomzodi T.Qurbonov tomonidan monografik yo'nalishda o'rganilgan.

Ommabop uslub imkoniyatlarining kengligi lingvistik va ekstralingvistik (paralingvistik)-tildan tashqaridagi omillarning mustahkam aloqadorlikda kuzatamiz. Bu uslubda yozilgan asarlarning mohiyatan hozirjavobligi, ularning axborot hamda targ'ibot-tashviqot xarakterida bo'lishi va ommani dunyo yoki mamlakatimiz miqyosida sodir bo'layotgan voqea-hodisalardan zudlik bilan xabardor qilish natijasida yuzaga keladigan novatorlik unda tabiiy ravishda yangi ijtimoiy, siyosiy terminologiyaning qo'llanilishi va tilimizda me'yorlashishga sabab bo'ladi. Boshqacha aytganda, ommabop uslub tilning yangi so'z va iboralar hisobiga boyib borishiga ko'maklashadi.

Ommabop uslub ma'lum ma'noda oraliq uslub sanaladi. Bu uslubda shakllangan matnlar obrazlilik, ta'sirchanligi, tasviriy vositalarning mahsuldor qo'llanilishi bilan badiiy uslubga yaqinlashsa, dialektizmlar, istorizmlar, argo va jargonlar qo'llanilmasligi bilan undan uzoqlashadi. Ifodaning aniqligi va publitsistik janrlarga xoslangan hamda ijtimoiy, siyosiy terminologiyaning qo'llanilishi bilan ilmiy uslubga o'xshaydi. Ifodadagi qisqalik, lo'ndalik,

ixchamlik, yorqinlik kabi xislatlar uni ilmiy uslub bilan yonma-yon qo'yadi.

Badiiy uslub o'zbek tili vazifaviy uslublari orasida o'ziga xos mavqega ega bo'lib, ayni paytda o'zining alohida me'yorlariga ham ega. Til materialini qamrab olish imkoniyatining kengligi, umumxalq tilida mavjud bo'lgan barcha lingvistik birliklarning, boshqa vazifaviy uslublarga xos bo'lgan elementlarning ham ishlatilaverishi va ularning muhim bir vazifaga badiiy estetik vazifani bajarishga xizmat qilishi badiiy uslubning asosiy xususiyati sanaladi.

Shuningdek, badiiy uslubda, xususan, poetik nutqda hozirgi adabiy orfografik me'yor talablariga muvofiq kelmaydigan *qaro*, *yamon*, *yaro*, *oshno*, *talosh* singari so'zlar ham ishlatilaveradi. Bu uslubda metafora, metonimiya, sinekdoxa, mubolag'a singari badiiy vositalardan foydalaniladi.

So'zlashuv uslubi kishilarning kundalik rasmiy, norasmiy, erkin muomalalari doirasida til birliklarining o'ziga xos tarzda amal qilishidir. Uni ma'lum ma'noda tildagi boshqa uslublarga qarshi qo'yish mumkin. Bu uslubning o'ziga xos xususiyati nutq jarayonida til va tildan tashqari omillarning uyg'un bo'lishida ko'rinadi.

So'zlashuv uslubida nutq elliptik xarakterda bo'ladi. Lekin bunday holatda ham tinglovchiga fikr tushunarli bo'ladi. Chunki u oldin aytilgan fikrning mantiqiy davomi bo'ladi.

Ikkinchidan, so'zlashuv nutqida til birliklarining ekspressivlik imkoniyatlarini keng namoyish qiladi.

Uchinchidan, bu uslubda ohang intonatsiyaning ahamiyati nihoyatda kattadir. Ohang og'zaki nutqning reallashuvida til birliklaridan keyingi muhim, hal qiluvchi vosita bo'lib, uning nutq tempi, pauza, ton, melodiya, tovush tembri, so'z va gap urg'usi gap ko'rinishlari ma'noni farqlashda, hayajonni kuchaytirishga xizmat qiladi.

So'zlashuv uslubi ham boshqa vazifaviy uslublar kabi fonetik, leksik, grammatik o'ziga xosliklarga ega.

Nutqda tovushlarning uyg'unlashuvi, bir tovush o'rnida ikkinchisining talaffuz qilinishi, tovushlarning o'zni almashuvi, tovush orttirilishi, tushirib qoldirilishi kabi fonetik hodisalar avvalo so'zlashuv uslubida namoyon bo'ladi.

So'zlashuv uslubi leksikasida ikki qatlam alohida ajralib turadi. Birinchi qatlam kundalik turmush muomalasida faol qo'llaniladigan

Ijtimoiy hayot va uy-ro'zg'or yumushlari bilan bogg'liq. Ikkinchi qatlam og'zaki nutqda ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlar. Ular neytral qiymatdagi so'zlar bilan sinonimik munosabatga kirisha oladi: kichkina (bolagina), yig'ildi (quladi), buzoq (ish bilmas, galvars), og'zi ochiq (yig'loqi) kabi.

Kitobiy nutq uchun bog'lovchisiz qo'shma gaplar, odatda, xos emas, og'zaki nutq uchun esa, aksincha, xarakterlidir. So'zlashuv nutqidagi sodda gaplar ko'pincha fe'l bilan ifodalangan kesimning yo'qligi bilan xarakterlanadi. Hatto ba'zan shunday hollar bo'ladiki, bunday gaplarga fe'l kesimni qo'yib ham bo'lmaydi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Matn va uslub muammosi haqida ma'lumot bering
2. Qolip, aniqlik deganda nimani tushunasiz?
3. Rasmiy uslubning sintaktik alomatlari haqida gapiring.
4. Badiiy uslubning o'ziga xos jihatlari haqida ma'lumot bering.
5. Ilmiy uslubning o'iga xos jihatlari haqida ma'lumot bering.

Adabiyotlar

1. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T., 2007.
2. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. T.: "Fan", 2008.
3. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
4. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. – T., 1989.
5. Shomaqsudov A., Rasulov I. va boshq. O'zbek tili stilistikasi. – T. : «O'qituvchi», 1983.
6. Одинцов В.В. Стилистика текста. – М.: 1980.
9. Karimov S.A. O'zbek tili uslubshunosligining hozirgi bosqichdagi muammolari. Ma'ruzalar matni. Samarqand, 2006.

BADIIY MATNNI TAHLIL QILISH TAMOYILLARI

Tayanch tushunchalar: *Metodologiya, metod, tamoyil, usul, shakl va mazmun birligi tamoyili, makon va zamon birligi tamoyili, ilmiy mushohada usuli, lisoniy tabdil usuli, matn variantlarini qiyoslash usuli, lug'atlarga asoslanish usuli*

O'zbek tilshunosligida badiiy matn tadqiqi sohasida jiddiy izlanish olib borgan M.Yo'ldoshev badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari haqida quyidagi fikrlarni ilgari suradi:

1. Shakl va mazmun birligi tamoyili.
2. Makon va zamon birligi tamoyili.
3. Badiiy matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini aniqlash tamoyili.
4. Badiiy matndagi poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash tamoyillari.
5. Badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarini aniqlash tamoyili.

1. Shakl va mazmun birligi tamoyili. Borliqdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi aloqadorlik, bog'lanish turlaridan biri shakl va mazmunning dialektikasidir. Shakl va mazmunning dialektik birligi tushunchasi har qanday matn uchun zaruriy xususiyat hisoblanadi. Faylasuflar mazmunga «muayyan narsa va hodisalarni tavsiflovchi ichki elementlar va o'zgarishlarning majmui», deb baho beradilar. Shaklni esa «mazmunni ifodalash usuli, tashkil etuvchisi» sifatida talqin qiladilar. Shakl va mazmun bir-biri bilan shunday bog'lanib ketganki, birida sezilgan nuqson ikkinchisidagi butunlikka putur etkazishi mumkin. Shakl va mazmun muvofiqligi buzilsa, muallifning niyati to'la namoyon bo'lmay qolishi turgan gap. Bunda asosiy e'tiberni matn va uning janr xususiyati o'rtasidagi muvozanatga qaratgan holda, matndagi lisoniy birliklarning matn tabiatiga mosligi masalasini ham diqqat markazidan qochirmaslik kerak.

Badiiy matn ham shaklan, ham mazmunan mutlaqo o'ziga xos bo'lgan murakkab va serqatlam estetik butunlikdir. Unda mazmun qanchalik muhim bo'lsa, shakl ham shunchalik favqulodda ahamiyatlidir. Ba'zan shakl hatto mazmun darajasiga ko'tarilishi, mazmun maqomini olib, haqiqiy mazmunning qimmatiga daxl qilishi ham mumkin. Badiiy matnda muallifning mazmunni shaklga solishdagi mahorati, bundagi individual xususiyatlar alohida qimmatga ega. Badiiy matnning

tahlilida, eng avvalo, ana shu jihat, ya'ni shakl va mazmun birligi birlamchi tamoyil sifatida nazarda tutilishi lozim. Shakl va mazmunning ochiq yoki yashirin muvofiqligi muallif badiiy niyatining aniq va to'la namoyon bo'lishi uchun jiddiy zamindir.

2. Makon va zamon birligi tamoyili. Badiiy matnning til xususiyatlari tekshirilayotganida undagi har bir hodisaga makon va zamon birligi tushunchasini hisobga olib yondashish kerak. Har qanday asar davr va makon bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Tarixiy mavzudagi asar tilida muayyan zamon ruhini tashuvchi voqealarning qaysi makonda, qanday muhitda yuz berayotganini oydinlashtiruvchi leksik-grammatik birliklar ishtirok etadi. Makon va zamon birligi tushunchasi badiiy asargagina xos belgi emas. U har qanday matn ko'rinishiga taalluqlidir. Ushbu tamoyil asosida tahlil olib borilayotganda matn yozilgan davr, matnda ko'tarilgan mavzu va matn birliklarining tabiatiga qarab diaxron va sinxron aspektlardan biri tanlanishi kerak. Buni yirik so'z san'atkori Abdulla Qahhor hikoyasidan olingan quyidagi parcha asosida ko'zdan kechiramiz:

-Ha, sigiring yo'qoldimi?

-Yo'q... sigir emas, ho'kiz, ola ho'kiz edi.

-Yo'qolmasdan ilgari bormidi? Qanaqa ho'kiz edi?

-Ola ho'kiz...

-Yaxshi hokizmidi yo yomon ho'kizmidi?

-Qo'sh mahali...

-Yaxshi ho'kiz birov yetaklasa ketaberadimi?

-Bisotimda hech narsa yo'q...

-O'zi qaytib kelmasmikin?... Birov olib ketsa qaytib kela ber, deb qo'yilmagan ekan-da. Nega yig'lanadi? A? Yig'lanmasin! (Tanlangan asarlar. 1-tom. 33-bet). Bu suhbat qayerda, qaysi davrda, qanday odamlar o'rtasida bo'lib o'tayotganligini keltirilgan ushbu kichik parchadan ham bilsa bo'ladi. Savol ham qisqa, javob ham. Savol berish tarzida kibr, mensimaslik, voqelikka arzimasi bir narsaga qarayotgandek beparvo munosabat seziladi. Piching, kesatiq va masxara ohangi aniq aks etgan. Javobdan esa qahramonning soddaligi, faqirligi anglashiladi. Suhbat amin huzurida bo'lib o'tyapti. Shunga muvofiq rasmiy nutq elementlaridan foydalanilgan.

Badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlari tekshirilayotganda undagi har bir til hodisasiga **makon va zamon birligi** tushunchasini

hisobga olib yondashish kerak. Chunki har qanday asar davr va makon bilan bog'liq holda yuzaga keladi.

3. Badiiy matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini aniqlash tamoyili. Tahlil etilayotgan matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini nazarda tutish ham yana bir tamoyildir. V.V.Vinogradov "Badiiy adabiyot tili haqida" (1959) nomli asarida ta'kidlaganidek, badiiy adabiyot tilining tarixiy harakatini umumxalq tili hamda uning turli tarmoqlanishi tarixidan tamoman ajratilgan holda o'rganish mumkin emas. Badiiy matnning ikki turini farqlash mumkin: 1) zamonaviy matn (bugun yaratilgan), 2) tarixiy matn (o'tmishda yaratilgan). Zamonaviy matnning ham o'z navbatida ikki turini kuzatish mumkin, ya'ni: a) bugungi kun mavzusidagi zamonaviy matn, b) tarixiy mavzudagi zamonaviy matn. Masalan, S.Ahmadning "Azroil o'tgan yo'llarda" hikoyasi bugungi kun mavzusidagi zamonaviy matn, M.Alining "Ulug' saltanat" romani tarixiy mavzudagi zamonaviy matn, Navoiyning "Farhod va Shirin"i esa tarixiy matndir.

4. Badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash tamoyili. Badiiy asardagi poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash ham muhim tamoyillardandir. Bunday vositalarning lingvistik va badiiy mohiyatini ochib berish orqali badiiy mazmunning shakllanishi va ifodalanishi mexanizmlarini aniq tasavvur qilishi mumkin.

5. Badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik xususiyatlarini aniqlash tamoyili. Matn ichida qo'llanilgan o'zga matn ko'rinishlarini (nazira, taqlid, naql, hadis, rivoyat, miflar, afsonalar, didaktemalar, u yoki bu ijodkorning asari yoki parchasi kabi) aniqlash va ularning asar mazmuni bilan qay darajada uyg'unligi badiiy mazmun ifodasidagi o'rni, asosiy matn bilan lisoniy va semantik bog'lanishidagi muhim holatlar haqida fikr yuritish badiiy matn lingvopoetikasini ochishda favqulodda zarurdir.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Shakl va mazmun birligi tamoyili haqida gapiring.
2. Makon va zamon birligi tamoyili deganda nimani tushunasiz?
3. Badiiy matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini aniqlash tamoyili haqida gapiring.

4. Badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash tamoyili deganda nimani tushunasiz?

Adabiyotlar

1. Yoʻldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T., 2007.
2. Yoʻldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. T.: “Fan”, 2008.
3. Yoʻldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. T., Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
4. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. – T.:, 1989.
5. Shomaqsudov A., Rasulov I. va boshq. Oʻzbek tili stilistikasi. – T.: “Oʻqituvchi”, 1983.
6. Одинцов В.В. Стилистика текста. – М.: 1980.

BADIY MATNNI TAHLIL QILISH USULLARI

Tayanch tushunchalar: *lisoniy tabdil usuli, matn variantlarini qiyoslash usuli, matn variantlarini qiyoslash usuli, lisoniy birliklar indeksini tuzish usuli*

Oʻzbek tilshunosligida badiiy matn tadqiqi sohasida jiddiy izlanish olib borgan M.Yoʻldoshev badiiy matnni tahlil qilish usullari sifatida quyidagilarni sanaydi:

1. Lisoniy tabdil usuli.
2. Matn variantlarini qiyoslash usuli.
3. Lugʻatlarga asoslanish usuli.
4. Lisoniy birliklar indeksini tuzish usuli.

1. Lisoniy tabdil usuli. Tabdil – «almashtirish, oʻzgartirish, oʻrin almashtirish» degan maʼnoni bildiradi. Ayrim adabiyotlarda oʻzakdosh soʻzlarning juft holda qoʻllanishiga nisbatan ham ishlatilishi aytiladi. Asar tilining badiiyligi, ishonarliligi, yozuvchining mualliflik mahoratini aniqlashda ushbu tahlil usuli natijalaridan foydalaniladi. Asarda qoʻllanilgan soʻz yoki iboralarni, jummalarni qayta tuzib koʻrish, oʻxshashi bilan almashtirib koʻrish va shu asosda baho berish nazarda tutiladi. Masalan, Abdulla Qahhorning «Anor» hikoyasidagi mana bu misolga eʼtibor bering: «-Yo qudratingdan, indamaydi-ya!-

*dedi Turobjon keltirgan matoini titkilab—mana, chaynab ko'r!
Ko'rgin, bo'lmasa, innaykiyin degin...*

Ayni o'rinda *narsa* so'zi emas, balki atayin *mato* so'zi qo'llangan. *Narsa* so'zi uslubiy jihatdan xolis, *mato* so'zi esa ayni ma'nosi bilan xolis emas, ya'ni unda kamsitish bilan bog'liq ma'no qirrası mavjud, bu ma'no qirrası *titkilab fe'l* shakli bilan yana ham ta'kidlangan. Anorga boshqorong'i bo'lgan va erining anor olib kelishini intiq kutib o'tirgan xotin nazarida, bu-ku arining uyasi — mumli asal ekan, toza asalning o'zi ham *narsa* emas faqat *mato*. Hikoyaning umumiy intonatsiyasi, voqea rivoji ayni o'rinda *mato* so'zini boshqa sinonimi bilan almashtirishga imkon bermaydi.»

Mahoratli adib Cho'lpon asarlaridan bunday holatlarni istagancha topish mumkin. Masalan, o'zbek tilida *o'ramoq, burkamoq, chulg'amoq, chirmamoq* tarzidagi ma'nodosh so'zlar qatori mavjud bo'lib, *burkamoq* so'zida *o'ramoq* so'ziga nisbatan o'rash belgisi anchayin ortiq, ya'ni uning ma'no qurilishida «hech bir ochiq joyini qoldirmay» degan qo'shimcha ifoda semasi mavjud. Shuning uchun ham ushbu parchada Cho'lpon tegishli mazmun ifodasi uchun *o'ramoq* so'zini emas, balki ayni *burkamoq* so'zini tanlash orqali tasvirdagi aniqlik va ekspressivlikni oshirishga muvaffaq bo'lgan: *Hali tuzuk-quruq odam qatoriga kirib etmagan bu qizchani katta xotinlarning oriyat paranjisiga burkaganlar, paranjining uzun etaklari katta bir tugundek uning qo'ltig'ini to'lg'azardi*. Shuning uchun ham mazkur o'rindagi birliklarni sinonimi bilan yoki boshqa biror so'z bilan almashtirib bo'lmaydi. Almashtirilsa asar badiyatiga putur yetadi.

2. Matn variantlarini qiyoslash usuli. Bu usul orqali ma'lum asar matni boshqa variantlari bilan qiyoslanadi va lisoniy farqlarning mohiyati adib nuqtai nazari, badiiy-estetik niyati hamda asar g'oyasiga bog'lab yoritiladi. Yozuvchining badiiy asar tili ustida ishlashini o'rganishda, yozuvchi tuzatishlarni ayni bir mazmunni ifodalashga qaratilgan turli vositalarni aniqlashda va umuman yozuvchining tildan foydalanishdagi mahoratini belgilashda bu usul yaxshi samara beradi. Masalan, «Navoiy» romanining qo'lyozmasida: *-Buvijon, -hayajonlanib so'zladi Dildor, -ko'rsangiz ayting, hech qanday yomon niyatda bo'lmasin, tinch yursin* (600-bet). Nashrda: *-Buvijon, -shivirladi u, -uni ko'rsangiz ayting, hech qanday yomon niyatda bo'lmasin, tinch yursin* (237-bet).

Bu epizodda suhbat podshoh harami darvozasi yonida yuz beryapti. Vaziyat va ruhiy holat uyg'unligi ikkinchi variantda aniq ko'rinadi. Yoki G'afur G'ulomning «Shum bola» asari qahramoni – Qoravoyning yoshi dastlabki nashrda 17, keyingi nashrda 14 deb berilgan. Bunda ham qahramonning xatti – harakati va yoshi o'rtasida muvofiqlik hisobga olingan. Bu bevosita yozuvchining tuzatishlari. Shunday holatlar bo'ladiki, asar matni noshirlar tomonidan yoki adabiyotshunoslar tarafidan atayin o'zgartiriladi. «O'tkan kunlar» romani bir necha o'zgartishlar bilan nashr etib kelingani ko'pchilikka ma'lum.

3. **Lug'atlarga asoslanish usuli.** Asar tili, ayniqsa tarixiy mavzudagi asar yoki tarjima asarlarining til xususiyatlari tekshirilayotgan paytda tegishli lug'atlarga murojaat qilish lozim bo'ladi. Masalan, «Shayboniyxon» dostoni tilida qo'llanilgan *gudar, savash, sovut, sodoq, g'ul, tuv, baydoq* kabi o'sha davr ruhiyatiga mos harbiy atamalar ma'nosini bilish asarni puxta o'rganishga yordam beradi. Bu-ku bir necha yuz yil oldingi asar ekan, o'tgan asr boshlarida yozilgan asarlar uchun ham lug'at tuzish oddiy ehtiyojga aylanib bormoqda. Masalan, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Avaz O'tar, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon kabi shoir va yozuvchilarning asarlari uchun maxsus, so'zlarning bevosita asarda reallashgan ma'nosiga asoslanib tuzilgan lug'atlar tayyorlanishi kerak. «O'tkan kunlar»da har bir sahifa ostida ayrim tushunarsiz so'zlarning izohi berib borilgan. Masalan, *utta - u yerda; siporish - topshiriq; muvofiquttab' - ta'bg'a mos, munosib; ashrof - e'tiborli kishilar, ulug'lar; mushovir - maslahatshi; musohib - hamsuhbat* kabi. Bu faqat mazkur asardagina emas, boshqalarida ham shunday. Lekin adibning barcha asarlarining tiliga bag'ishlangan maxsus lug'at tayyorlanishi lozim. J.Lapasovning «Badiiy matn va lisoniy tahlil» deb nomlangan qo'llanmasida muayyan bir badiiy matnning lug'atini tuzish bo'yicha namunalar hamda lug'at ustida ishlash bo'yicha muhim ko'rsatmalar berilgan. Olim to'g'ri ta'kidlaganidek: «Badiiy matnning lisoniy tahlilini turli-tuman lug'atlarsiz tasavvur qilish qiyin. Lug'at ustida ishlash o'quvchi va talabalarning so'z boyligini, og'zaki va yozma nutqini o'stirishning eng muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi va shu lug'at yordamida nafaqat so'zlarning tub ma'nosini, balki ko'chma ma'nolari, har bir so'zning qaysi til unsuri ekanligi, etimologiyasi

(soʻzning kelib chiqish tarixi va tadrijiy rivoji), tarkibi, baʼzan esa grammatik shakli bilan yaqindan tanishiladi).

4. Lisoniy birliklar indeksini tuzish usuli. Badiiy matnning lingvopoetik tahlili jarayonida asardagi lisoniy birliklarning indeksini tuzib chiqish talab qilinadi. Buning uchun dastlab, asardagi eng koʻp qoʻllanilgan, asar badiiyati uchun xarakterli boʻlgan birliklar (masalan, iboralar, sinonimlar, antonimlar yoki epitetli birikmalar, metonimiya, metaforalar boʻlishi mumkin) aniqlanadi. Keyin alifbo tartibida terib chiqiladi. Bu yozuvchining lisoniy mahoratini yoritishda faktik material vazifasini oʻtaydi. Masalan, mohir soʻz sanʼatkori Abdulla Qahhorning «Sarob» romanida qoʻllangan yuzdan ziyod ibora, metafora yoki metonimiyalarning indeksini quyidagi tarzda tuzib chiqishimiz mumkin: (5 jildlik. 1-jild. Toshkent, Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti. 1987 yil).

Iboralar:

Aftini burishtirmoq – qimirlasam, biqinim sanchadi, – dedi Saidiy xuddi hozir sanchadiganday aftini burishtirib (41-bet).

Boʻyniga olmoq – Saidiy xayrlashib chiqdi, qishloqqa borishni boʻyniga olib qoʻydi (83-bet).

Dami ichiga tushmoq – Saidiy Yoqubjonning aytganini qilganida Kenjaning dami ichiga tushdi (124-bet).

Oqizmay-tomizmay yetkazmoq – Soʻz oʻrni kelganda, u Saidiyda zakovat belgilari koʻrganini, bu yigit oddiy studentlardan yuqori turishini soʻzlar, buni esa Munisxon oqizmay-tomizmay Saidiyga yetkazar edi (67-bet).

Taʼbi ochilmoq – U qishloqqa kelganida dastlab yangi muhitga oʻrganolmay koʻp qiynalgan edi, ammo oʻrganganidan soʻng, taʼbi ochilib ketdi (89-bet).

Yuragi dov bermaslik – Munisxon paltosining yoqasini koʻtardi-yu, eshikdan chiqishga yuragi dov bermay, turib qoldi (43-bet).

Uhda qilolmaslik – Shef bilan ishlab ham uhda qilolmayotirsizmi? (82-bet)

Quloq bermoq – Qiz uning soʻziga oʻzi ustidan chiqarilgan hukmni tinglaganday quloq berar edi (35-bet).

Metaforalar:

Shervachcha – Assalomu alaykum, shervachcha, – dedi bir keksa tovush va bu tovushning egasidan ilgari «to‘q» etib hassa kirdi. (88-bet) – *Shervachcha*, – dedi chol ikkala qo‘lini ko‘kragiga qo‘yib, xirillab, - gazetaga bersalar... (89-bet).

Dori – Yo bosh og‘rig‘ini dori bilan bosaylikmi? Bir ryumka-bir ryumka... (129-bet).

Yaqinlik iplari – Bora-bora ikki oradagi Ehson tug‘dirgan yaqinlik iplari uzila boshladi (42-bet).

To‘ngak - «To‘ngak» bilan professor o‘rtasida o‘tgan bu gap butun universitetga dovruq bo‘ldi (43-bet).

Metonimiyalar:

Zal – Yana qarsak zalni ko‘targuday bo‘ldi. (94-bet) Butun zal domlaga qaradi (94-bet).

Katta, mayda – U «katta» yozish uchun avval «mayda» bilan o‘quvchi orttirish kerak, dedi (136-bet).

Oshiqlar – Xususan, Kenja Saidiyning «Oshiqlar»i ochiqdan-ochiq sho‘ro hukumatining xotin-qizlar ozodligi to‘g‘risidagi siyosatiga zarba berish, (...) Abbosxonning o‘zi tasalligga muhtoj bo‘lib qoldi (139-bet).

Fakultet – Fakultetni tashlashga o‘zingizda bu qadar majburiyat sezsangiz noiloj davom etmang, chunki bu narsa fakultetdan haydalishga olib keladi (106-bet).

Firqa – Shunda, albatta firqa ko‘rsatgan yo‘ldan boramiz (94-bet).

Universitet – Universitet chaqirtirayotir. (91-bet) «To‘ngak» bilan professor o‘rtasida o‘tgan bu gap butun universitetga dovruq bo‘ldi (43-bet).

Shisha – Buni esa ko‘proq shisha osonlashtiradi (112-bet).

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Lisoniy tabdil usuli nima?
2. Matn variantlarini qiyoslash usuli haqida ma‘lumot bering.
3. Matn variantlarini qiyoslash usuli haqida gapiring.
4. Lisoniy birliklar indeksini tuzish usuli nima?

Adabiyotlar

1. Yoʻldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T., 2007.
2. Yoʻldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. T.: "Fan", 2008.
3. Yoʻldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. T., Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
4. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. – T.:, 1989.
5. Shomaqsudov A., Rasulov I. va boshq. Oʻzbek tili stilistikasi. – T., "Oʻqituvchi", 1983.
6. Одинцов В.В. Стилистика текста. – М.: 1980.
7. Mirtojiev M. Lingvistik metaforalar tasnifi.//OʻTA, 1973, №4.– B.34-37.
8. Togʻayev O. Publisistika janrlari.–Toshkent: "Oʻqituvchi", 1976.– B.155.

BADIIY MATNNING FONETIK TAHLILI

Tayanch tushunchalar: fono-grafik vositalar, unlilarni birdan ortiq yozish, undoshlarni birdan ortiq yozish, grafon, alliteratsiya, assonans, geminatsiya.

1. Badiiy matnni tahlil qilish jarayonida fonetik birliklarning estetik xususiyatlariga ham alohida eʼtiborni qaratish zarur. Sheʼriy matnda nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari tez va qulay idrok etiladi. Chunki sheʼrda oʻziga xos jozibador ohang boʻladi. Bu ohangdorlikka tovushlarni uslubiy qoʻllash natijasida erishiladi. Sheʼriyatda asosan, alliteratsiya (undoshlar takrori), assonans (unlilar takrori), geminatsiya (undoshlarni qavatlash) kabi fonetik usullardan foydalaniladi. Nasrda unlilarni choʻzish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, soʻzlarning fonetik qobigʻini oʻzgartirib yozish, tovush orttirish yoki tovush tushirish kabi fonetik usullar yordamida ekspressivlik taʼminlanadi. Tovushlarni uslubiy qoʻllash bilan bogʻliq qonuniyatlarni yozuvda «aynan» ifodalash imkoniyati cheklangan. Biroq talaffuz va bayon muvofiqligiga fono-grafik vositalar yordamida erishish mumkin. Badiiy asarlarda ruhiy holatni yozuvda ifodalash oʻziga xos murakkablikni yuzaga chiqaradi. Qahramonlar ruhiyatidagi ichki hayajon, xursand boʻlish, xafa boʻlish, rozilik, taajjub, yalinish, hayratlanish, kinoya, piching, kesatq, olqish, soʻroq, taʼkid,

qoniqmaslik, norizolik, tilak-istak, qo‘llab-quvvatlash kabi holatlarni aynan berishda yozuvchilar unli yoki undoshlarni birdan ortiq yozish usulidan foydalanadilar.

Shuningdek, badiiy matnda unilarni birdan ortiq yozish usulidan qahramonning biror nimadan hayratlanishi, taajjubga tushishi kabi holatlarini ifodalashda foydalaniladi. Masalan: – *Marhamat... O‘o‘, kaklikning sayrashini dedingizmi?* (Sh. Xolmirzayev)

2. Undoshlarni birdan ortiq yozish. Aslida orfoepik me‘yor bo‘yicha bir undosh talaffuz qilinishi kerak bo‘lgan so‘zlar muayyan vaziyatlarda ekspressiya va estetik maqsad talabi bilan atayin qavatlab talaffuz qilinadi. So‘zlovchining ichki ruhiyati (siqilish, xursandlik, karaxtlik, ikkilanish, achchig‘lanish, biror voqea-hodisadan qattiq ta‘sirylanish kabilar) va maqsadini kitobxonga «aynan» yetkazish uchun yozuvchilar badiiy matnda bu holatni undoshlarni birdan ortiq yozish orqali ifodalashga harakat qiladilar. Bunda belgining me‘yordan ortiqligi, harakatning davomiyligi yoki oniyliigi (bir onda ro‘y berganligi), takroriyliigi, tovush kuchining balandligi yoki pastligi kabi ma‘nolar ifodalangan bo‘ladi.

Qahramon ruhiyatidagi oniy, keskin o‘zgarishlar ham undoshlarni birdan ortiq yozish orqali beriladi: *N-nima qilishim kerak bo‘lmasa? Bo‘ldi, muddaongga yetding... En-nasini... bu dunyoni!* (Sh. Xolmirzayev)

3. Noto‘g‘ri talaffuzni ifodalash. Og‘zaki nutqda turli sabablarga ko‘ra ayrim so‘zlar, asosan, o‘zlashma so‘zlarni buzib talaffuz qilish holati mavjud. Bunday xato o‘zlashgan so‘z imlosini to‘g‘ri bilmaslik, boshqa millatga mansublik, paronimlarni farqlamaslik, ayrim so‘zlar imlosini tasavvur qilmaslik kabilar natijasida yuzaga kelishi mumkin. **Grafon** deb ataladigan bu usuldan badiiy asarda qahramon nutqini individuallashtirish hamda ifodani og‘zaki – jonli nutqqa yaqinlashtirish maqsadida foydalaniladi. Ayrim o‘rinlarda kulgi qo‘zg‘atish maqsadida ham so‘zlar atayin buzib talaffuz qilinadi va o‘sha tarzda yoziladi. Masalan: –*Kotibadan, kirsam mumkinmi, deb so‘rash kerak.*

–*Jinni bo‘ldingmi, Ne‘mat?*

–*Men sizga Ne‘mat emasman, o‘rtoq Babbayev bo‘laman, o‘rtoq Xajjayip.*(S.Ahmad)

Alliteratsiya. Badiiy nutqning ohangdorligini va ta‘sirchanligini ta‘minlashda alliteratsiyaning o‘rni beqiyosdir. She‘riy nutqda

misralar, undagi soʻzlar hamda boʻgʻinlar boshida yoki oxirida bir xil undosh tovushlarning takror qoʻllanishiga alliteratsiya deyiladi. Tovushlar zamiridagi musiqiylikka asoslangan bu usul qadimdan Sharq sheʼriyatida keng qoʻllanilib kelingan. Koʻhna badiiyatshunoslik («ilmi badeʼ»)da alliteratsiya «tavziʼ sanʼati» deb yuritilgan. Alliteratsiya deganda zabardast shoir Erkin Vohidovning mashhur «q» alliteratsiyali sheʼri koʻz oldimizga keladi:

Assonans. Badiiy nutqqa intonatsion butunlik, ohangdorlik va emotsional – ekspressivlik bagʻishlash maqsadida qoʻllaniladigan fonetik usullardan biri assonansdir. Adabiyotlarda assonans aynan yoki yaqin unililarning takrorlanib kelishidan hosil boʻladigan ohangdoshlik ekanligi bayon qilingan.

Assonans qofiyadosh soʻzlar tarkibida kelib, sheʼriy nutqqa koʻtarinki ruh va oʻziga xos musiqiylik baxsh etadi:

Ruhimda yoʻqoldi qarorim,

Tanimda qolmadi madorim.

Bizlarni bir yoʻqlab kelibsan,

Vafo qilarmisan, bahorim?! (A.Oripov)

Alliteratsiya va assonans sajʼli nasrda alohida ahamiyat kasb etadi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Fono-grafik vositalar va ularning badiiy matnda qoʻllanilishi haqida nimalarni bilasiz?
2. Unli yoki undoshlarni birdan ortiq yozish orqali qanday maqsadlar nazarda tutiladi?
3. Grafon deb nimaga aytiladi va ular badiiy matnda qanday maqsadlarda qoʻllaniladi?
4. Alliteratsiya va assonans deb nimaga aytiladi?
5. Geminatsiya va uning lingvopoetik imkoniyatlari haqida nimalarni bilasiz?

Adabiyotlar

1. Boymirzaeva S. Matn mazmunida temperollik semantikasi. Toshkent, “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2009.
2. Yoʻldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T., 2007.

3. Yoʻldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. T.: “Fan”, 2008.
4. Yoʻldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. T., Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, T., 2010.
5. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. – T., 1989.
6. Rasulov I. Murakkab sintaktik butunlik. Oʻzbek tili va adabiyoti. 1983, №1.
7. Shomaqsudov A., Rasulov I. va boshq. Oʻzbek tili stilistikasi. – T.: “Oʻqituvchi”, 1983.
8. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M. va boshq. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – T.: “FTM”, 2009.

BADIY MATNNING LEKSIK TAHLILI

Tayanch tushunchalar: *maʼnodoshlik, shakldoshlik, koʻp maʼnolilik, zid maʼnolilik, antiteza, paronim, paronomaziya, neologizm, istorizm, arxaizm, dialektizm, vulgarizm, varvarizm, paremlar, agnonimlar, agnomaziya*

Badiiy matnni lisoniy tahlil qilish jarayonida badiiy asar tilidagi maʼnodosh, shakldosh, zid maʼnoli, koʻp maʼnoli, tarixiy va arxaik soʻzlar, yangi yasalmalar, shevaga oid soʻzlar, chet va vulgar soʻzlar ajratib olinadi va asarga nima maqsad bilan olib kiritilganligi izohlanadi.

Maʼnodosh soʻzlar. Maʼnodosh soʻzlar tilning lugʻaviy jihatdan boylik darajasini koʻrsatib beruvchi oʻziga xos vositadir. Tilda maʼnodosh soʻzlarning koʻp boʻlishi tilning estetik vazifasini yana-da toʻliq bajara olishini osonlashtiradi. Oʻzbek tili maʼnodosh soʻzlarga juda boy. Yozuvchilar tilimizdagi maʼnodosh soʻzlar ichidan tasvir maqsadiga eng munosibini topib, ular orqali qahramonlar ruhiyati hamda tasvir obyektining eng kichik qirralarigacha ifodalashga harakat qiladilar. Badiiy matndagi maʼnodosh soʻzlar tahlilida, asosan, ikki jihatga eʼtiborni qaratish zarur. Ulardan biri muallifning ikki yoki undan ortiq maʼnodosh soʻzdan ifodalanayotgan mazmun uchun eng maqbul birini tanlashi boʻlsa, ikkinchisi ayni bir matn tarkibida ikki yoki undan ortiq maʼnodosh birliklarni badiiy tasvir maqsadiga uygʻun holda qoʻllashi masalasidir.

Tilshunoslikda ma'nodoshlikning, asosan, uch turi farqlanadi, ya'ni: 1) leksik ma'nodoshlik; 2) frazeologik ma'nodoshlik; 3) leksik-frazeologik ma'nodoshlik. Leksik ma'nodoshlikdan bir necha maqsadlarda foydalaniladi.

Kontekstual ma'nodoshlik. Katta mahoratli yozuvchilarning badiiy til borasidagi ustunliklaridan biri shundaki, ular faqat tilda mavjud bo'lgan, tayyor ma'nodosh so'zlardangina foydalanib qolmasdan, badiiy tasvir ehtiyojiga ko'ra ma'nodosh bo'lmagan so'zlarni ham shunday qo'llaydilarki, bu so'zlar ham matnda xuddi ma'nodosh so'zlar kabi idrok etiladi. Masalan: *Kechagina qarg'ab, so'kib, «o'ldirsam!» deb yurgan kundoshini o'pib, quchoqlab, silab-siypab bir nafasda ikkalasi «qalin do'st» bo'lgan emishlar.* (Cho'lpon).

Frazeologik ma'nodoshlik. Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko'zi o'ngida aniq va to'la gavdalanitirishda frazeologik iboralarning ma'nodoshligidan keng foydalaniladi.

Leksik-frazeologik ma'nodoshlik. Lug'aviy birlik sifatida frazeologizmlar so'zlar bilan ham sinonimik munosabatda bo'la oladi.

Shakldosh so'zlar. Tilimizda tovush (yozuvda grafik) tomoni bir xil bo'lib, turlicha ma'nolarni ifodalovchi so'zlar mavjud. Bunday so'zlar omonimlar deb ataladi. Tilshunoslikda omonimiyaning uch ko'rinishi mavjudligi ta'kidlanadi: Omoleksema, omograf va omofonlar. Shakldosh so'zlar asosida yuzaga keladigan ohangdoshlikdan badiiy asarda alohida uslubiy vosita sifatida foydalaniladi. Xalq og'zaki ijodida askiya va payrov orqali kulgi chiqarish maqsadida, she'riyatda esa tuyuq yoki so'z o'yini hosil qilishda ishlatiladi.

Paronim so'zlar. Paronimlar deb fonetik tarkibi boshqa-boshqa, talaffuzdagina o'xshash, yaqin bo'lib qolgan so'zlarga aytiladi. «Paronimlarga asoslangan uslubiy figura paronomaziya deb yuritiladi. Badiiy adabiyotda paronomaziya ifodalilik, ohangdorlikka erishish, komik effekt yaratish, so'z o'yini hosil qilish kabi maqsadlarda foydalaniladi». Badiiy adabiyotda o'xshash so'z (paronim)lar qahramonlar nutqini individuallashtirish, ularning ma'naviy hamda lisoniy saviyasini ko'rsatish uchun ham ishlatiladi.

Zid ma'noli so'zlar. Tilda zid ma'noli so'zlarning mavjudligi badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta'sirchanligini ta'minlashda qulay vositalardan biridir. Sharq adabiyotida juda qadim

zamonlardan buyon tildagi bu ifoda imkoniyatidan keng foydalanib kelingan. «Shoir uchun juda zarur bo'lgan san'atlardan biri tazoddir. Bu san'at yana *mutobaqa, tibog, tatbiq, muttazod, ittizod* va *takofu*, deb ham ataladi. Bu san'atda, badi'shunoslarning aytishicha, zid ma'noli so'zlardan foydalaniladi. Yevropa filologik an'anasida bu san'at «*antiteza*» deb yuritiladi. Badiiy asar tiliga bag'ishlangan ishlarda *zidlantirish, qarshilantirish* atamalaridan foydalaniladi. Zid ma'noli so'zlarni yonma-yon qo'llash orqali tushunchalar, belgilar, holatlar, obrazlar zidlantiriladi. Odatda, lisoniy va kontekstual yoki nutqiy zid ma'noli so'zlar farqlanadi.

Ko'p ma'noli so'zlar. Yozuvchining tildan foydalanish mahorati-ni belgilashda badiiy nutq ifodaliligini qay darajada ta'minlay olganligiga e'tibor qaratiladi. Buni ko'p ma'noli so'zlarni o'z o'rnida, muayyan estetik maqsad bilan qo'llay olishidan ham aniqlasa bo'ladi. Ko'p ma'noli so'zlar nutqning ifoda imkoniyatlarini kengaytirishga ko'maklashuvchi lisoniy vosita hisoblanadi.

Eskirgan so'zlar. Jamiyat rivojlanib borar ekan, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy hayotdagi ba'zi tushunchalar tamomila eskirib, amaliyotdan chiqib ketadi. Badiiy asarda muayyan davr voqealari tasvirlanar ekan, ana shu davrga oid bo'lgan eski tushunchalarga murojaat qilmaslikning aslo iloji yo'q. Tilshunoslikda bunday tushunchalarni ifodalaydigan so'zlar «*arxaizmlar*» va «*istorizmlar*» degan nomlar ostida umumlashtiriladi. Tilning hozirgi davri uchun eskilik bo'yog'iga ega bo'lgan til birligi arxaizm deb yuritiladi. Arxaizm o'zi nomlayotgan voqelikni anglatuvchi leksik birlik bilan yonma-yon yashaydi. Arxaizmlar badiiy matnda tasvirlanayotgan davr voqeligini real tasvirlash, asarning tarixiylik ruhini ta'minlash maqsadida qo'llaniladi. *O'rd-u-qo'shin, handasa-geometriya, tilmoch-tarjimon, mirza-kotib, sadr-ra'is, lak-yuz ming* kabi so'zlar ishlatilganda davr ruhi ta'kidlangan bo'ladi. Ayrim arxaik so'zlar zamonaviy ma'nodoshiga qaraganda ma'noni kuchliroq ifodalash xususiyatiga ega bo'ladi. Masalan, *yo'qsil* – *kambag'al* arxaik so'zlariga e'tibor beradigan bo'lsak, «*hech narsaga ega emaslik*» ma'nosi *yo'qsil* leksemasida *kambag'al* leksemasiga qaraganda ancha ortiq, chunki mazkur so'zlar tarkibi tarixiy-etimologik tahlil etilganida anglanadigan *yo'q* - *kam* so'zlari qiyoslansa, birinchisida ayni belgining «*no*l» darajada ekanligi seziladi. Arxaik so'zlar muayyan davrning yozma uslubini ifodalashda

yoki qahramonning nutqiy xarakteristikasini berishda ham uslubiy vosita sifatida ishlatiladi.

Hozirgi kunda uchramaydigan, faqat tarixiy narsa yoki voqea-hodisalarning nomini bildiruvchi soʻzlar *istorizm* (tarixiy soʻzlar) deyiladi. Istorizمنىng arxaizmdan farqi shundaki, bugungi kunda oʻsha tarixiy voqelikning oʻzi ham uni anglatuvchi boshqa leksik birlik ham boʻlmaydi, demak istorizm oʻzi ifodalayotgan hodisaning yagona nomidir. Masalan: *amin, pristav, mingboshi, noyib, ellikboshi, ponsad* kabilar badiiy matnda ishlatilganda kitobxon ijtimoiy boshqaruv tizimi bilan bogʻliq tarixiy voqelikni koʻz oldiga keltiradi. Tarixiy soʻzlar ham badiiy matnda oʻtmish voqeligini real tasvirlash maqsadida ishlatiladi.

Badiiy asar tilidagi eskirgan soʻzlarni tahlil qilishda asar yozilgan davrni eʼtibordan chetda qoldirmaslik lozim. Chunki, «soʻzlar yozuvchi yashagan, ijod etgan davridayoq eskirgan boʻlishi mumkin boʻlganidek, asar yozilgan davrda faol isteʼmolda boʻlib, keyinchalik isteʼmoldan tushgan» boʻlishi mumkin.

Yangi soʻzlar. Yangilik boʻyogʻiga ega boʻlgan, yangi narsa-hodisa va tushunchalarni ifodalash uchun hosil qilingan leksemalar **neologizm** yoki **yangi soʻzlar** deyiladi. Neologizm tilga umuman mansub boʻlishi yoki yakka shaxs nutqiga xos boʻlishi mumkin. Birinchisi umumtil neologizmi deb, ikkinchisi individual nutq neologizmi deb yuritiladi. Badiiy asarda asosan individual nutq neologizmlari badiiy-estetik qimmat kasb etadi. Mahoratli yozuvchilar voqelikni oʻziga xos, betakror va yangicha ifodalashga harakat qiladilar. Shuning uchun hali koʻnikilmagan yoki umuman qoʻllanilmagan, yangi, ohorli soʻzlardan foydalanadilar.

Sheva soʻzlari. Yozuvchilar oʻz qahramonlarini oʻzlari yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda, hayotdagidek ishonarli va jonli tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqib shevaga xos soʻzlarni ishlatadilar. Sheva soʻzlari mahalliy kolorit, hududiy mansublikni oʻzida aniq aks ettirish bilan birga «badiiy nutqda muayyan estetik funksiyani bajaradi. Biroq dialektizmlarning estetik qimmat kasb etishi ularning badiiy nutqdagi meʼyori, qanday ishlatilishi va ayni paytda qanday dialektizmlarning qoʻllanishi bilan bogʻliqdir. Tilshunoslikka oid adabiyotlarda shevaga xos birliklarning **fonetik, leksik va grammatik dialektizmlar** sifatida tasnif qilinganligini kuzatish mumkin. **Fonetik dialektizmlar** asosan,

tovushlarni o'zgartirib qo'llash, tovush orttirilishi, tovush tushishi va tovushlarni qavatlab qo'llash ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. **Leksik dialektizmlar** ham o'z navbatida ichki guruhlariga bo'lib o'rganiladi: **sof leksik dialektizmlar**, **etnografik dialektizmlar** va **semantik dialektizmlar**. Muayyan sheva tarqalgan hududda yashovchi kishilarning o'zlariga xos bo'lgan urf-odatlarining nomlari **etnografik dialektizmlar** deb yuritiladi. Bunday so'zlar tasvirning realligini ta'minlaydi. Biror so'z adabiy tilda ham, shevada ham mavjud bo'lib, shevada adabiy tilda bo'lmagan ma'nosi bilan qo'llana oladigan so'zlar **semantik dialektizmlar** deb yuritiladi. Masalan: *Men buvindan (onamdan – M.Y.) beruxsat mehmon chaqirmayman.* (Cho'lpon) **Grammatik dialektizmlarning** ham morfologik va sintaktik deb ataluvchi ichki guruhlari mavjudligini qayd etish mumkin.

Chet va haqorat so'zlari. Badiiy adabiyotda muayyan tasvir maqsadi bilan o'zga tilga oid so'z va iboralar qo'llanilishi kuzatiladi. Tilning lug'at tarkibiga kiritilmagan, faqatgina og'zaki nutqda mavjud bo'lgan bunday chet so'zlaridan badiiy nutqda voqealar bo'lib o'tayotgan o'ringa ishora qilish, nutqiy vaziyat va unda ishtirok etayotganlarning milliy mansubligi, qahramonlar xarakteri haqida ma'lumot berish maqsadida foydalaniladi. Bunday birliklar **varvarizmlar** deb yuritiladi.

Tilshunoslikda **vulgarizmlar** deb ataluvchi haqorat so'zlarida o'ta salbiy munosabat, kamsitish, mensimaslik, haqorat kabi bir qator ifoda semalari juda ochiq ko'rinib turgan bo'ladi. Bunday so'zlar ko'proq nominativ ma'nolariga ko'ra emas, ayni shu konnotativ ma'nolariga ko'ra nutqda yashaydi. Haqorat so'zlari badiiy asarlarda asosan, qahramonlar nutqida ishlatiladi. Lisoniy tahlil jarayonida badiiy asarga olib kirilgan vulgarizmlarni kimning (jinsi, ijtimoiy tabaqasi, mavqei, yoshi kabilar) nutqida ishlatilayotganligiga qarab guruhlash, qanday vaziyatlarda va nima sababdan qo'llanilayotganligini hamda ularning leksik-semantik tarkibi, shevaga xoslanganligi kabilarni aniqlash lozim bo'ladi.

Barqaror birikmalar. «Ikki va undan ortiq so'zlarning o'zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan til birliklari barqaror birikmalar deyiladi. **Iboralar**, **maqol-matalar** va **hikmatli so'zlar** barqaror birikmalar hisoblanadi.

Iboralar. Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko'zi o'ngida aniq va to'la gavdalanirishda frazeologik iboralarning o'rni, ahamiyati beqiyosdir. Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakat-hoлатlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalardir. Yozuvchilar, odatda, tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlab qo'llash bilangina kifoyalanib qolmaydilar. Balki, qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot tarziga moslab o'zgartiradi va qayta ishlaydi. Shu tarzda xalq iboralari sayqallanib, yangi ma'no nozikliklari bilan to'yinib boradi. Xalq iboralarni qayta ishlashning usullari, ularga yangicha rang va tus, yangicha ma'no talqini berishning yo'llari juda xilma-xildir. Bunga «umumtil iborasi zamiridagi ma'noning yangicha talqinini ochish, iboraning leksik tarkibini o'zgartirish va uning semantik-stilistik funksiyalarini kengaytirish, iboraga yangicha majoziy va obrazli ma'nolar kiritish kabi usullarni kiritish mumkin. Frazeologik iboralarni qayta ishlashning turli usullari B.Yo'ldoshev tomonidan keng o'rganilgan.

Badiiy asarda qo'llanilgan iboralarni o'rganishda bir asar doirasidagi frazemalar miqdorini (fondini) aniqlash va xarakterli xususiyatlariga qarab tasniflash, ularni struktural-semantik jihatdan tavsiflash hamda matndagi vazifasini tekshirish lingvopoetik tahlil talablaridan hisoblanadi. Ana shunday tahlilda yozuvchining imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan til birliklaridan foydalanish mahorati ham namoyon bo'ladi.

Maqol – matal va hikmatli so'zlar. Maqollar – grammatik jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi, kichik, ixcham, o'tkir mazmunli, ko'chma ma'noda yoki ham ko'chma ma'noda, ham o'z ma'nosida qo'llanadigan hikmatli xalq iboralardir. Maqollarda fikrni lo'nda va tiniq ifodalash imkoniyatining mavjudligi nutqning ta'sirchanligini ta'minlashda juda qo'l keladi. Badiiy asarning xalqchilligini, haqqoniyligini ta'minlashda ham maqollarga murojaat qilinadi. Qahramonlar nutqini boyitish, emotsional-ekspressivlikka erishish maqsadida ham maqollardan keng foydalaniladi. Hikmatli so'zlar ma'lum shaxslar tomonidan aytilgan yoki asarlarida ishlatilgan ixcham, ma'nodor, ishlatishga qulay va quyma fikrlardir. Nutqqa tayyor holda olib kirish imkoniyatiga ega bo'lgan bunday so'zlar aforizmlar ham deyiladi. Tilshunoslikda maqol-matal va hikmatli so'zlar «paremalar» deb ham yuritiladi. O'zbek tilida maqol-matal

hamda aforizmlarga bag'ishlangan ko'plab lug'atlar mavjud. Badiiy asarni lisoniy jihatdan tahlil qilishda bunday lug'atlardan unumli foydalanish zarur.

Agnonimlar. Agnonim atamasi yunon tilidan olingan bo'lib, *bilinmagan, tushunarsiz, noma'lum nom* degan ma'noni bildiradi. Muayyan tilda muloqot qiluvchilar uchun o'sha tildagi noma'lum, notanish, tushunarsiz yoki kam tushunarli bo'lgan so'zlar agnonimlar degan nom bilan umumlashtiriladi. Agnonimlar lingvosentrik emas, balki antroposentrik hodisa hisoblanadi. Ya'ni, buni tildan foydalanuvchining lisoniy layoqati bilan bog'liq hodisa deb qabul qilish mumkin.

Badiiy adabiyotda agnonimlar alohida estetik vazifa bajaradi. Agnonimlarning badiiy matnda uslubiy maqsad bilan qo'llanilish hodisasini agnomaziya deb atash mumkin. Agnomaziya yuklanadigan vazifalar sirasiga qahramonlar dunyoqarashini aks ettirish, ularning nutqini individuallashtirish hamda illustrativ funktsiya bajarish kabilarni kiritish mumkin. Quyidagi parshada ostiga chizilgan agnomik birliklar, asosan, farmasevtika bo'yicha mutaxassis nutqida (domlaning ma'ruzasida) qo'llanilgan bo'lib, illustrativ xarakter kasb etadi. Kitobxon uchun bu so'zlarning anglanishi u darajada muhim emas. Faqatgina qahramonning faoliyat o'rni haqida ma'lumotga ega bo'ladilar, xolos.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Ma'nodosh, shakldosh hamda zid ma'noli so'zlar badiiy matnda qanday maqsadlarda qo'llaniladi?
2. Neologizm, istorizm va arxaizmlar badiiy matnda qanday maqsadlarda qo'llaniladi?
3. Dialektizm, vulgarizm va varvarizmlar badiiy matnda qanday maqsadlarda qo'llaniladi?
4. Paremalar deb nimaga aytiladi?
5. Agnonim va agnomaziya deb nimaga aytiladi?

Adabiyotlar

1. Boymirzaeva S. Matn mazmunida temperollik semantikasi. -Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2009.

2. Yoʻldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. -T., 2007.
3. Yoʻldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. T.: "Fan", 2008.
4. Yoʻldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. T., Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
5. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. – T.: 1989.
6. Abdupattoyev M.T. Oʻzbek matnida supersintaktik butunliklar. Filol.fan.nom. ...diss.avto-ref. – T., 1998.
9. Asqarova M., Qosimova M., Jamolxonov H. Oʻzbek tili.–Toshkent: "Oʻqituvchi", 1989. –B.29.
10. Shoabdurahmonov Sh. va b. Hozirgi oʻzbek tili. 1-qism.–Toshkent: "Oʻqituvchi", 1980. –B.144.
11. Yoʻldoshev B. Frazologik uslubiyat asoslari.–Samarqand, 1999.
12. Berdiyev X., Rasulov R. Oʻzbek tilining paremiologik lugʻati.–Toshkent: "Oʻqituvchi", 1984.
13. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Maʼnolar maxzani.–Toshkent: Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2001;
14. Oʻzbek xalq maqollari.-Toshkent: "Sharq" NMAK Bosh tahririyati. 2003.
15. Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi oʻzbek adabiy tili (AL 2-bosqich talabalari uchun darslik)–Toshkent: "Sharq" NMAK Bosh tahririyati, 2002.–B.10.
16. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati.–Toshkent: Gʻ.Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1976.–B.64.
17. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M.va boshq. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – T.: "FTM", 2009.
18. Hojiahmedov A. Sheʼr sanʼatini bilasizmi?–Toshkent, «Sharq» NMAK Bosh tahririyati, 1999.
19. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati.–Toshkent, «OʻMZ», 2002.

BADIY MATNDA KOʻCHIMLAR

Tayanch tushunchalar: *metafora, metonimiya, sinekdoha, kinoya, perifraz, mubolagʻa, grotesk, kichraytirish*

Koʻchimlar deyilganda «adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini,

belgisini ikkinchisiga ko‘chirish yoki so‘zlarning umuman ko‘chma ma‘noda ishlatilishi» nazarda tutiladi. So‘z ma‘nosining ko‘chish jarayonlari turli ko‘rinishlarda voqe bo‘ladi, bu jarayonlar va ularning natijalari sifatida yuzaga keladigan hodisalar, bu hodisalarning turlari, o‘ziga xos xususiyatlari kabi masalalar o‘zbek tilshunosligida ancha batafsil o‘rganilgan. Ko‘chimlar deyarli ko‘pchilik adabiyotlarda «troplar» atamasi ostida o‘rganilgan. «Badiiy tekstning lingvistik tahlili» qo‘llanmasida ko‘chimlar quyidagicha tasnif qilingan: «1. So‘z ma‘nosining miqdoriy ko‘chishiga asoslangan troplar: a) giperbola; b) meyozis. 2. So‘z ma‘nosining sifatiy ko‘chishiga asoslangan troplar: a) metafora; b) metonimiya; v) ironiya». Qolgan tasviriy vositalar mazkur ko‘chimlarning ko‘rinishi sifatida beriladi: «simvol, jonlantirish, epitet, apastrofa – metaforaning; perifraza, sinekdoxa, allegoriya, epitet – metonimiyaning; antifraza, sarkazm – ironiyaning; litota – meyozisning ko‘rinishlaridir».

Metafora. Narsa-buyum, voqea va hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro o‘xshashlikka asoslangan ma‘no ko‘chishiga metafora deyiladi. Metafora ko‘chma ma‘no hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri bo‘lib, mumtoz adabiyotshunosligimizda «istiora» deb yuritilgan. Metaforaning ikki turini farqlash lozim: lingvistik metafora va xususiy-muallif metaforalari. Lingvistik metaforalar til taraqqiyoti bilan bog‘liq hodisa hisoblanadi. Bunday metaforalar asosan, atash, nomlash vazifasini bajarganligi uchun ularda uslubiy bo‘yoq, eksenpressivlik, binobarin, ular ifodalagan nutq predmetiga nisbatan subyektiv munosabat aks etmaydi. Faqatgina ma‘lum bir so‘zning ma‘no doirasi kengayadi hamda yangi tushunchalarni atash uchun xizmat qiladi. Masalan: *odamning oyog‘i – stolning oyog‘i, odamning ko‘zi – uzukning ko‘zi, ko‘ylakning etagi – tog‘ning etagi* kabi. Xususiy-muallif metaforalari esa yozuvchining estetik maqsadi, ya‘ni borliqni subyektiv munosabatini qo‘shib ifodalagan holda nomlashi asosida yuzaga keladi. Ular uslubiy jihatdan bo‘yoqdorlikka va voqelikni obrazli tasvirlash xususiyatiga ega bo‘ladi. Shuning uchun ham badiiy matnda qahramonning his-tuyg‘ularini ta’sirchan, yorqin bo‘yoqlarda, aniq va ixcham ifodalashga xizmat qiladi. Xususiy-muallif metaforalarida hamisha konnotativ ma‘no mavjud bo‘ladi. Metafora orqali ma‘no ko‘chishida konnotativ ma‘no yorqinroq aks etadi. Masalan, ot, eshak, qo‘y, it, bo‘ri, tulki, yo‘lbars, boyo‘g‘li, musicha, burgut, lochin, qaldirg‘och, bulbul kabi hayvon va

qushlarning nomlari bo'lgan leksemalar mavjudki, bu so'zlar o'z ma'nosidan tashqari, ko'chma ma'noda juda keng qo'llanadi. Metafora bilan o'xshatish konstruktsiyaning o'zaro farqi haqida tilshunoslarimiz o'zlarining fikrlarini aytib o'tishgan. Ularda asosan quyidagi farqlar sanab o'tiladi: 1. O'xshatishda so'zlar o'z ma'nosi bilan ishtirok etadi. Metaforada so'zlar doimo ko'chma ma'noda bo'ladi. 2. O'xshatishda ikki komponent - o'xshatiluvchi obyekt va o'xshovchi obraz qiyoslanadi. Metafora esa bir komponentli bo'ladi. 3. O'xshatishlarda kengayish imkoniyati ko'p, bir gap hatto abzas darajasida kengayishi mumkin. Metaforalar esa so'z yoki so'z birikmasidan iborat bo'ladi. 4. O'xshatishda maxsus ko'rsatkichlar bo'ladi: *-dek, -day, -simon, -larsha, kabi, singari, o'xshamoq* va boshqalar. Metaforalarda bunday ko'rsatkichlar bo'lmaydi. Buni quyidagi misoldan ham ko'rish mumkin: *Karim tulkiday ayyor odam*. O'xshatish konstruktsiya. Bunda *Karim* – o'xshatish subyekti, *tulki* – o'xshatish etaloni, *ayyor* – o'xshatish asosi, *-day* – o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi. Bu to'liq o'xshatish. *Karim – tulki*. Bu qisqargan o'xshatish, chunki gapda o'xshatish asosi (qaysi xususiyati o'xshashligi) va ko'rsatkichi ifodalanmagan.

Ayrim manbalarda metaforalarning mazmuniy jihatdan uch turi mavjudligi aytiladi: odatiy, jonlantirish va sinestetik metaforalar. Yuqorida ko'rib o'tilgan metaforalarning barchasi, asosan, odatiy metaforalardir. Jonlantirish badiiy nutqqa obrazlilik baxsh etuvchi muhim vositalardan biridir. «Badiiy san'atlar» kitobi mualliflari bu haqda shunday yozadilar: «Jonlantirish – istioraning bir ko'rinishi. Jonlantirish odamlarga xos bo'lgan xislatlarni jonsiz predmetlar, tabiat hodisalari, hayvonot, parranda, qush kabilarga ko'chirish orqali paydo bo'ladigan tasvir usulidir». «O'zbek tili stilistikasi»da ham «kishilarning harakatlari, his-tuyg'ulari, so'zlash va fikrlashlari jonsiz predmetlarga ko'chirilishi»ga jonlantirish deyilishi ta'kidlanadi. Mumtoz adabiyotimizda jonlantirishning ikki turi farqlangan: 1. Tashxis – shaxslashtirish, jonsiz narsalarni insonlarday qilib tasvirlash. She'riyatda jonlantirishdan voqelikni obrazli tasvirlash maqsadida foydalaniladi. Tasvir obyektiga kitobxonni yaqinlashtirish, voqelikning anglanishini osonlantirish va quruq-rangsiz ifodadan qochish uchun ham mazkur usulga murojaat qilinadi.

Yoxud jonsiz narsaga insonga murojaat qilgandek munosabatda bo'lish ham jonlantirishning bir ko'rinishi hisoblanadi.

Adabiyotshunoslikda bu hodisa apastrofa deb yuritiladi. Bunda narsa – buyum jonlantirilmaydi, faqat jonli deb tasavvur qilinadi. Bu usuldan qahramonning hech kimga aytoilmagan ichki dardlarini, sirlarini oshkor qilishda foydalaniladi.

2. Intoq – nutq sohibi sifatida tasvirlash, insonlardek gapirtirish demak. Intoq bolalarga atalgan she'r va hikoyalarda, ertak va masallarda ko'p qo'llaniladi. Intoq san'atidan masallarda alohida maqsad bilan foydalaniladi. Insonlarga xos ba'zi qusurlar, kamchiliklar narsa-buyumlar misolida obrazli qilib ko'rsatib beriladi. Yevropa adabiyotshunoslik ilmida **allegoriya** deb ataladigan ko'chim ham «gapirtirish» usuliga asoslanadi. Intoq-jonlantirishda narsa va buyumlar, hayvonlar insonlardek gapiradi. Allegorik-jonlantirishda hayvon va jonivorlar insonlar kabi harakat qiladi, ular kabi gapiradi. O'quvchi esa asosiy e'tiborini shu hayvonlar orqali tasvirlanayotgan inson obraziga qaratadi. Demak, allegoriyada obrazlar sistemasi ikki qator hisoblanadi, ya'ni asarda tasvirlanayotgan hayvonlar obrazlari qatori va ular orqali shu xarakterdagi kishilar qatori.

Sinestetik metaforalarda bir sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa-tushuncha boshqa sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa-tushunchaga o'xshatiladi, yaqinlashtiriladi va shu asosda ko'chma ma'no yuzaga keladi. Masalan: *Shirin tabassum, shirin gap, shirin uy; yengil tabassum, yengil nigoh, yengil qadam, og'ir tush, og'ir gap, og'ir masala* kabi. Bu misollarda keltirilgan shirin, yengil, og'ir sifatlarida sinestetik metafora sodir bo'lgan. Maza-ta'm ma'nosini bildiruvchi «shirin» va o'Ichovni ifodalovchi «yengil» so'zlari «yoqimli» ma'nosida, «og'ir» so'zi esa «yoqimsiz» ma'nosida kelgan.

Metonimiya deb voqea-hodisa, narsa-buyumlar o'rtasidagi o'zaro yaqinlik va bog'liqlik asosida ma'no ko'shishiga aytiladi. Metonimiya ham qiyosga asoslanadi. Faqat «metaforada bir-biriga o'xshash predmetlarning belgilari qiyoslansa, metonimiyada bu ikki predmet tashqi ko'rinishi yoki ichki xususiyatlari bilan bir-biriga qandaydir aloqasi bo'lsa ham, ammo, umuman bir-biridan farq qiluvchi (bir-biriga o'xshamagan) predmetlarning belgilari chog'ishtiriladi». Metonimiyaning turli ko'rinishlari mavjud va bu haqda tilshunoslikka oid adabiyotlardan atroflicha ma'lumot olish mumkin.

Sinekdoxa deb butun bo'lak munosabatiga asoslanuvchi ma'no ko'chishiga aytiladi. Adabiyotlarda «ko'plik o'rni»da birlik yoxud

birlik o'rnida ko'plik shakllarini qo'llash yo'li bilan ham sinekdoxalar yaratish mumkin»ligi aytilgan. *Daraxtlar sarg'aydi, olma gulladi, qo'limni kesib oldim* birikmalarida butunning nomi bilan bo'lak; *har ishga burnini suqmoq, tirnoqqa zor, jamoaning qo'li baland keldi* kabi birikmalarda qismning nomi bilan butun ifodalanyapti. Badiiy nutqda sinekdoxadan ixchamlilik va ifodalilikni ta'minlash maqsadida foydalaniladi.

Kinoya deb «til birligini uning haqiqiy ma'nosiga qarama-qarshi ma'noda, kesatiq, qochirim, piching bilan ishlatishdan iborat ko'chim»ga aytiladi. Kinoya qadimdan adabiyotimizda ta'sirchan ifodalar yaratishda qo'llanilib kelingan. Yevropa adabiyotshunosligida bu hodisa «**ironiya**» atamasi ostida umumlashtiriladi. Uning **antifraza** (masxara, u yoki bu ijobiy xususiyatni kulgi, kalaka yo'li bilan inkor qilish) hamda **sarkazm** (zaharxanda ta'na, istehzoli piching, shama) deb ataluvchi ko'rinishlari farqlanadi. Mohir so'z ustasi, xalqimizning ardoqli adibi Abdulla Qahhor asarlarida kinoyaning nodir namunalarini uchratish mumkin. **Perifraz** deb ataluvchi tasviriy ifodalar ham badiiy nutqning emotsional-ekspressivligini ta'minlovchi uslubiy vositalardan hisoblanadi. Perifraz deb «narsa, hodisani o'z nomi bilan emas, ularni xarakterli belgi – xususiyatlari asosida tasviriy usul bilan ifodalash»ga aytiladi. Shuni unutmash kerakki, har qanday narsa – hodisa nomini boshqa ibora bilan atayverish kutilgan effektini bermaydi. Atalayotgan hodisa bilan yangi nom-ibora o'rtasida mazmuniy yaqinlik bo'lishi lozim. Masalan, *uchuvchilar – samo lochinlari, akula – suv osti hukmdori, sher – hayvonlar sultoni, Samarqand – Sharq darvozasi, teatr – ma'naviyat o'chog'i, yoshlik – sevgi fasli* kabi.

Mubolag'a, grotesk va kichraytirish. Narsalarni, voqea va hodisalarni, his-tuyg'ularni, belgi-xususiyatlarni o'ta bo'rttirib tasvirlashga mubolag'a (yoki **giperbola**) deyiladi. Mubolag'a ham tasvirning ta'sirchan chiqishiga, obrazli ifodalanishiga xizmat qiladi. «Mubolag'aning so'z ma'nosining ko'chishiga asoslanishi uning troplar guruhiga mansubligini ko'rsatsa ham, u tropning boshqa ko'rinishlaridan farq qiladi. Chunki tropning boshqa ko'rinishlarida ko'chma ma'no ma'lum bir belgi asosida o'xshatish, taqqoslash, voqea-hodisa yoki predmetlar o'rtasidagi bog'liqlikka ko'ra bo'lsa, mubolag'a esa to'g'ri ma'noda tushunmaslikni talab etadi». Mubolag'aga asoslangan ko'chim badiiy matnga nutq predmetiga

nisbatan tinglovchi yoki kitobxon e'tiborini tortish va nutqning emotsional-ekspresivligini ta'minlash maqsadi bilan olib kiriladi. Mubolag'ada ifodalanayotgan axborot tabiiyki, hayot haqiqatiga mos kelmaydi. Lekin me'yor buzilsa kutilgan effektga erishilmasligi ham mumkin. Aslida «mubolag'ali nutqning asosiy maqsadi axborot berish emas, balki, tinglovchi yoki o'quvchiga ta'sir qilishdir»

Mubolag'a yo'li bilan komik effekt yaratishning yana bir usuli grotesk deb ataladi. «Grotesk fransuzcha so'z bo'lib, *kulgili, g'ayri tabiiy* degan ma'nolarni bildiradi. Grotesk satirada haqiqiy holni fantaziya bilan qo'shib vahimali hamda kulgili tarzda bo'rttirib tasvirlashdir. Grotesk haqiqatni inkor etmaydi, balki haqiqatni haqiqatsimon g'ayri tabiiy shakllarda yana-da ta'sirliroq ifodalash san'atidir. Abdulla Qahhorning ko'pgina feletonlarida turmushda uchrab turadigan salbiy holatlar, ijtimoiy va ma'naviy illatlar grotesk usulida oshkor qilinadi.

Kichraytirish (litota) deganda mubolag'aning aksi tushuniladi. «Lekin mohiyat e'tibori bilan ular qarama-qarshi hodisalar emas, har ikkisi ham voqelikni haddan tashqari kuchaytirib tasvirlashga xizmat qiladi, faqat ularning ifodalanish usulida farq bor: giperbolada voqelik to'g'ridan – to'g'ri, bevosita bo'rttirib ko'rsatilsa, litotada biror voqelikni kichraytirish vositasida beriladi». - *Tilimni qichitma, jo'jaxo'roz! Aytmadimmi, kuzda qiyqillab stolning tagiga kirib ketasan, deb... Eh-e, sening xo'roz bo'lishingga hali o'n to'rt prosent bor* (A.Qahhor). Bunda qarshidagi insonni «jo'jaxo'roz» deb kichraytirish orqali o'zining kuchli ekanligi ta'kidlanayapti.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Badiiy matnda metafora qanday maqsadlarda qo'llaniladi?
2. Badiiy matnda metonimiyadan qanday maqsadlarda foydalaniladi?
3. Badiiy matnda sinekdoha qanday maqsadlarda ishlatiladi?
4. Kinoyadan badiiy matnda qanday maqsadlarda foydalaniladi?
5. Perifrazdan badiiy matnda qanday maqsadlarda foydalaniladi?
6. Mubolag'adan badiiy matnda qanday maqsadlarda foydalaniladi?
7. Badiiy matnda groteskdan qanday maqsadlarda foydalaniladi?
8. Kichraytirishdan badiiy matnda qanday maqsadlarda foydalaniladi?

Adabiyotlar

1. Boymirzaeva S. Matn mazmunida temperollik semantikasi. -Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2009.
2. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. -T., 2007.
3. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. -T.: "Fan", 2008.
4. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. -T., Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
5. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. - T., 1989.
6. Rasulov I. Murakkab sintaktik butunlik. O'zbek tili va adabiyoti. 1983, №1.
7. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - T.: "FTM", 2009.
8. Shomaqsudov A., Rasulov I. va boshq. O'zbek tili stilistikasi. - T.: "O'qituvchi", 1983.
9. Abdupattoev M.T. O'zbek matnida supersintaktik butunliklar. Filol. fan.nom. ...diss.avtoref. - T., 1998.
10. Mirtojiev M. Lingvistik metaforalar tasnifi//O`TA, 1973, №4.- B.34-37.
11. Tog'ayev O. Publisistika janrlari.-Toshkent: "O'qituvchi", 1976.- B.155.

BADIIY MATNNING MORFEMIK- MORFOLOGIK TAHLILI

Tayanch tushunchalar: *morfologik parallelizm, affiksial sinonimiya, affiksial omonimiya, affiksial antonimiya, antroponim, antonomasiya*

Morfologik birliklarning estetik vazifasi deganda «maxsus so'z formalari vositasida, shuningdek ma'lum bir grammatik ma'no va funksiyaga ega bo'lgan so'z formasini maxsus qo'llash orqali ekspressivlik – emotsionallik ifodalanishi tushuniladi. Ekspressivlik ijobiy va salbiy ma'no qirrasiga ega bo'lgan so'zlarda aniq ko'rinib turadi. Badiiy matn lisoniy jihatdan tekshirilganda dastavval ana shunday ma'no qirralariga ega bo'lgan birliklarni ajratish va qaysi turkumga xosligi, kimning nutqida, nima maqsad bilan qo'llanilganligi, kimga nisbatan, qanday vaziyatda ishlatilganligiga e'tiborni qaratish lozim bo'ladi. Odatda, erkalash – suyish, hurmat –

e'zozlash, ko'tarinkilik, ulug'vorlik, tantanavorlik kabi ma'nolarni bildiruvchi so'zlar ijobiy ma'no qirrasiga ega bo'lgan so'zlar hisoblanadi. Salbiy ma'no qirrasiga ega bo'lgan so'zlar sirasiga jirkanish, manmanlik, mensimaslik, kibrilik, masxara, nafrat, g'azab, kinoya, kesatq kabi subyektiv munosabatni ifodalovchi so'zlar kiradi. Bunday ma'nolarni yuzaga keltiruvchi omillarni aniqlash va baholash lisoniy tahlilning asosini tashkil qiladi. O'zbek tilida kichraytirish shakli *-cha, -choq, -chak* qo'shimchalari bilan; erkalash shakli *-jon, -xon, -oy, - (a)loq* affikslari yordamida hosil qilinadi. Hurmat, mensimaslik, istehzo, umumlashtirish, tur-jinsga ajratish kabi ma'nolar *-lar* affiksi bilan hosil qilinadi. *-gina* qo'shimchasi chegara, erkalash, yaqinlik ma'nolarini yuzaga chiqaradi. Tahlil jarayonida matnda qo'llanilgan barcha morfologik birliklar emas, estetik maqsad aniq ko'rinib turadigan, yozuvchining badiiy niyati ifodalangan morfologik o'zgachaliklar haqida so'z yuritiladi. Masalan, eng ko'p ishlatiladigan badiiy tasvir vositalaridan biri takroridir. Morfologik birliklarning takrorlanishidan yuzaga keladigan uslubiy vosita – morfologik parallelizmning qo'llanilish maqsadi lisoniy jihatdan tadqiq etilishi mumkin. Morfologik parallelizm deb «nutq parchasida mustaqil leksik ma'noga ega bo'lmagan so'zlar, grammatik vositalarning qayta qo'llanilish usuliga aytiladi. Bu o'rinda bir sintaktik qurilma doirasida parallel qo'llanuvchi yordamchi so'zlar, forma yasovchi qo'shimchalarning aynan takrorlanishi nazarda tutiladi. Morfologik birliklarning alohida estetik maqsad bilan she'riy nutqda parallel ravishda qo'llanilishi ko'p kuzatiladi.

Nasriy matnda morfologik (sintaktik) parallelizm ertaklarning boshlanmasida ko'p kuzatiladi. Badiiy asarda qo'llanilgan morfologik parallelizm yoki har qanday tasviriy-ifodaviy vositani qayd etish yoki mavjudligini ta'kidlashning o'zi yetarli bo'lmaydi. Asl maqsad shu tarzda tasviriy vositalar yoki badiiy san'atlar yozuvchi aytmoqchi bo'lgan fikrni qay darajada ravon, qulay, jozibador yoxud san'atkorona ifodalashiga xizmat qilganini aniqlashga qaratilishi lozim. Aks holda, bu jo'n va zerikarli mashg'ulotga aylanadi.

Badiiy tasvir vositalari o'z nomi bilan badiiyatga xizmat qiluvchi vositalardir. Ular biz uchun qidirib topilishi shart bo'lgan narsa yoki asosiy maqsad emas.

Ot so'z turkumining ko'plik, egalik, kelishik kategoriyalari va subyektiv baho shakllarining poetik imkoniyatlarini tahlilga tortish

ham lingvopoetikaning muhim masalalaridan hisoblanadi. Tegishli adabiyotlarda mazkur qo‘shimchaning hurmat, kinoya, piching, noaniqlik, kuchaytirish, takrorlash, ta’kidlash kabi ma’nolarni ifodalashda ishlatilishi aniq misollar bilan asoslab berilgan. Ko‘plik shakli qo‘shimchasining qahramonlar ruhiyatidagi turfa tovlanishlarni tugal aks ettirish imkoniyati boshqa qo‘shimchalarga qaraganda aniq ko‘zga tashlanib turadi.

Egalik shakli ham sof egalik, qarashlilik ma’nosidan tashqari erkalatish, koyish, nolish, tinchlantirish, achinish, kinoya, kesatiq, faxrlanish, kibr, kamtarlik kabi modal ma’nolarni ifodalashga xizmat qilishi mumkin. Ushbu misolda egalik shakli orqali qahramonning ma’naviy dunyosi ochib beriladi. Yozuvchi jirkansh ishlaridan faxrlanish va qarshisidagi insonga nisbatan kibr, manmanlik yoki tahqirlash ohangida muomala qilishga odatlangan qahramon qiyofasini benihoya aniq aks ettira olgan. Shuningdek, atoqli otlar (antroponimlar)ning muayyan maqsad bilan qo‘llanishiga aloqador kuzatishlar olib borish mumkin. Chunki badiiy asarda qo‘llanilgan ayrim ismlar yozuvchining badiiy - estetik niyatini aniqlashga yordam beradi. Atoqli otlarning ana shunday vazifalarda qo‘llanishi bilan bog‘liq hodisa ayrim adabiyotlarda antonomasiya degan nom ostida umumlashtiriladi. O‘zbek adabiyotida personaj xarakter – xususiyatini ochib beruvchi, tagma’noli kulgi yaratuvchi ismlar Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Said Ahmad va boshqa yozuvchilarning hajviy asarlarida juda ko‘p uchraydi. Mahoratli yozuvchilarimiz qahramonning hayoti, taqdiri va ruhiyati bilan uning ismi o‘rtasida mushtaraklik o‘rnatish orqali betakror obrazlar yaratishga harakat qiladilar. Bu, albatta, yozuvchining lisoniy mahorati hisoblanadi va bunday holatlarni tadqiq etish orqali yozuvchining poetik olamiga kirib borish mumkin.

«Sifat so‘z turkumi poetik vosita sifatida ham katta ahamiyatga ega. U badiiy adabiyot tilida eng ko‘p uchraydigan epitelar hosil qilishda qo‘llaniladi». Shuningdek, sifat so‘z turkumidagi sinonimiya, sifat darajasini hosil qiluvchi shakllar hamda sifat yasovchi qo‘shimchalar orqali ham badiiy-estetik effekt hosil qilinadi. Sonlar, aslida, gapdagi muayyan miqdorga aniqlik kiritish uchun ishlatiladi. Lekin, mavhumlik yoki me’yordan ortiqlik ma’nolarini urg‘ulash uchun qo‘llanilganligini ham kuzatishimiz mumkin.

Badiiy matnning ekspressivligini ta'minlashda olmoshlarning himm alohida o'zni bor. Olmoshlar bir so'zning takrorlanishi bilan yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan g'alizlikning oldini oladi. Olmoshlarning takrorlanishi esa nutqqa o'ziga xos ohangdorlik bag'ishlash bilan birga matnni shakllantirishga xizmat qiladi.

Badiiy matnning lingvistik tahlili jarayonida fe'l turkumiga kiruvchi so'zlarga alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki, bu turkumdagi so'zlarning ekspressiv imkoniyatlari benihoya kengdir. Fe'lning mayl, shaxs-son, bo'lishli-bo'lishsizlik, nisbat, zamon hamda funksional shakllari asosida namoyon bo'luvchi o'ziga xosliklarni o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Badiiy matnda morfologik parallelizmdan qanday maqsadlarda foydalaniladi?
2. Affiksial sinonimiya va affiksial omonimiya deb nimaga aytiladi?
3. Affiksial antonimiya deb nimaga aytiladi?

Adabiyotlar

1. Boymirzaeva S. Matn mazmunida temperollik semantikasi. Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2009.
2. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T., 2007.
3. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. T.: "Fan", 2008.
4. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. T., Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
5. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. – T.:, 1989.
6. Rasulov I. Murakkab sintaktik butunlik. O'zbek tili va adabiyoti. 1983, №1.
7. Shomaqsudov A., Rasulov I. va boshq. O'zbek tili stilistikasi. – T., "O'qituvchi", 1983.
8. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: "FTM", 2009.
9. Abdupattoev M.T. O'zbek matnida supersintaktik butunliklar. Filol.fan.nom. ...diss.avtoref. – T., 1998.
10. Mamajonov A., Mahmudov U. Uslubiy vositalar. –Farg'ona, 1996.

BADIIY MATNNI SINTAKTIK TAHLIL QILISH

Tayanch tushunchalar: *sintaktik parallelizm, emotsional gap, ritorik so'roq gap, inversiya, ellipsis, sukut, gradatsiya, antiteza, farqlash, o'xshatish*

Badiiy nutqning ta'sirchanligini ta'minlashda sintaktik usuldan keng foydalaniladi. Ekspressivlikning namoyon bo'lish shakllarini teran tadqiq qilgan tilshunos Adham Abdullayev «sintaktik gradatsiya, sintaktik sinonimiya, bog'lovchilarning maxsus qo'llanishi, antiteza, monolog, sukut, inversiya, takroriy gaplar, ritorik so'roq» kabi uslubiy figuralar «fikrning o'ta ta'sirchan ifodalanishi»ga xizmat qilishini ta'kidlaydi. «Badiiy tekstning lingvistik tahlili» kitobi mualliflari sintaktik figuralarning quyidagi asosiy ko'rinishlari mavjudligini bayon qilishadi: «anafora, epifora, takror, antiteza, gradatsiya, ellipsis, alliteratsiya, ritorik so'roq kabilar. Bu uslubiy vositalar mavzuga aloqador bo'lgan deyarli barcha adabiyotlarda uchraydi. Biz quyidagi o'nta hodisaga to'xtalish bilan cheklanamiz: 1. Sintaktik parallelizm. 2. Emotsional gap. 3. Ritorik so'roq gap. 4. Inversiya. 5. Ellipsis. 6. Sukut. 7. Gradatsiya. 8. Antiteza. 9. Farqlash. 10. O'xshatish.

Sintaktik parallelizm. Badiiy matnda sintaktik jihatdan bir xil shakllangan gaplar ko'p qo'llaniladi. Tilshunoslikda bunday qurilmalar parallelizm atamasi ostida o'rganiladi. Parallelizm (yun. *parallelos-yonma-yon boruvchi*) yonma-yon gaplar, sintagmalarning bir xil sintaktik qurilishga ega bo'lishi. Parallel birliklarning asosiy vazifasi fikrga izoh berish va eng muhimi, unga tinglovchini to'la ishontira olishdan iborat. Ular til uslubiy vositalarining boyishi manbalaridan biri bo'lib, poetik nutqda ko'p qo'llanadigan, eng mahsuldor va ta'sirchan sintaktik birlik hisoblanadi. Bir xil shakllangan gaplar badiiy nutq ta'sirchanligini boyitish bilan birga ma'noni kuchaytirishga va fikrning batafsil - atroflicha ifodalanishiga, tasvir obyekti bilan bog'liq ma'lumotlar fondining kengayib borishiga xizmat qiladi.

Emotsional gaplar. So'zlovchining o'ta xursandlik yoki o'ta xafalik holatlarini yoki qahramonning his-hayajonini, voqea-hodisaga emotsional munosabatini ifodalovchi gaplar emotsional gaplar hisoblanadi. Emotsional gaplar tarkibida maxsus ijobiy va salbiy bo'yoqdor so'zlar (*chehra, o'ktam, tabassum / turq, qo'pol, tirjaymoq*

kabi) mavjud bo'ladi. O'sha so'zlar orqali qahramon ruhiyatida kechayotgan sevinish, qo'rquv, g'azab kabi psixologik jarayonlarni hamda yozuvchining tasvir obyektiga nisbatan subyektiv munosabatini bilib olamiz. Emotsional gaplar tarkibida ijobiy yoki salbiy bo'yoqdor so'z va iboralar, his-tuyg'u ifodalovchi undovlar (*oh, voy sho'rim, eh attang, bay-bay-bay* kabi), munosabat ifodalovchi undalmalar qatnashadi va ular nutqning ekspressivligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ritorik so'roq gaplar ham badiiy matnning emotsional-ekspressivligini ta'minlovchi uslubiy vositalardan biri hisoblanadi. Tasdiq va inkor mazmuniga ega bo'lgan, tinglovchidan javob talab qilmaydigan gaplar ritorik so'roq gap deyiladi. Ko'pincha ritorik so'roq gaplar tarkibida *nahotki, axir* kabi ta'kidni kuchaytiruvchi so'zlar keladi. Ular nutqqa ko'tarinki ruh bag'ishlaydi va tasdiqning kuchli emotsiya bilan ta'kidlanishi uchun xizmat qiladi. Bunday gap shakllari qahramonning hayratlanishini, quvonchini, ajablanishini, shubha va gumonsirashini, g'azab va nafratini ifodalashda juda qo'l keladi. Ichki va tashqi nutqda, monologik va dialogik nutqlarda keng qo'llaniladi.

Inversiya deb gap bo'laklarining o'rin almashinishi, yoki gap bo'laklari joylashish tartibining ma'lum bir maqsad bilan o'zgarishi hodisasiga aytiladi. Inversiya og'zaki nutqqa xos xususiyat. Badiiy matnda qahramonlar nutqini jonli nutqqa yaqinlashtirishda, ularning tilini individuallashtirishda mazkur usuldan foydalaniladi

She'riyatda esa ifodalilikni, ohangdorlikni va ta'sirchanlikni ta'minlovchi muhim vosita sifatida ko'p ishlatiladi:

Bozorga o'xshaydi asli bu dunyo,

Bozorga o'xshaydi bunda ham ma'ni.

Ikkisi ichra ham ko'rmadim aslo,

Molim yomon degan biror kimsani. (A.Oripov)

Ellipsis (yun. tushish, tushirilish) deb nutqiy aloqa jarayonida gap bo'laklarining muayyan maqsad bilan tushirilishi hodisasiga aytiladi. Bunday tushirilish tildagi lingvistik iqtisod - lisoniy tejankorlik tamoyili asosida amalga oshiriladi. Bu jonli nutq uchun tabiiy hol bo'lib, badiiy matnga ham huddi shu - jonli nutqqa xos tabiiylikni ta'minlash maqsadi bilan olib kirilgan. Badiiy matndagi ellipsis tekshirilganda, qaysi gap bo'lagi ellipsisiga uchraganligi va bundan qanday maqsad kuzatilganligi izohlanadi.

Ellipsisni maqollarda juda ko'p uchratamiz. So'zlarning tushirilishi natijasida maqol tabiatiga xos ixchamlilik va ifodalilik yuzaga keladi

Sukut (yoki *jim qolish*) deb, «so'z yoki so'zlar guruhining gap oxirida tushirib qoldirilishi»ga aytiladi. Adabiyotlarda sukut ellipsisning bir ko'rinishi sifatida talqin qilinadi. Bu usuldan badiiy matnda quyidagi maqsadlarda foydalanilganligini kuzatishimiz mumkin. Odatda, qahramonning sukuti (*jim qolishi*) ko'p nuqta bilan belgilanadi. Lekin, shuni unutmaslik kerakki, ko'p nuqta bilan tugallangan hamma gaplar ham sukutga misol bo'lavermaydi. Ba'zan muallifning o'zi qahramonning *jim qolishi* va uning sababini bayon qiladi. Bunday vaziyatda ekspressiv effekt sezilarsiz darajaga tushadi.

Gradatsiya (lot. *gradatio* – zinapoya, bosqichma-bosqich kuchaytirish) Nutq parchalaridan biri ikkinchisining ma'nosini kuchaytirib borishdan iborat uslubiy jarayon. Badiiy adabiyotda holatlarni, tuyg'u va kechinmalarni qiyoslashda, his-hayajonlar junbushini to'liq ifodalashda gradatsiya usulidan foydalaniladi. Adabiyotlarda gradatsiya xususiyatlariga ko'ra turlicha tasnif qilinadi: mohiyatiga ko'ra: ko'tariluvchi gradatsiya va pasayuvshi gradatsiya; ifoda usuliga ko'ra: mantiqiy, emotsional va miqdoriy gradatsiya; ifoda materialiga ko'ra: leksik gradatsiya va sintaktik gradatsiya.

Antiteza (*antithesis* – qarama-qarshi qo'yish, zidlash) deb mantiqiy jihatdan qiyoslanuvchi fikr, tushuncha, sezgi va timsollarni qarama-qarshi qo'yish, zidlash hodisasiga aytiladi. Voqea-hodisalar mohiyatidagi ziddiyatni ochish uchun asosan, badiiy nutqda zid ma'noli qo'shimchalar, zidlovchi bog'lovchilar, so'z va iboralardan foydalaniladi. Badiiy matnni lisoniy jihatdan tahlil qilishda zidlantirishdan yozuvchining ko'zda tutgan maqsadi nima ekanligini aniqlash talab qilinadi. Yozuvchining mahorati zidlantirilyotgan voqeliklar uchun tanlangan ifoda materialida yana-da aniq ko'rinadi. Masalan: *Noningni yo'qotsang yo'got, nomingni yo'gotma!* (O'.Hoshimov) Bu misolda bir-biriga aloqasi bo'lmagan ikkita tushuncha - *non* va *nom* zidlantirilyapti.

Adabiyot ilmida oksyumoron deb ataluvchi hodisada ham mantiqan biri ikkinchisini inkor etadigan, bir-biriga mazmunan zid bo'lgan ikki tushunchani ifodalovchi so'zlar o'zaro qo'shib qo'llaniladi.

Oksyumoron grekcha soʻz boʻlib, «oʻtkir lekin bemaʼni» degan maʼnoni bildiradi. Ular ayrim adabiyotlarda «okkazonal birikmalar», «noodatiy birikmalar» yoki «gʻayriodatiy birikmalar» deb ham yuritiladi. Bunday birikmalar individualligi, yangiligi, koʻnikilmaganligi va ohorliligi bilan tasvir ifodaliligini taʼminlaydi. Maʼlumki, istalagan ikki soʻzni biriktirish bilan oksyumoron yuzaga kelavermaydi. Bunday birikmalar yozuvchining badiiy tafakkur mahsuli hisoblanadi. Shuning uchun gʻayriodatiy birikmalarni mantiqsizlik bilan bogʻlash mumkin emas. Ularga estetik hodisa sifatida yondashish zarur. Oʻzaro bogʻlanmaydigan soʻzlarni bogʻlayotgan kuch nimada? Ularning birikib badiiy effekt berishi uchun qanday ifoda imkoniyati mavjud? Yozuvchini bunday «maromsiz» birikmalar yaratishga nima majbur qildi? kabi savollar bilan mazkur hodisa mohiyatiga kirib borish mumkin.

Farqlash deb ikki narsa – buyum, voqea – hodisa yoki holatlardagi differensial belgini aniqlashga aytiladi. Farqlash ham qiyos va chogʻishtirishga asoslanadi. Ifoda usuliga koʻra antitezaga yaqin, lekin antitezada mantiqiy jihatdan qarama-qarshi boʻlgan ikki qutb qiyoslanadi. Bunda biri ikkinchisini rad etadi yoki inkor qiladi. Tasviriy vosita sifatidagi farqlashda belgilar qaysi xususiyatiga koʻra farq qilayotganligi aniqlanadi. Oʻxshatish ham qiyosga asoslanadi, biroq oʻxshatishda integral belgilar idrok qilinadi. Farqlashda qiyos asnosida oʻrtaga chiqadigan fundamental tafovutni aniqlash nazarda tutiladi. Oʻxshatishda boʻlgani kabi farqlashning ham ifoda unsurlarini quyidagicha tartiblash mumkin: 1. Farqlash subʼyekti. 2. Farqlash nisbati. 3. Farqlash asosi. 4. Farqlashni yuzaga keltiruvchi shakliy belgilar. 5. Farqlash natijasi. Farqlash natijasi yozuvchining badiiy niyatini aniqlashga olib keladi. Xoʻsh, yozuvchi nima maqsadda bunday taqqosni keltiradi? Mazkur ifodalarning badiiy asar mohiyati bilan qay darajada aloqadorligi bor? Bu kabi savollar asosida farqlashning beshinchi unsuriga javob izlanadi.

Badiiy asarlardagi bunday holatlarni tahlil qilish orqali yozuvchining murakkab konstruksiyali farqlash sillogizmini, qiyoslash, chogʻishtirish mantigʻini tasavvur etishimiz mumkin boʻladi.

Oʻxshatish deb «ikki narsa yoki voqea-hodisa oʻrtasidagi oʻxshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini toʻlaroq, konkretroq, boʻrttiribroq ifodalash»ga aytiladi.

O'xshatishlar eng qadimiy tasviriy vositalardan biri sifatida nutqimizni, ayniqsa, badiiy adabiyot tilini bezashda, tasvirning aniqligi va obrazlilikini ta'minlashda foydalanib kelinadi. Adabiyotlarda har qanday o'xshatish munosabati tilda ifodalanar ekan, albatta, to'rt unsur nazarda tutiladi, ya'ni: 1) o'xshatish subyekti; 2) o'xshatish etaloni; 3) o'xshatish asosi; 4) o'xshatishning shakliiy ko'rsatkichlari. M.Yoqubbekova o'zbek xalq qo'shiqlari lingvopoetikasiga bag'ishlangan monografiyasida o'xshatishning yana bir unsuri «o'xshatish maqsadi» ham mavjudligini ta'kidlagan. O'xshatish etaloni o'xshatish konstruksiyaning poetik qimmatini, estetik salmog'ini belgilaydi. O'xshatish etaloni qanchalik original bo'lsa, o'xshatishli qurilma ham shu darajada ohorli bo'ladi. Badiiy matndagi o'xshatishli qurilmalar tekshirilganda ularni an'anaviy va xususiy-muallif o'xshatishlari sifatida tasniflash kerak bo'ladi. **An'anaviy o'xshatishlar** og'zaki nutqda ko'p ishlatiladigan, shu sababdan ta'sirchanligini yo'qotgan o'xshatishlardir. Aslida ko'p takrorlanishi tufayli «siyqasi chiqqan» deb baholanadigan bunday qurilmalarni tasviriylik, obrazlilik maqsadiga xizmat qildirish yozuvchining mahoratiga bog'liq. **Xususiy-muallif o'xshatishlari** yozuvchining o'z nigohi, kuzatuvchanligi, badiiy taxayyuli, analogiya quvvati asosida xalq tilidan foydalangan holda yaratgan o'xshatishlaridir. Bunday o'xshatishlarda originallik, obrazlilik va ekspressivlik hamisha yorqin ifodalangan bo'ladi. Har qanday o'xshatishdan maqsad tasavvur qilinishi qiyin bo'lgan tushunchalarni konkretlashtirish, mavhum tushunchalarni aniqlashtirish, narsa-hodisa, harakat-holatlarining eng nozik jihatlarini kitobxon ko'zi o'ngida go'zal bo'yoqlarda gavdalantirishdan iborat bo'lmog'i lozim. Ta'kidlash lozimki, yozuvchi tasvirdagi holat, qahramon ruhiyati uchun favqulodda muvofiq o'xshatish etaloni tanlagan, ya'ni qahramon – ruhoni, sham – masjidniki, qahramon – g'arib, dardmand, sham – jaydari, arzonbaho, qahramon tunganmas dard bilan adoyi tamom bo'lib bormoqda, sham – yonib tugashning ham ramziy ifodachisi. Sap-sariq sifati bilan ifodalangan o'xshatish asosidagi belgi benihoya quyushib katta bir dard shaklini olgan.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Sintaktik parallelizm deb nimaga aytiladi?
2. Emotsional gap deb nimaga aytiladi?

3. Ritorik so‘roq gap deb nimaga aytiladi?
4. Inversiya deb nimaga aytiladi?
5. Ellipsis deb nimaga aytiladi?
6. Sukut deb nimaga aytiladi?
7. Gradatsiya deb nimaga aytiladi?
8. Antiteza deb nimaga aytiladi?
9. Farqlash deb nimaga aytiladi?
10. O‘xshatish deb nimaga aytiladi?

Adabiyotlar

1. Boymirzaeva S. Matn mazmunida temperollik semantikasi. Toshkent, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2009.
2. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoyetik tahlili asoslari. T., 2007.
3. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. T.: “Fan”, 2008.
4. Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. T., Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
5. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. – T., 1989.
6. Rasulov I. Murakkab sintaktik butunlik. O‘zbek tili va adabiyoti. 1983, №1.
7. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: “FTM”, 2009.
8. Qurbonova M. Hozirgi zamon o‘zbek tili: sodda gap sintaksisi uchun materiallar. –T.: “Universitet”, 2002.
9. Qurbonova M., Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. O‘zbek tilining struktural sintaksisi. – T.: “Universitet”, 2004.
10. Shomaqsudov A., Rasulov I. va boshq. O‘zbek tili stilistikasi. – T., “O‘qituvchi”, 1983.
11. Abdupattoev M.T. O‘zbek matnida supersintaktik butunliklar. Filol.fan.nom. ...diss.avtoref. – T., 1998.

III. AMALIY VA SEMINAR MASHG‘ULOTLARI UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN TAXMINIY MAVZULAR:

- “Matn tilshunosligi” kursining matnini lingvistik tahlil qilishga asoslanishi.
- Nutq madaniyati va matn.
- “Matn tilshunosligi” kursi va uslubiyat.
- “Matn tilshunosligi” kursi va adabiyotshunoslik.
- Matnning tushunishga harakat – lug‘atlar bilan ishlash.
- Matnning tahlil qilishda tarixiylik, shakl va mazmun birligi, umumiylik va xususiylik uyg‘unligiga e’tibor.
- Matnda milliylik va an’anaviylik tamoyillariga amal qilish.
- Matnning lingvistik tahlil qilishda til elementlarining ma’nosi, qo‘llanilishi, shakli, zamonaviyligi chegarasini belgilash orqali estetik jihatiga e’tibor berish.
- Matn tanlashga o‘rganish: matnning saralash. Uning maqsadga muvofiqligini sinab ko‘rishga o‘rgatish.
- Matnning ifodali o‘qish ko‘nikmasini shakllantirish.
- Biror matnning turli jihatlardan sharhlab berish.
- Matnning lingvistik tahlil qilish usullari. Matnning “qorong‘u joy”larini tushuntirish orqali sharhlab berish.
- Matnning to‘la va yarim sharhlab berish: maqsadga muvofiq o‘rinlarini sharhlab berish.
- Matnning “mikroskop ostida” sharhlab berish tushunchasi: fonetik, leksik, grammatik tahlil qilish.
- Badiiy matnning lingvistik sharhlab o‘qish va tahlil qilish. Badiiy matnning sidirg‘asiga tahlil qilish.
- Badiiy matnning, ularda badiiy tasvir vositalarining o‘rni jihatidan tahlil qilish.
- Badiiy matnning, ularda tasviriy vositalarning tanlanishiga ko‘ra tahlil qilish.
- Hujjatlar tili tahlili, boshqa matnlar tahlili, matndagi o‘z va o‘zlashgan so‘zlarning ishtirokini tahlil qilish.
- “O‘tgan kunlar” romanidagi Kumushbibi maktubi tahlili.
- Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasi tahlili.
- Abdulla Qahhor asarlari sarlavhalari tahlili.

- Alisher Navoiyning “Orazin yopqoch, ko‘zimdin sochilur har lahza yosh, Bo‘ylakim, paydo bo‘lur yulduz nihon bo‘lg‘och quyosh” shoh bayti tahlili.
- Erkin Vohidov she‘rlaridan namunalar olib, ularni tahlil qilish: qaro qoshing, qalam qoshing, qiyiq qayrilma qoshing qiz ...matni tahlili.
- Erkin Vohidovning “qay birisi qay biriga, oshiq erkan bilmadim, Gulmi yo Gulchehralarga, gulga yo Gulchehralar” baytini “mikroskop ostida” tahlil qilish.
- Matn va uning o‘ziga xos xususiyatlari.
- Matn va ichki bog‘lanishlar.
- Matn birliklari va ularga oid xususiyatlar.
- Matniy aloqalar, matn qismlarining bog‘lanishi.
- Matnda paradigmatic va sintagmatic munosabatlar talqini.
- Matnning uslubiy turlari.
- Badiiy matn (badiiy uslub) va uning ko‘rinishlari.
- Badiiy matnning keng qamrovliligi masalasi.
- Ilmiy matn va uslub munosabati.
- Rasmiy matn va uslub munosabati.
- Publitistik matn va uslub munosabati.
- Og‘zaki matn va uslub munosabati.
- O‘zbek tilining badiiy tasvir vositalari talqini.

Fan yuzasidan nazorat savollari

- Jahon tilshunosligida matn va uning lisoniy tabiatini o‘rganish
- O‘zbek tilshunosligida matnning o‘rganilishi
- Matn va uning o‘ziga xos xususiyatlari
- Matn va ichki bog‘lanishlar
- Matn birliklari va ularga oid xususiyatlar
- Matniy aloqalar, matn qismlarining bog‘lanishi.
- Matnda paradigmatic va sintagmatic munosabatlar
- Matnning uslubiy turlari
- Badiiy matn (badiiy uslub) va uning ko‘rinishlari
- Badiiy matnning keng qamrovliligi masalasi
- Ilmiy matn va uslub munosabati

- Rasmiy matn va uslub munosabati
- Publitsistik matn va uslub munosabati
- Ogʻzaki matn va uslub munosabati
- Oʻzbek tilining badiiy tasvir vositalari
- Oʻzbek tilshunosligida matnning oʻrganish qachon boshlangan?
- Matn pragmatikasi deganda nimani tushunasiz?
- Ogʻzaki matn dunyo tilshunosligida yana qanday nom bilan ataladi?
- Matnning uslubiy xoslovchi vositalari
- Matnning lingvistik tahlili nima?
- Oʻzbek tilshunosligida matnning tilshunosligi muammolari
- Rasmiy uslubga xos xususiyatlar
- Ilmiy uslubga xos xususiyatlar
- Badiiy uslubga xos xususiyatlar
- Publitsistik uslubga xos xususiyatlar
- Badiiy matn (badiiy uslub) va uning koʻrinishlari
- Rasmiy matn va uning koʻrinishlari
- Ilmiy matn va uning koʻrinishlari
- Publitsistik matn va uning koʻrinishlari
- Matnning fonetik tahlili
- Matnning leksik tahlili
- Matnning morfologik tahlili
- Matnning sintaktik tahlili
- Matnning lingvopoyetik tahlili
- Matn va uning tarkibiy qismlari
- Matn tarkibiy qismini bogʻlovchi vositalar
- Matn komponentlararo semantik va grammatik munosabatlar
- Supersintaktik butunlik nima?
- Hajm belgisiga koʻra matn turlari
- Ifoda maqsadi va mazmun belgisiga koʻra matn turlari
- Matn yaxlitligi va individualligi masalasi
- Badiiy matnning uslubiy xoslanishi
- Ilmiy matnning uslubiy xoslanishi
- Rasmiy matnning uslubiy xoslanishi
- Publitsistik matnning uslubiy xoslanishi
- Ogʻzaki matnning uslubiy xoslanishi
- Badiiy matnning gendrolingvistik tadqiqi muammolari

- Badiiy matnda personajlar nutqining gender xususiyatlari
- Badiiy matnda muallif nutqining gender xususiyatlari
- Badiiy matnda diologik nutq
- Badiiy matnda monologik nutq
- Badiiy matnda eskirgan leksikaning qoʻllanilishi
- Badiiy matnda dialektal leksikaning qoʻllanilishi
- Badiiy matnda atamalarning qoʻllanilishi
- Badiiy matnda vulgarizmlarning qoʻllanilishi
- Badiiy matnda evfimizmlarning qoʻllanilishi
- Badiiy matnda oʻzlashgan leksika
- Badiiy matnda koʻchimlar
- Badiiy matnda frazeologizmlar
- Badiiy matnda maqol va matallar
- Badiiy matnda metaforalar
- Badiiy matnda takror
- Badiiy matnda alleteratsiya

Fan yuzasidan tavsiya etiladigan mustaqil taʼlim uchun savollar.

Quyidagi masalalar asosida muayyan manba tahlilga tortiladi.

1. Matn va uning oʻziga xos xususiyatlari
2. Matn va ichki bogʻlanishlar
3. Matn birliklari va ularga oid xususiyatlar
4. Matniy aloqalar, matn qismlarining bogʻlanishi.
5. Matnda paradigmatic va sintagmatic munosabatlar talqini.
6. Matnning uslubiy turlari
7. Badiiy matn (badiiy uslub) va uning koʻrinishlari.
8. Badiiy matnning keng qamrovliligi masalasi.
9. Ilmiy matn va uslub munosabati
10. Rasmiy matn va uslub munosabati
11. Publitsistik matn va uslub munosabati
12. Ogʻzaki matn va uslub munosabati
13. Oʻzbek tilining badiiy tasvir vositalari
14. Oʻzbek tili rasmiy uslubining oʻziga xos xususiyatlari
15. Soʻzlashuv uslubining oʻziga xos xususiyatlari
16. Badiiy matnning uslubiy xoslanishi
17. Ilmiy matnning uslubiy xoslanishi

18. Rasmiy matnning uslubiy xoslanishi
19. Publitsistik matnning uslubiy xoslanishi
20. Og‘zaki matnning uslubiy xoslanishi
21. Badiiy matnning gendrolingvistik tadqiqi muammolari
22. Badiiy matnda personajlar nutqining gender xususiyatlari
23. Badiiy matnda muallif nutqining gender xususiyatlari
24. Badiiy matnda diologik nutq
25. Badiiy matnda monologik nutq
26. Badiiy matnda eskirgan leksikaning qo‘llanilishi
27. Badiiy matnda dialektal leksikaning qo‘llanilishi
28. Badiiy matnda atamalarning qo‘llanilishi
29. Badiiy matnda vulgarizmlarning qo‘llanilishi
30. Badiiy matnda evfimizmlarning qo‘llanilishi
31. Badiiy matnda o‘zlashgan leksika
32. Badiiy matnda ko‘chimlar
33. Badiiy matnda tasviriy vositalar
34. Badiiy matnda frazeologizmlar
35. Badiiy matnda maqol va matallar
36. Badiiy matnda metaforalar
37. Badiiy matnda takror
38. Badiiy matnda alleteratsiya
39. Badiiy matnda gradatsiya
40. Badiiy matnda she‘riy san’atlar

Fan yuzasidan test topshiriqlari

1. Matn tilshunosligi fanining o‘rganish obyekti nima?
 - a) matn va matn atrofidagi nazariy muammolar
 - b) matnning tarkibiy qismlari
 - c) matnning lingvistik tahlili
 - d) so‘z yasash qoliplari
2. Qaysi qatorda fonetik dialektizmlar bor?
 - a) Toshkaniyam olibdimi-a?
 - b) Televizorning ichida-da, ulim.
 - c) Obro‘y bor-da, obro‘y!
 - d) Farmon bibining uylari shumi?
3. M.Yo‘ldoshev matnini qaysi jihatdan tadqiq qilgan?
 - a) matn sintaksisini o‘rgangan
 - b) badiiy matnning lingvopoyetik tahlilini o‘rgangan

- c) matn derivatsiyasini o'rgangan
 d) matnning pragmatik jihatlarini tadqiq qilgan
4. Kogeziya nima?
 a) matn qismlari orasidagi bog'liqlik
 b) matn butunligini ta'minlash
 c) matnning asosiy mazmuni
 d) matnning asosiy g'oyasi
5. M.Hakimovning tadqiqotlari matnning qaysi jihatlarini qamrab oladi?
 a) pragmatik jihatlarini
 b) matn derivatsiyasini
 c) lingvopoyetik jihatlarini
 d) matndagi til va nutq birliklarining ierarxiyasini
6. Qaysi o'zbek tilshunosi matndagi til va nutq birliklarining pog'onali munosabatlarda tutgan o'rini aniqlash bilan shug'ullangan?
 a) A.Mamajonov
 b) M.Yo'ldoshev
 c) S.Boymirzayeva
 d) N.Turniyozov
7. *Qaro qoshing, qalam qoshing, qiyiq qayrilma qoshing qiz...* Matnda qanday san'at qo'llangan?
 a) amfiboliya
 b) alligoriya
 c) alliteratsiya
 d) mublag'a
8. Hajm belgisiga ko'ra matnning qanday turlari bor?
 a) makro va mikromatn
 b) badiiy va ilmiy matn
 c) qisqa va uzun matn
 d) badiiy va rasmiy
9. Mantiqiy jihatdan qiyoslanuvchi fikr, tushuncha, sezgi va timsollarni qarama-qarshi qo'yish, zidlash hodisasi nima deb nomlanadi?
 e) antiteza
 f) oksyumoron
 g) farqlash
 d) anafora
10. "Ayol kishi erkakka qo'l berib so'rashdimi, bas!... Ro'za tutgan kishi og'zini chayqasa, suv tomog'iga ketmasa hamki, ro'zasi ochiladi—shu og'iz chayqashdan bahra oladi-da! Abdulhamidning qiziga usta Mavlonning o'g'li bir hovuch mayiz berganini o'z ko'zim bilan ko'rganman. Hayo bormi shularda? Shariat yo'li – xo'p yo'l. O'n bir

yasharida paranji yopinmagan qizdan qo'lni yuvib qo'ltiqqa ura bering. Paranji hayoning pardasi-da!" . Berilgan parchada yozuvchi ko'chimning qaysi turidan foydalangan?

- h) sinekdoxa
- i) ironiya
- j) mubolag'a
- d) allegoriya

11. *Daraxtlar sarg'aydi, olma gulladi* kabi qurilmalarda ko'chimning qaysi turi bor?

- a) Kinoya
- b) metonimiya
- c) Sinekdoxa
- d) Metafora

12. O'zbek tilida matnning nazariy masalalarini o'rganish qachondan boshlangan?

- a) XX asrning boshidan
- b) XX asrning o'rtalaridan
- c) XX asrning oxirlaridan
- d) XXI asrning boshidan

13. O'zbek tilshunosligida ilk bor "matn" tushunchasiga batafsilroq to'xtalgan olim kim?

- a) G'.Abdurahmonov
- b) B.To'xliyev
- c) A.M.Hakimov
- d) Sh.Rahmatullayev

14. Matn kategoriyalarini kognitiv, pragmatik tahlillar asosida qaysi tilshunos o'rgangan?

- a) M.Hakimov
- b) M.Yo'ldoshev
- c) S.Bcymirzayeva
- d) A.Mamajonov

15. So'zlovchi va tinglovchiga oldindan ma'lum bo'lgan, matnda aniq ajratilmaydigan, har ikkala shaxsga ham ayon bo'lgan jihat nima?

- a) matnning analitik mazmuni
- b) matnning sintaktik mazmuni
- c) matnning pragmatik mazmuni
- d) presuppozitsiya

16. Supersintaktik birlikning hajmini qat'iy belgilab bo'ladimi?

- a) yo'q, uning qat'iy hajmi yo'q

b) ha, u bir abzasdan iborat bo'ladi

c) ha, u ikki-uch abzasdan iborat

d) abzasdan kichik bo'ladi

17. Frazеologik iboralarni qayta ishlashning turli usullari qaysi olim tomonidan keng o'rganilgan?

a) A. Mamajonov

b) I. Rasulov

c) B. Yo'ldoshev

d) M. Yo'ldoshev

19. Matn ichida qo'llanilgan o'zga matn ko'rinishlarini aniqlash va ularning asar mazmuni bilan qay darajada uyg'unligini belgilash tamoyili qaysi?

a) badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik xususiyatlarini aniqlash tamoyili.

b) badiiy matnda poyetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash tamoyili

c) badiiy matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini aniqlash tamoyili

d) makon va zamon birligi tamoyili

20. Abzasni matn birligi deb hisoblamaydigan olimlar unga qanday ta'rif beradilar?

a) kompozitsion-stilistik birlik

b) kompozitsion usul

c) sintaktik birlik

d) semantik birlik

21. Presuppozitsiya terminini yana qanday nomlash mumkin?

a) hammaga ayon bo'lgan jihat

b) tag ma'no

c) matn mazmuni

d) matn g'oyasi

22. Matnning til va nutq ziddiyatidagi o'rmini belgilang

a) nutqiy birlik

b) lisoniy birlik

c) ham nutqiy birlik, ham lisoniy birlik

d) sintaktik birlik

23. Matn haqidagi noto'g'ri hukmni toping

a) tinglovchi va so'zlovchining kommunikativ aloqasi

b) leksik va grammatik jihatdan bog'langan bir necha gaplar

c) bir necha gaplardan tashkil topgan butunlik

d) nominativ birlik

24. Supersintaktik birlikka berilgan quyidagi ta'riflardan qay biri noto'g'ri?

- a) hajman qat'iy belgilanmagan, ma'no anglatuvchi birlik
- b) matn ichidagi matn
- c) matnda abzasdan katta bo'lgan tushuncha
- d) nominativ birlik

25. Matnning asosiy birliklari berilgan qatorni toping

- a) so'z, gap, supersintaktik birlik
- b) so'z, gap, gap mundariyasi
- c) gap, supersintaktik birlik
- d) gap, abzas, mikromatn

26. Emik birliklar bu –

- a) lisoniy sathga oid birliklar
- b) nutqiy sathga oid birliklar
- c) oraliq til birliklari
- d) matnni tashkil etuvchi asosiy birliklar

27. Masxara, u yoki bu ijobiy xususiyatni kulgi, kalaka yo'li bilan inkor qilish yevropa adabiyotshunosligida nima deyiladi?

- a) ironiya
- b) antifraza
- c) sarkazm
- d) perifraz

28. Matn tilshunosligiga oid izlanishlar olib borgan o'zbek tilshunoslari ko'rsatilgan qatorni aniqlang

- a) A.Mamajonov, M.Hakimov, N.Turniyozov, S.Boymirzayeva
- b) A.Mamajonov, A.Nurmonov, A.Hojiyev, R.Doniyorov
- c) A.Mamajonov, M.Hakimov, O.Usmonov, N.Turniyozov
- d) A.Mamajonov, O.Usmonov, N.Turniyozov, M.Yo'ldoshev

29. I.N.Turniyozov matnni qaysi jihatdan tadqiq qilgan?

- 1) matnning pragmatik xususiyatlarini
- 2) badiiy matn va uning lingvopoyetik tadqiqi
- 3) matn sintaksisi, uning grammatik qurilishini
- 4) matn derivatsiyasi, sintagmatikasini

30. Matnni makro va mikro matnga ajratish uning qaysi xususiyatiga ko'ra tasniflash hisoblanadi?

- a) ifoda maqsadiga ko'ra
- b) mazmun belgisiga ko'ra
- c) hajm belgisiga ko'ra
- d) mazmunan tugallangan yoki tugallanmaganligiga ko'ra

31. "Mikromatn" termini ilmiy adabiyotlarda yana qanday termin bilan nomlanadi?

- a) maksimal matn

- b) kichik matn
- c) hikoya mazmunli matn
- d) tasviriy matn

32. “Oyog‘im ostida xazonning ovozi eshitiladi. Demak, kuz kelibdi. Biroq men boshqalar kabi tushkunlikka tushmayman. Zero, kuz men uchun “intiho” emas, “hisobot” faslidir. Hisobot yangi rejalar uchun poydevor ekanini bilsangiz kerak?!” Berilgan matn qaysi javobda to‘g‘ri izohlangan?

- a) tasviriy makromatn
- b) izoh mazmunli mikromatn
- c) hikoya mazmunli mikromatn
- d) tasviriy mikromatn

33. Perifraz nima?

- a) mantiqan biri ikkinchisini inkor etadigan, bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan ikki tushunchani qo‘shib qo‘llash
- b) narsa, hodisani o‘z nomi bilan emas, ularni xarakterli belgi-xususiyatlari asosida tasviriy usul bilan ifodalash
- c) yonma-yon gaplar, sintagmalarning bir xil sintaktik qurilishga ega bo‘lishi
- d) diniy e‘tiqod, irim, qo‘rqish va shu kabilar ta‘sirida so‘zning ishlatilishini cheklash

34. Badiiy matnning til xususiyatlari tekshirilayotganida undagi har bir hodisaga makon va zamon birligi tushunchasini hisobga olib yondashish tamoyiliga nima deyiladi?

- a) badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik xususiyatlarini aniqlash tamoyili.
- b) badiiy matnda poyetik aktualashgan til vositalarini aniqlash tamoyili
- c) badiiy matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini aniqlash tamoyili
- d) makon va zamon birligi tamoyili

35. Asarda qo‘llanilgan so‘z yoki iboralarni, jummalarni qayta tuzib ko‘rish, o‘xshashi bilan almashtirib ko‘rish va shu asosda baho berishga nima deyiladi?

- a) lug‘atlarga asoslanish usuli;
- b) matn variantlarini qiyoslash usuli;
- c) lisoniy tabdil usuli;
- d) lisoniy birliklar indeksini tuzish usuli;

36. Ommabop uslub o‘zbek tilshunosligida qaysi olim tomonidan monografik yo‘nalishda o‘rganilgan?

- a) S. Boymirzaeva

b) M. Yoʻldoshev

c) A. Mamajonov

d) T. Qurbonov

37. Barqaror birikma qaysi qatorda berilmagan?

a) Iboralar, hikmatli soʻzlar

b) maqol

c) matallar

d) erkin soʻz birikmalari

38. I. Galperinning matn kategoriyalarini ajratishida “vaqt va makon izchilligi” kategoriyasi qaysi termin bilan ataladi?

a) kogeziya

b) kontinium

c) prospeksiya

d) retrospeksiya

39. “Qismlar avtosemantiyasi” kategoriyasi nimani anglatadi?

a) matn tarkibidagi qismlarning mazmunan tugallanmaganligi

b) matn tarkibiy qismlarining barchasi bir xil maʼnoga egaligi

c) matn tarkibidagi har bir qismning alohida nisbatan mustaqil maʼnoga ega boʻlishi

d) matn tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi gaplar aro maʼnoviy munosabatlar

40. Kognitiv nazariyaga koʻra freymlar nimani anglatadi?

a) voqelik haqidagi ongimizda mavjud tasavvurlar

b) voqelik komponentlari toʻgʻrisidagi ongimizda mavjud qoliqlar

c) narsa-hodisa bilan bogʻliq ongimizdagi assotsiatsiyalar

d) lisoniy sintaktik qoliqlar

41. Qanday usul orqali maʼlum asar matni boshqa variantlari bilan qiyoslanadi va lisoniy farqlarning mohiyati adib nuqtai nazari, badiiy-estetik niyati hamda asar gʻoyasiga bogʻlab yoritiladi.

a) lugʻatlarga asoslanish usuli;

b) matn variantlarini qiyoslash usuli;

c) lisoniy tabdil usuli;

d) lisoniy birliklar indeksini tuzish usuli;

42. Badiiy matnda “Notoʻgʻri talaffuzni ifodalash” usuliga nima deyiladi?

a) grafon

b) alliteratsiya

c) assonans

d) geminatsiya

43. Qaysi qatorda maʼnodoshlikning turlari berilmagan?

a) leksik maʼnodoshlik,

- b) frazeologik ma'nodoshlik;
 - c) leksik-frazeologik ma'nodoshlik
 - d) fonetik ma'nodoshlik
44. Uslubiy mohiyatiga ko'ra matnning ilmiy matn tipiga quyidagilardan qaysilari kiradi?
- a) tezis, ma'ruza, annotatsiya, taqriz
 - b) ma'lumotnoma, buyruq, tavsiyanoma
 - c) suhbat, taqriz, maqola
 - d) farmon, farmoyish, buyruq
45. Evfemizm nima?
- a) nutqning tovushlar takrori yordamidagi xushohangligi
 - b) narsa-hodisaning ancha yumshoq shakldagi ifodasi
 - c) o'zlashgan so'zlardan nutqda foydalanish
 - d) ko'chimlardan foydalanish
46. Matn temporalligi deganda nima tushuniladi?
- a) matndagi harakat, xabar zamoni
 - b) matndagi harakat sodir bo'lgan makon
 - c) matnda berilgan xabarning shartlilik
 - d) matnda sodir bo'lgan harakatning tarzi
47. Aynan yoki yaqin unililarning takrorlanib kelishidan hosil bo'ladigan ohangdoshlik nima?
- a) grafon
 - b) alliteratsiya
 - c) assonans
 - d) geminatsiya.
48. Litota – bu.....
- a) kichraytirish
 - b) tasviriy ifodalash
 - c) takrorlash
 - d) qofiya
49. Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko'zi o'ngida aniq va to'la gavalantirishga frazeologik iboralarning ma'nodoshligidan foydalanish bu ...?
- a) leksik ma'nodoshlik
 - b) frazeologik ma'nodoshlik
 - c) leksik-frazeologik ma'nodoshlik
 - d) fonetik ma'nodoshlik
50. Paronomaziyaqa aloqador bo'lmagan xususiyatni belgilang
- a) ifodalilik
 - b) ohangdorlikka erishish
 - c) komik effekt yaratish, so'z o'yini hosil qilish

d) tarixiy kaloritni ko'rsatish

51. Badiiy matnda o'tmish voqeligini real tasvirlash maqsadida ishlatilgan *amin, pristav, mingboshi, noyib, ellikboshi, ponsad* kabilar qanday birlik hisoblanadi?

- a) istorizmlar
- b) arxaizmlar
- c) neologizmlar
- d) dialektizmlar

52. Qanday matnlar minimal matn sanaladi?

- a) roman, qissa, hikoya
- b) qatralar, matal, aforizmlar
- c) hikoya, doston, qasida
- d) miniatyura, maqol, roman

53. "... Gapdan katta birlik murakkab sintaktik butunlik bo'lib, u fikran va sintaktik jihatdan o'zaro bog'liq bo'lgan gaplar birlashmasidan iborat" Ushbu fikr muallifi kim?

- a) M.Yo'ldoshev
- b) I.Rasulov
- c) S.Boymirzayeva
- d) M.Hakimov

54. Elbekning "*Ko'klamda ko'karsa ko'k ko'katlar, Ko'klarga ko'milsa katta-kattalar, Ko'm-ko'k ko'karib ko'rinsa ko'llar, Ko'ngilni ko'tarsa ko'rkli gullar*" she'rida qanday fonetik hodisa bor?

- a) alliteratsiya
- b) assonans
- c) grafon
- d) metafora

55. Kogeziya nima?

- a) matn qismlari orasidagi bog'liqlik
- b) matn butunligini ta'minlash
- c) matning asosiy mazmuni
- d) matnning asosiy g'oyasi

56. Qaysi javobda leksik ma'nodoshlik berilgan?

- a) Xo'sh, mingboshining o'zi odamlar aytganiday juda xunuk va badbashara odammi? (Cho'lpon)
- b) Kechagina qarg'ab, so'kib, «o'ldirsam!» deb yurgan kundoshini o'pib, quchoqlab, silab-siyab bir nafasda ikkalasi «qalin do'st» bo'lgan emishlar. (Cho'lpon)
- c) Qurvon bibi so'zga qancha epchil bo'lsa, Razzoq so'fi shu qadar kamgap, indamas, damini ichiga solgan, ziqna odam edi.

- d) suv bor, hayot bor
57. Shakldosh soʻzlardan badiiy asarda qanday maqsadda foydalanilmaydi?
- A) xalq ogʻzaki ijodida askiya va payrov orqali kulgi chiqarish maqsadida;
- b) sheʼriyatda esa tuyuq yoki soʻz oʻyini hosil qilishda;
- c) ohangdoshlik uchun;
- d) tarixiy kaloritni koʻrsatish uchun
58. Soʻz yoki soʻzlar guruhining gap oxirida tushirib qoldirilishiga nima deyiladi?
- d) ellipsis
- e) gradatsiya
- f) sukut
- g) inversiya
59. Nutqning hosilasi... dir.
- a) matn
- b) fonema
- c) leksema
- d) fon
60. " *Tolko patriot kommunistgina kolbasani shulay yeyishi mumkin. Bravo, bravo!* (S.Ahmad) " Keltirilgan parchada qanday usul qoʻllanilgan?
- a) vulgarizm
- b) varvarizm
- c) dialektizm
- d) inversiya
61. Freym nima?
- a) muloqot
- b) matnning mazmuni
- c) matnning shakli
- d) voqelik komponentlari toʻgʻrisidagi ongda mavjud qoliplar
62. Matnlar amaliy maqsadiga koʻra qanday turlarga boʻlinadi?
- a) yozma, ogʻzaki matnlar
- b) dialog, monolog
- c) yozma matn, monolog
- d) dialog, ogʻzaki matn
63. - *Ahmoq!* – dedi kampir. – *Qayoqlarda sangʻib yurganding?* (S.Ahmad). Keltirilgan parchada qanday usul qoʻllanilgan?
- a) vulgarizm
- b) varvarizm
- c) dialektizm
- d) inversiya

64. Qanday lyg'aviy birliklar badiiy matnda tasvirlanayotgan davr voqeligini real tasvirlash, asarning tarixiylik ruhini ta'minlash maqsadida qo'llaniladi?

- a) bo'yoqdor so'zlar
- b) arxaizmlar
- c) terminlar
- d) neologizmlar

65. Matn hodisasi qaysi sohaning tadqiq ob'yekti hisoblanmaydi?

- a) psixolingvistika
- b) pragmalolingvistika
- c) kognitiv tilshunoslik
- d) pulmonologiya

66. Narsa-buyum, voqea va hodisalar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlikka asoslangan ma'no ko'chishiga nima deyiladi?

- a) inversiya
- b) metafora
- c) sukut
- d) grafon

67. Gap bo'laklarining o'rin almashinishi, yoki gap bo'laklari joylashish tartibining ma'lum bir maqsad bilan o'zgarishi hodisasiga nima deyiladi?

- a) inversiya
- b) metafora
- c) sukut
- d) grafon

68. Allegorik-jonlantirish nima ?

- a) narsa-buyum, voqea va hodisalar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlikka asoslangan ma'no ko'chishi
- b) hayvon va jonivorlarni insonlar kabi harakat qildirish, ular kabi gapirtirish
- c) so'z yoki so'zlar guruhining gap oxirida tushirib qoldirilishi
- d) kulgi qo'zg'atish maqsadida so'zlarni atayin buzib talaffuz qilish

69. Til birligini uning haqiqiy ma'nosiga qarama-qarshi ma'noda, kesatiq, qochirim, piching bilan ishlatishdan iborat ko'chimga nima deyiladi?

- a) kinoya
- b) metafora
- c) sukut
- d) grafon

70. Agnonim atamasi noto'g'ri ta'riflangan qatorni toping.

- a) bilinmagan
- b) tushunarsiz

c) noma'lum nom

d) tagma'no

71. Grafon usulidan badiiy asarda nima maqsadda foydalanilmaydi ?

a) qahramon nutqini individuallashtirishda

b) ifodani og'zaki – jonli nutqqa yaqinlashtirishda

c) kulgi qo'zg'atish maqsadida

d) muayyan hududga tegishlilikni ko'rsatishda

72. Agnomimlarning badiiy matnda uslubiy maqsad bilan qo'llanilish hodisasi nima deyiladi?

a) agnomaziya

b) paronomaziya

c) ma'nodoshlik

d) ko'chim

73. Matnning ichki tomonini nima birlashtirib turadi?

a) sintaktik vositalar

b) mazmun yaxlitligi

c) shakl va mazmun dialektikasi

d) tasviriy vositalar

74. Badiiy uslubda minimal matn deyilganda nimalar nazarda tutilmaydi?

a) qatralar, maqollar

b) matal, aforizm, minatyuralar

c) nomalar, she'r va she'riy parchalar

d) romanlar, dostonlar

75. Matnni qaysi jihatga ko'ra ilmiy, badiiy, rasmiy, ommabop kabi turlarga

bo'linadi?

a) mazmuniga ko'ra

b) uslubiga ko'ra

c) g'oyasiga ko'ra

d) bog'lanishiga ko'ra

76. Badiiy matnning leksik tahlilida nimalar o'rganilmaydi?

a) ma'nodoshlik, shakldoshlik, ko'p ma'nolilik, zid ma'nolilik

b) antiteza, paronim, neologizm,

c) istorizm, arxaizm, vulgarizm, varvarizm

d) assonans

77. Badiiy matnning morfologik tahlilida nimalarga e'tibor berilmaydi?

a) morfologik pallelizm

b) affiksial sinonimiya

c) affiksial omonimiya

d) inversiya

78. Badiiy matnning sintaktik xususiyatiga kirmaydigan hodisalar berilgan qatorni toping
- sintaktik parallelizm, emotsional gaplar
 - ritorik so‘roq gaplar
 - inversiya, ellipsis
 - alliteratsiya
79. Badiiy matnda sintaktik jihatdan bir xil shakllangan gaplarning qo‘llanilishi nima?
- sintaktik parallelizm
 - morfologik parallelizm
 - takror
 - matafora
80. Bir xil shakllangan gaplar ...ga xizmat qilmaydi
- badiiy nutq ta’sirchanligini boyitishga
 - ma’noni kuchaytirishga
 - fikrning batafsil - atroflicha ifodalanishiga
 - ma’no ko‘chishiga
81. Matnning tarkibiy qismlari berilgan qatorni toping
- so‘z, gap, abzas, super sintaktik birlik
 - so‘z, gap, gap mundariyasi
 - gap, super sintaktik birlik
 - gap, abzas, mikromatn
82. Adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko‘chirish yoki so‘zlarning umuman ko‘chma ma’noda ishlatilishiga ... deyiladi?
- Antiteza
 - Farqlash
 - o‘xshatish
 - ko‘chim
83. Og‘zaki matn dunyo tilshunosligida yana qanday nom bilan ataladi?
- tekst;
 - diskurs;
 - nutqiy akt;
 - nutq faoliyati
84. Metaforani toping?
- Karim tulkiday ayyor odam
 - Karim – tulki
 - Voy, tulki-yey... (Karimga nisbatan ishlatilmoqda)
 - uzoqda tulkillar ko‘rindi

85. Badiiy matnning sintaktik xususiyatiga kirmaydigan hodisalar qaysi qatorda berilgan?

- a) sintaktik parallelizm, emotsional gaplar
- b) ritorik so'roq gaplar
- c) inversiya, ellipsis
- d) alliteratsiya

86. Ellipsis hodisasi haqidagi qaysi fikr noto'g'ri?

- a) Nutqiy aloqa jarayonida gap bo'laklarining muayyan maqsad bilan tushirilishi
- b) Gap bo'laklarining muayyan maqsadda o'rin almashtirilishi
- c) Bunday tushirilish tildagi lingvistik iqtisod - lisoniy tejamkorlik tamoyili asosida amalga oshiriladi
- d) Lisoniy ortiqchalik tamoyili asosida amalga oshiriladi

87. Xususiy-muallif o'xshatishini toping.

- a) rangi machitning jaydari shamidek sap-sariq
- b) tulkiday ayyor
- c) toshday qattiq
- d) ko'zlari charosdek

88. *Ortiq jizzaki ko'rinmaslik uchun bos-i-iq tovush bilan dedi...* (P.Qodirov).

- a) unlilarni birdan ortiq yozish
- b) alliteratsiya
- c) assonans
- d) geminatsiya

89. M.Hakimovning tadqiqotlari matnning qaysi jihatlarini qamrab oladi?

- a) pragmatik jihatlarini
- b) matn derivatsiyasini
- c) lingvopoetik jihatlarini
- d) matndagi til va nutq birliklarining ierarxiyasini

90. *Oshxona taraf quloq tutadi. Darvoza taraf quloq tutadi. Molxona taraf quloq tutadi. Ovoz qayerdan kelyapti -- bilolmaydi* (T.Murod). Bu yerda qanday usuldan foydalanilgan?

- A) antiteza
- d) Farqlash
- e) o'xshatish
- d) sintaktik parallelizm

91. Badiiy matnni tahlil qilish tamoyili qaysi?

- a) lisoniy tabdil, matn variantlarini qiyoslash
- b) lug'atlarga asoslanish
- c) lisoniy birliklar indeksini tuzish

- d) gap bo'laklarining muayyan maqsadda o'rin almashtirilish
92. Badiiy matnning fonetik tahlilida qaysi hodisalarga asoslaniladi?
- grafon, alliteratsiya
 - alliteratsiya, parema, grafon
 - grafon, alliteratsiya, assonans
 - Assonans, parema
93. Badiiy matnning sintaktik tahlilida nimalarga e'tibor beririladi?
- ma'nodoshlik, shakldoshlik, zid ma'nolilik
 - parema, agnonim
 - varvarizm, vulgarizm
 - inversiya, ellipsis
94. Matnni muayyan uslubga xoslovchi vositalar berilmagan qatorni toping
- fonetik-fonologik, leksik-semantik
 - morfologik
 - sintaktik
 - ma'nodoshlik, shakldoshlik, zid ma'nolilik
95. *Nodonlar davrasida kar bo'l. Donolar davrasida soqov bo'l...* (O'.Hoshimov) Bu yerda qanday usuldan foydalanilgan?
- antiteza
 - farqlash
 - o'xshatish
 - metafora
96. M.Yo'ldoshev badiiy matnni tahlil qilish tamoyillarini nechta deb belgilaydi?
- 5
 - 3
 - 7
 - 8
97. Qaysi qatorda ko'chimlar berilmagan?
- metafora, metonimiya orqali
 - sinekdoxa va kinoyalalar orqali
 - metafora va kinoya orqali
 - sintaktik parallelizm
98. I. Galperin matn kategoriyalarini necha turga ajratadi ?
- 8
 - 6
 - 10
 - 5
99. Barqaror birikma qaysi qatorda berilmagan ?
- iboralar, hikmatli so'zlar

- b) maqol
- c) matallar
- d) erkin soʻz birikmalari

100. Qaysi qatorda matn tarkibiy qismlarini bogʻlovchi vositalar berilmagan?

- a) bogʻlovchilar
- b) sintaktik parallelizm
- c) takrorlar, olmoshlar
- d) arxaizmlar

Fan yuzasidan tavsiya etiladigan magistrlik dissertatsiyasi mavzulari

1. XX asr oxiri oʻzbek sheʼriyatining lingvistik tahlili
2. XX asr oxiri oʻzbek nasrining lingvistik tahlili
3. Sirojiddin Sayyid sheʼrlarining lingvopoetik tahlili
4. Muxammad Yusuf sheʼrlarining lingvopoetik tahlili
5. Togay Murod asarlarining lingvopoetik tahlili
6. "Oʻtkan kunlar" romanining sotsiolingvistik tadqiqi
7. Oʻzbek xalq ertaklarining lingvostilistik xususiyatlari
8. Oʻzbek xalq maqollarining lingvostilistik xususiyatlari
9. Oʻzbek xalq latifalarining lingvostilistik xususiyatlari
10. Oʻzbek xalq dostonlarining lingvostilistik xususiyatlari
11. Askiya matnlarining lingvostilistik xususiyatlari
12. Oʻzbek xalq qoʻshiqlarining lingvistik va lingvostilistik xususiyatlari
13. I. Mirzo sheʼrlarining lingvistik xususiyatlari
14. Sh. Xolmirzaevning «Oʻzbeklar» hikoyasining sotsiolingvistik xususiyatlari
15. O. Matchon sheʼrlarining leksik xususiyatlari
16. Abzas va uning tabiati
17. Matnning shakllanishi va abzas
18. A. Qahhor hikoyalarining sotsiolingvistik tadqiqi
18. "Oʻtkan kunlar" asarining gendrolingvistik tadqiqi
19. "Shaytanat" asarining gendrolingvistik tadqiqi

FAN YUZASIDAN GLOSSARIY

- Adresatlik** – axborotni uni qabul qiluvchining ijtimoiy mavqei, ruhiy holati kabi xususiyatlarini inobatga olgan holda uzatish (boshqacha aytganda – retsipient tanlovi)
- Aferezis**– oldingi soʻzning soʻnggi tovushi taʼsirida keyingi soʻz boshidagi tovushning tushishi. *Aytar edi > aytardi.*
- Agnomaziya**– agnonimlarning badiiy matnda qoʻllanishi.
- Agnonim**– bilinmagan, tushunarsiz, nomaʼlum nom degan maʼnoni bildiradi. (Yun.“inkor”, “bilish”, va “nom” soʻzlaridan)
- Alliteratsiya**– misralar, undagi soʻzlar boshida bir xil undosh tovushlarning takror qoʻllanishi: *Qaro qoshing, qalam qoshing, qiyiq qayrilma qoshing, qiz...*
- Allegoriya**– qochirim, kesatish, pishingga asoslangan maʼno koʻchishi.
- Amfiboliya**– ikki xil talqin etish, ikki maʼnoda tushunish mumkin boʻladigan gap. *Bu // ahmoq odam emas. Bu ahmoq // odam emas.*
- Anʼanaviy oʻxshatishlar**– ogʻzaki nutqda koʻp ishlatiladigan oʻxshatishlar
- Anafora**– sheʼriy misralarning boshida yoki nasriy asardagi gaplarning oldida bir xil jaranglagan tovush, ohangdosh soʻz va iboralarning takrorlanib kelishi.
- Antifraza**– ironiyaning bir koʻrinishi boʻlib, biror shaxs yoki predmetga xos boʻlgan u yoki bu ijobiy xususiyatni kulgili intonatsiya bilan inkor qilishga aytiladi.
- Antiteza**– badiiy asarda bir-biriga zid maʼnoli soʻzlarni yonma-yon qoʻllash, qarshilantirish sanʼati.
- Antonomasiya**– atoqli otlarning badiiy matnda alohida maqsadlar bilan qoʻllanishi: *omborchi Yovqosh Olloberganov, OldiSottiyev...*
- Apastrofa**– jonsiz predmetlarga jonli narsadek murojaat qilish va shunday munosabatda boʻlish.
- Argo**– yasama til. Biror ijtimoiy guruh, toifa vakillari

	o'rtasida tushunarli bo'lgan, boshqalar tushunmaydigan lug'aviy birliklar.
Arxaizm-	ma'lum davr uchun eskirgan, iste'moldan chiqqan boshlagan til birligi.
Assonans-	aynan yoki yaqin unilarning takrorlanishi natijasida yuzaga keladigan ohangdoshlik.
Badiiy matn-	asosiy maqsad mohiyatida estetik vazifa yetakchilik qiladigan matn
Badiiy matn -	umumxalq tilida mavjud bo'lgan barcha lingvistik birliklarning badiiy estetik vazifani bajarishga xizmat qilishi natijasida yuzaga keladigan matn
Badiiy matn tili-ning umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini aniqlash tamoyili-	tahlil etilayotgan matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini aniqlash
Badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik xususiyatlarini aniqlash tamoyili -	matn ichida qo'llanilgan o'zga matn ko'rinishlarini (hadis, rivoyat, miflar, afsonalar kabi) aniqlash va ularning asar mazmuni bilan qay darajada uyg'unligi, badiiy mazmun ifodasidagi o'rni, asosiy matn bilan lisoniy va semantik bog'lanishini aniqlash
Barqaror birikmalar -	iboralar, maqol-matallar va hikmatli so'zlar
Demunitiv shakl-	kichraytirish shakli (deminutiv shakl, deminitus): <i>qizcha, tugunchak, kelinchak</i> .
Ekspressiya-	nutqning ta'sirchanligi, ifodaliligi va ma'nodor bo'lishi.
Ekzotizm-	o'zlashgan so'zlar, nutqqa alohida bir o'ziga xoslik berish uchun qo'llaniladigan so'zlar.
Emfaza-	nutqning ko'tarinki ruhda bo'lishi, emotsionallikning kuchli bo'lishi: <i>Amr et, Tojixon, amr et...</i> Emfaza takror yordamida yuzaga chiqyapti.
Emotsional gaplar-	so'zlovchining o'ta xursandlik yoki o'ta xafalik holatlarini yoki qahramonning his-hayajonini,

- voqea-hodisaga emotsional munosabatini ifodalovchi gaplar
- Emotsiya**– insoniy his-tuyg‘u, kechinma va hissiyotlarning til birliklarida ifodalanishi.
- Enantiosemiya**– bir so‘zning semantik tuzilishida zid ma’nolarning yuzaga kelishi. Masalan: *Chiqmoq* - *ichkaridan tashqariga harakatlanish*, *transportda ichkariga harakatlanish*. *Bosh* - *yo‘lning boshlanishi va yakuni*
- Epifora**– anaforaning teskarisi. Parallel tuzilgan nutq parchalari oxirida ayni bir elementning takrorlanishidan iborat uslubiy vosita
- Evfoniya**– nutqning tovushlar takrori orqali yuzaga chiqariladigan xushohangligi.
- Evfemizm**– narsa-hodisaning ancha yumshoq shakldagi ifodasi, *ikkifat* – *og‘iroyoqli, homilador*.
- Farqlash** – ikki narsa – buyum, voqea – hodisa yoki holatlardagi differensial belgini aniqlash
- Figural ma’no** voqelik bilan bevosita bog‘lanmaydigan, narsa, belgi, haraktning nomiga aylanmagan ma’no. Figural ma’no voqelik bilan nomlovchi ma’no orqali bog‘lanadi. Masalan: *Ovozining shirasi qochgan*.
- Giperbola**– narsa-hodisa, jarayonlarning belgi-xususiyatini, holatini o‘ta bo‘rttirib tasvirlash.
- Gradatsiya**– nutq parchalaridan biri ikkinchisining ma’nosini kuchaytirib borishidan iborat uslubiy jarayon.
- Grotesk**– mubolag‘aning bir ko‘rinishi. *Kulgili, g‘ayritabiiy* degan ma’noni bildiradi.
- Geminatsiya**– qo‘sh undoshlilik. Ikki aynan bir xil undoshli holatning yuzaga kelishi: *uchchida, teppasida...*
- Ilmiy matn** – til birliklarining fan sohasida, ilmiy bayon jarayonida ishlatiladigan, ob‘ektiv borliqni idrok etishda faqatgina dalil va faktlarga tayanadigan matn
- Informativlik** – uzatilayotgan axborotning adresat uchun muhimligi yoki yangilik darajasi

Inteq –	jonsiz narsalarni, hayvonlarni nutq sohibi sifatida tasvirlash, insonlardek gapirtirish
Intellektual leksika–	ma'lum bir tushunchanigina ifodalab, qo'shimcha emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lmagan so'zlar
Intentsionallik –	matn strukturaviy va ma'noviy yaxlitligining kommunikativ maqsad bilan bog'liqligi
Intertekstuallik –	ma'lum turdagi matn tarkibida invariant mazmun-ma'ning qayta yaratilishi
Ironiya–	so'z va iboralarning kesatq yoki piching bilan o'z ma'nosiga qarama-qarshi ma'noda ishlatilishi.
Jargon–	-biror guruh vakillarining, o'z nutqi bilan ko'pchilikdan ajralib turish maqsadida, o'zicha mazmun berib ishlatadigan so'z va iboralari.
Jonlantirish–	jonsiz predmet, mavhum narsalarga insonga xos xususiyatlar berib tasvirlash usuli. Personifikatsiya. Tashxis.
Kakofemizm– (disfemizm)	ayrim tushunchalarni qo'pol va dag'al usulda ifodalash. Evfemizmning teskarisi. Masalan: <i>o'ldirmoq - jonini jahannamga jo'natmoq, asfalasofilinga ravona qilmoq</i> kabi ifodalar.
Kalambur–	so'z o'yini. Ko'p ma'noliligiga, fonetik tuzilishi bir xilligiga yoki yaqinligiga asoslanadigan usul
Kanselyarizm–	rasmiy stilga xos so'z va nutq shakllari
Kataxraza– (Oksyumoron)	qarama-qarshi tushunchalarni bog'lash, so'zni o'z asl ma'nosiga muvofiq bo'lmagan holda qo'llash: <i>oq tunlar, qizil siyoh</i> kabi.
Keng qamrovli kommunikatsiya –	keng qamrovli informatsiya vositalari:televideniye, radio, turli bosmaxonalar va boshqa jamiyatga informatsiya yetkazib beruvchilar
Kinoya–	til birligini uning haqiqiy ma'nosiga nisbatan qarama-qarshi ma'noda, kesatq, piching bilan ishlatishdan iborat ko'chim.
Ko'chim–	badiiy ifodalilikni oshirish uchun ko'chma ma'noda qo'llangan nutq birligi, ramz bilan qo'llangan so'z.

Ko'chimlar--	adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko'chirish yoki so'zlarning umuman ko'chma ma'noda ishlatilishi
Kogerentlik –	matn qismlarining semantik-mantiqiy munosabatlar (sabab-oqibat, referentativ, zamon-makon) negizida boqlanishi
Kogeziya –	matn bo'laklarining grammatik, leksik, ritmik, grafik vositalar yordamida birikishi
Kommunikatsiya vositalari –	muloqatni amalga oshirishda xizmat qiluvchi vositalar
Kommunikatsiya- (lot.communicatio, communicodan –“	umum bilan qilaman, bog'layman, muloqot qilaman”) –muloqot, fikr almashish
Kontaminatsiya–	biror munosabat, tasavvurga ko'ra o'zaro bog'liq bo'lgan ikki so'z yoki iborani birlashtirish yo'li bilan yangi so'z yoki iboraning hosil bo'lishi. Masalan, <i>erga tegmoq // turmushga chiqmoq// erga chiqmoq</i>
Lisoniy birliklar indeksini tuzish usuli –	asardagi lisoniy birliklarning indeksini tuzib chiqish, asardagi eng ko'p qo'llanilgan, asar badiiyati uchun xarakterli bo'lgan birliklar (masalan, iboralar, sinonimlar, antonimlar yoki epitetli birikmalar, metonimiya, metafora)larni aniqlash
Lisoniy tabdil usuli–	(tabdil – «almashtirish, o'zgartirish, o'rin almashtirish») asarda qo'llanilgan so'z yoki iboralarni, jummalarni qayta tuzib ko'rish, o'xshashi bilan almashtirib ko'rish va shu asosda baho berish
Litota–	narsa, hodisa yoki belgining hajmi, kuchi kabilarni kamaytirib tasvirlash.
Lug'atlarga asoslanish usuli –	asar tili, ayniqsa tarixiy mavzudagi asar yoki tarjima asarlarining til xususiyatlari aniqlashda tegishli lug'atlarga murojaat qilish
Majoz–	mavhum tushuncha yoki g'oyalarni aniq obraz orqali ifodalash. <i>Ayyorlik belgisiga egalik -</i>

	<i>tulki.</i>
Makon va zamon birligi tamoyili –	badiiy matndagi har bir hodisaga makon va zamon birligi tushunchasini hisobga olib yondashish
Maksimal matn–	keng ko‘lamdagi voqealarni yoritish ehtiyoji bilan yuzaga kelgan butunlik, yirik hajmli asarlar
Maqol–	chuqur ma‘noli, tuzilishi gapga teng, alohida ritmik-melodik xususiyatlarga ega bo‘lgan folklor janri
Matn variantlarini qiyoslash usuli –	ma‘lum asar matniniuning boshqa variantlari bilan qiyoslash va lisoniy farqlarning mohiyati adib nuqtai nazari, badiiy-estetik niyati hamda asar g‘oyasiga bog‘lab yoritish
Minimal matn–	biror mavzuni yoritishga bag‘ishlangan qatralar, xalq donishmandligini ifodalaydigan maqol, matal va aforizmlar, miniatyuralar, hajviy asarlar, nomalar, she‘r va she‘riy parchalar, umuman, kichik mavzuni qamrab oluvchi bir necha gaplardan iborat butunlik
Monolog–	so‘zlovchining o‘ziga qaratilgan, boshqa shaxsning tinglash va javob berishini e‘tiborda tutmaydigan nutq.
Muvaqqat- ma‘no	so‘zning ma‘no tuzilishida shakllanib yetmagan, ma‘lum individual qo‘llanishda yuzaga chiqadigan ma‘no. Okkazional ma‘no. <i>San ‘atimiz gullari, shabada yo‘rg‘aladi</i> kabi.
Metafora–	bir predmetning nomini boshqa predmetga shakl, belgi va harakat o‘xshashligini e‘tiborga olib ko‘chirish.
Metateza–	so‘zdagi tovushlarning o‘rin almashinishi: <i>kiprik-kirpik, tuproq-turpoq</i> kabi.
Metonimiya–	bir predmet, belgi, harakat nomini o‘zaro tashqi yoki ichki bog‘liqlik asosida boshqa predmet, belgi yoki haraktga nisbatan qo‘llash.
Nobadiiy matn -	asosiy maqsad-mohiyatida kommunikativ vazifa yetakchilik qiladigan matn
Noto‘g‘ri talaf-	nutqda turli sabablarga ko‘ra ayrim so‘zlar,

fuzni ifodalash – O'xshatish–	asosan, o'zlashma so'zlarni buzib talaffuz qilish ikki narsa yoki hodisa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, aniqroq, bo'rttiribroq ko'rsatib berish.
Okkazionalizm–	mahsuldor bo'lmagan model asosida yasalgan va faqat shu nutqiy matnning o'zida qo'llangan so'z, individual-uslubiy neologizm.
Oksyumoron–	mantiqan biri ikkinchisini inkor etadigan, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki tushunchani qo'shib qo'llash. <i>Baqirgan sukunat, qizil qor, shirin g'am</i>
Ommabopmatn–	mohiyatan hozirjavob, axborot hamda targ'ibot-tashviqot xarakteridagi, dunyo yoki mamlakatimiz miqyosida sodir bo'layotgan voqea-hodisalardan zudlik bilan xabardor qilish natijasida yuzaga keladigan matn
Parallelizm–	yonma-yon gaplar, sintagmalarning bir xil sintaktik qurilishga ega bo'lishi.
Perifraz–	tasviriyifoda. Narsa, hodisani o'z nomi bilan emas, ularni xarakterli belgi-xususiyatlari asosida tasviriy usul bilan ifodalash. <i>Zangori olov-gaz, dala malikasi- makkajo'xori</i> kabi.
Period	
Professionalizm–	tildagi kasb-hunarga oid bo'lgan so'z va iboralar
Rasmiy matn–	hozirgi o'zbek tilining davlat ma'muriy, huquqiy muassasalarida, rasmiy diplomatik munosabatlarida namoyon bo'ladigan ko'rinishi faqat so'roq shaklida ifodalanib, kuchaytirishdan iborat uslubiy vosita; javob talab qilmaydigan so'roq gap.
Ritorik so'roq–	tasdiq va inkor mazmuniga ega bo'lgan, tinglovchidan javob talab qilmaydigan gaplar
Ritorik so'roq gap –	achchiq zaharxanda, istehzoli ta'na, piching.
Sarkazm–	alohida individlar o'rtasida ma'lum bir muhitda
Shaxslararo kommunikatsiya –	o'zaro ma'lumot almashish (telefon, telegraf, internet orqali yozishmalar hamda aloqa tizimi-

	ning boshqa turlari, suhbatlar, og‘zaki imtihonlar va shu turdagi boshqa muloqot shakllari)
Simvol–	badiiy nutqda hayotiy voqea, tushuncha va predmetlar ifodasi uchun so‘zlarning ma‘lum ravishda ko‘chma ma‘noda ishlatilishi.
Sintaktik parallelizm –	badiiy matnda sintaktik jihatdan bir xil shakllangan gaplar
Sinekdoxa–	bir predmet nomining boshqa predmetga butun va qism munosabati asosida ko‘chishi, butunning nomi qismning nomi yoki aksincha bo‘lib qolishi.
Situativlik –	matn mazmuniy va strukturaviy qurilishining kommunikativ sharoit, vaziyat bilan bog‘liqligi
Sukut.	(yoki <i>jim qolish</i>) - so‘z yoki so‘zlar guruhining gap oxirida tushirib qoldirilishi
Tabu–	diniy e‘tiqod, irim, qo‘rqish va shu kabilar ta‘sirida so‘zning ishlatilishini cheklash yoki man etish. <i>Chayon - oti yo‘q, bo‘ri - jondor</i> kabi
Takror–	ayni bir so‘z, ibora yoki sintaktik shakllarning muayyan maqsad bilan qaytarilishi.
Tavtologiya–	bir fikrni boshqa so‘z yoki so‘zlar bilan takroran ortiqcha qo‘llash: <i>oyoq bilan tepish, gap gapirmoq</i> kabilar.
Undoshlarni birdan ortiq yozish –	orfoepik me‘yor bo‘yicha bir undosh talaffuz qilinishi kerak bo‘lgan so‘zlarda muayyan vaziyatlarda ekspressiya va estetik maqsad talabi bilan undoshlarniatayin qavatlab talaffuz qilish va yozish
Varvarizm–	ona tiliga o‘zlashmagan, o‘zga til hodisasi sifatida qo‘llangan so‘z yoki ibora: <i>madam, missis, mersi...</i>
Vulgarizm–	adabiy tilga kirmaydigan dag‘al so‘z va iboralar.
Xususiy-muallif o‘xshatishlari–	yozuvchining o‘z nigohi, kuzatuvchanligi, badiiy taxayyuli, analogiya quvvati asosida xalq tilidan foydalangan holda yaratgan o‘xshatishlari

Fan yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdupattoev M.T. O'zbek matnida supersintaktik butunliklar. Filol.fan.nom. ...diss.avtoref. – T., 1998.
2. Boymirzaeva S. Matn mazmunida temperollik semantikasi. Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2009.
3. Hakimov M. O'zbek ilmiy matnining sintagmatik talqini. DDA. – Toshkent, 2001. - 50b.
4. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent, 2002. – 168 b.
5. I.Qo'chqortoev. Badiiy nutq stilistikasi, T., 1975
6. Karimov S. O'zbek tilining badiiy uslubi, Samarqand, 1992
7. Karimov S.A. O'zbek tili uslubshunosligining hozirgi bosqichdagi konferensiya materiallari. – Samarqand: SamDU nashri, 1999.- 69 b.
8. Mamadieva M. Ilmiy matnning sintaktik xususiyatlari. T. , 2008
9. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi / O'quv qo'llanmasi. – Toshkent, 1989. – 62 b.
10. Matn va uning lisoniy tahliliga oid tadqiqotlar, xalqaro ilmiy – nazariy
11. Matn va uning talqini, xalqaro ilmiy – nazariy konferensiya materiallari. – Samarqand:SamDCHTI nashri, 2000. – 256 b.
12. Mukarramov. Hozirgi o'zbek adabiy tilining ilmiy stili T., "Fan", 1984
13. Muxamedova D. Mikromatn haqida ayrim mulohazalar // Til va adabiyot ta'limi, 1998, 1-son, 45-49-betlar
14. O'rinboev B., Qong'urov R., Lapasov J. Badiiy tekstning tahlili. – Toshkent: "O'qituvchi", 1991. – 216 b.
15. Qodirov P. Xalq tili va realistik proza, T., "Fan", 1973
16. Qilichev E. Matnning lingvistik tahlili. – Buxoro, 2000. – 36 b.
17. Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari, T., 1977
18. Rasulov I. Murakkab sintaktik butunlik. O'zbek tili va adabiyoti. 1983, №1.
19. Shomaqsudov A., Rasulov I. va boshq. O'zbek tili stilistikasi. – T., "O'qituvchi", 1983.
20. Turniyazov N., Yo'ldoshev B. Matn tilshunosligi. Samarqand, 2006

21. Turniyozov N. Matn lingvistikasi. – Samarqand : Sam DCHTI 2-nashri, 2003. – 86 b.
22. Tojiev Y., Mallaboev A. Nutq madaniyati va uslubiyat, T., Iqtisodiyot universiteti, 2006.
23. Uluqov N.O‘zbekcha diniy matnlar ekzotik leksikasi. NDA. – Toshkent, 1997. – 29b.
24. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T. 2007
25. Yoldoshev B. Badiiy matnlardan frazemalarda uslubiy maqsadda foydalanish// Matn va uning lisoniy tahliliga oid tadqiqotlar, xalqaro ilmiy anjuman materiallari. –Samarqand: Sam DU nashri, 1999, 8 – 11 betlar.
26. Yoldoshev I.A. O‘zbek tilshunosligida matn va uni o‘rganish muammolari (erishilgan yutuqlar va vazifalar) // Samarqand, 1998, 59 – 61 – betlar.
27. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. T.: Fan, 2008
28. Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. T., Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010
29. Баяриндиева Г.С. Лингвистический анализ художественного текста. – Саранск, 1980.
30. Безруков Б.И Лингвистический анализ текста. – Тюмен, 1978.
31. Бухбиндер Б.А., Розанов Э.Д. О целостности и структуре текста //Вопросы языкознания, 1975 , №6. Вопросы языкознания, 2002, №3.
32. Гак В.Г Прагматика, узус и грамматика речи // Иностранние языки в школе, 1982, № 5.
33. Гальперин И.П О понятии <<текст>> // Вопросы языкознание, 1974, №6.
34. Гальперин И.П. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: “Наука”, 1981. - 140 с.
35. Дейк Т.А. ван. Язык. Познание. Коммуникация. – М.: “Прогресс”, 1989.
36. Залевская А.А. Некоторые проблемы теории понимание текста// Вопросы языкознания, 2002, №3.
37. Зарубина Н.Д. Текст: лингвистический, методический аспекти. – М.: Русский язык, 1981. -112 с.

38. Зильберман Л.И. Структурно – семантический анализ текста. – М., 1982.
39. Изенберг Х. О предмети лингвистической теории текста //Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск УСЦ. – М.: “Прогресс”, 1978. – С. 4356.
40. Кожевникова К. Об аспектах связанности в тексте как целом// Синтаксис текста (сборник научных трудов) М.: Наука, 1979.
41. Купина И.А. Лингвистический анализ художественного текста. – М., 1980
42. Курилович Э. Деривация лексическая и деривация синтаксическая. // Очерки по лингвистике. – М., 1962.
43. Леонтьев А.А. Высказывания как предмет лингвистики, психолингвистики и теории коммуникации // Синтаксис текста. – М.: “Наука”, 1979.
44. Лингвистика текста, материалы научной конференции, част 1, М.1974 – 170с.
45. Лингвистическая интерпретация специального текста и активизация обучения иноязычному общению, материалы международной теоретической конференции. – Самарканд, 1998. – 254 с.
46. Лотман Й.М. Анализ поэтического текста. – Л.: “Просвещение”, 1972 – 272с.
47. Матвеева Т.Б. Функциональные стили в аспекте текстовых категорий. –
48. Мельчук И.А. Опыт теории лингвистических моделей <<смысл – текст>>. – М.: “Наука”. 1974.
49. Москальская Г.В. Грамматика текста. – М.: “Наука”, 1981.
50. Николаева Т.М. Лингвистика текста // Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990. – С. 267 – 268.
51. Николаева Т.М. Лингвистика текста. Современное состояние и перспективы //Новое в зарубежной лингвистике, выпуск ВИИИ. – М.: “Прогресс”, 1978. – С. 5-39.
52. Общение. Текст. Высказывание. – М.: “Наука”, 1989.
53. Одинцов Б.Б. Стилистика текста. – М.: “Наука”, 1980 – 264с.
54. Предложение и текст: семантика, прагматика, синтаксис. – Л.: “Наука”, 1988.

55. Синтаксис текста (сборник научных трудов), М.: “Наука”, 1979
56. Солнцев В.М. Язык как системно – структурное образование. – М.: “Наука” 1971.
57. Тураева З.Й. Лингвистика текста (структура и семантика). – М.: “Просвещение”, 1986. – 127 с.

Mundarija

“Matn tilshunosligi” fanining o‘rganish ob’yekti va maqsad-vazifalari.....	3
Matn tilshunosligi fanining shakllanishi.....	5
I. Matn va uning ta’rifi masalasi.....	11
Matn va uning til sistemasidagi o‘rni.....	16
Matn va kommunikatsiya.....	18
Matnning tarkibiy qismlari.....	23
Matn tarkibiy qismini bog‘lovchi vositalar.....	28
II. Matnning kategorial belgilari.....	35
Matn va uning tipologik tasnifi.....	38
Matn va uslub munosabati.....	43
Badiiy matni tahlil qilish tamoyillari.....	48
Badiiy matni tahlil qilish usullari.....	51
Badiiy matnning fonetik tahlili.....	56
Badiiy matnning leksik tahlili.....	59
Badiiy matnda ko‘chimlar.....	66
Badiiy matnning morfemik-morfologik tahlili.....	72
Badiiy matni sintaktik tahlil qilish.....	76
III. Amaliy va seminar mashg‘ulotlari uchun tavsiya etiladigan taxminiy mavzular.....	82
Fan yuzasidan nazorat savollari.....	83
Fan yuzasidan tavsiya etiladigan mustaqil ta’lim uchun savollar.....	85
Fan yuzasidan test topshiriqlari.....	86
Magistrlik dissertatsiyasi uchun tavsiya etiladigan taxminiy mavzular..	101
Glossariy.....	102
Fan yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati.....	110

Muhabbat Kurbanova, Ma'rufjon Yo'ldoshev

MATN TILSHUNOSLIGI

Muharrirlar: D.Akmalova, S.Qurbonov

Bosishga ruxsat etildi 04.04.2014 y. Bichimi 60x84 1/16.

Tezkor rizografda bosildi. Nashriyot hisob tabag'i 7,0.

Shartli bosma tabag'i 12,1. Adadi 100 nusxa. Bahosi shartnoma asosida.

Buyurtma № 74.

“Universitet” nashriyoti. Toshkent – 100174. Talabalar shaharchasi. M.Ulug'bek
nomidagi O'zMU ma'muriy binosi

O'zMU bosmaxonasida bosildi

